

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERTETI
YURIDIK FAKULTETI
'FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQ TA'LIMI' KAFEDRASI



TARBIYA
MODULI PAKKASI

Tarix yo'nalishi
2-bosqich talabalari uchun

NAMANGAN - 2023

Majmua Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2023 yil ___ avgustdagi ___ - sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan ishchi fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

T. Ismoilov

Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası professor v.b.

Taqrizchilar:

E. G’apparov

Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası dotsenti, fPhD.

NamDU Yuridik fakulteti dekani:

2023 yil “___” _____ f.f.d., dots. **B. Talapov**

“Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası mudiri:

2023 yil “___” _____ **PhD dots. E. G’apparov**

O’quv-uslubiy мажмуа Namangan davlat universiteti Kengashining 2023 yil ___ avgustdagi ___ - sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

№	MUNDARIJA
1.	Titul varog'i
2.	Mundarija
3.	Ma'ruza matnlari
4.	Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi
5.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
6.	Glossariy
7.	Ilovalar: -Namunaviy fan dasturi; -Ishchi fan dasturi; -Tarqatma materiallar; -Testlar; -Baholash mezonlari;

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrası



TARBIYA
fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Ushbu ma'ruzalar matni Namangan davlat universiteti Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasining 2023 yil __ _____ dagi № __- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan

Tuzuvchilar:

T. Ismoilov

Namangan davlat universiteti "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrasida professor v.b.

Taqrizchi:

PhD E. G'apparov

1-MAVZU: TARBIYA FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Tarbiya-ijtimoiy fan sifatida.
2. Tarbiya fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi, vazifalari, asosiy tushunchalari, metodologiyasi, tadqiqot usullari.
3. Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
4. Tarbiya fanining jamiyat va olamni rivojlantirishdagi o'rni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli qarorida belgilangan vazifalar.

Hozirgi davrda mamlakatimizda Tarbiya ishlarining mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Birgina —Ta'lim to'g'risidagi Qonun, —Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligini keltirish kifoya.

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir.

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Albatta, ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.. har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo

shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim ...¹

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy – tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda Tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya ishlarini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiya ishlarini tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

- Tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulqatvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;

- Tarbiya ishlarining maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

- Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo'lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, Tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

- O'quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq;

- Tarbiya ishlari ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tarbiya ishlarini rejalashtirishda turli fanlarning integrasiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiya ishlari metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tamonlama ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqoroning ilm olishi, o'z qobiliyatlarini har tamonlama rivojlantirish ta'kidlanadi. Ta'lim to'g'risida qabul qilingan qonunda maktabning, unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. Т., Маънавият, 2008, 61-бет.

amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O'qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun sinfdan, maktabdan tashqari tarbiya ishlari bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Har bir fanning predmeti, o'rganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud bo'lganidek, Tarbiya fanining ham predmeti, o'rganish obyekti va amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari bor. Tarbiya fanining predmeti sinfda va maktabda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyani to'g'ri tashkil qilish, har tamonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashning eng zamonaviy va eng qulay yo'nalishlarini belgilash, vositalarini izlab topishdan iboratdir.

Tarbiyani tashkil qilishning asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh masalalaridan biri ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdan iborat etib belgilangan. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiya ishlari amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiya tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya shaxs kamolatining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. Albatta, bunda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli shaxsni tarbiyalashga, tarbiya ishlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Uning mazmunida yoshlar tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti tomonidan 2008 yilni —Yoshlar yilil va 2010 yilni —Barkamol avlod yilil 2012 yilni —Mustahkam oila yilil deb e'lon qilinishi va ushbu yillar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishning qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan va ma'nau sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya barkamol avlodning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Tarbiya ishlari sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiya ishlarida asosiy o'rin egallaydi. Shu sababli bugunga yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilar turli xil tarbiyaviy tadbirlar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayoning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.


Tarbiya ishlari jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dordga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug' olim Arastu. Shunga asosan tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiya ishlari jarayonida va tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bimir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;

- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;

- o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiya fanining predmeti va uning vazifalarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:



Tarbiya jarayonining ijtimoiy ahamiyati. Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan —Ta'lim to'g'risidagi Qonun , —Kadrlar tayyorlash milliy dasturini yaratilishi ta'limni tubdan halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qancha nutq va risolalarida istiqbolga erishishning yo'llari, tamoyillarini aniq va ravshan ko'rsatib bergan. Ayniqsa, —Istiqlol va ma'naviyat, —O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, — Barkamol avlod

orzusi kabi asarlarida jamiyatning ma'naviy jihatdan yangilanishi va rivojlanishi, tarbiya masalalari, ijtimoiy tarbiyaning aosiy negizlari bayon etilgan.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya Tarbiya ishlarining aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tabiiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi. Tarbiya va Tarbiya ishlari har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahasiyat kab etadi, Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan g'alq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiya ishlari tizimi bo'lishini taqozo etadi.

Tarbiya xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Tarbiya fanini o'rganishda O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga mos ravishda bir qancha ta'lim-tarbiyaga oid fanlarga bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat

qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. Shuning uchun shaxs tarbiyasi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiya fani falsafa fani bilan bog'liqdir. Tarbiya fani ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish shug'ullanganligi sababli pedagogika fani bilan uzviy bog'liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiyasi va ularni o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muassalarni amalga oshiradi. Tarbiya ishlari tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog'liq. Shuning uchun tarbiya jarayoni tarbiya bilan bog'liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlariga tayanadi. Tarbiya jarayoni tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Shaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarini o'rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyani tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun psixologiya fanining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

Tarbiya fanlar bilan bog'liqligini quyidagicha chizmada ifodalash mumkin: O'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e'tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o'quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiya fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq ish ko'radi. Har qanday tarbiyani amalga oshirishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, tarbiya fani gigiyena fani bilan ham bog'langan. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning ahloqiy sifatleri tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ahloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Ahloq normalari va ahloqshunoslik bilan etika fani shug'ullanadi. Shunday ekan, Tarbiya fani etika bilan ham uzviy bog'liqdir.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining o'рни. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy ta'lim - tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti harakatini sekin - asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta - sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur. Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota - onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlash uchun avvalo tarixni yaxshi bilish, hayotning achchiq- chuchugini bilish kerak.

Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo'lmog'i darkor.

Endi, eski jamiyatni inkor qilish yoki ma'qullash kayfiyatidan voz kechib, bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish kerak.

Millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo'layotgan pallada o'zligimizni anglash, ma'naviy ildizlarimizni unutmaslik.

Insonlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish lozim.

Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida o'tmishimizning hali o'rganilmagan sahifalarini tadqiq etish, davlat va siyosiy arboblarning nomlarini xalqimizga qaytarish, huquqiy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda.

«Biz uchun mustaqillik-eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini tiklash, mu'tabar shu zaminda, tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir». Shu nuqtai nazardan, yoshlarda ijtimoiy adolat haqidagi tushunchalarni shakllantirish ijtimoiy adolat mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda adolat nizomi yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chuqur huquqiy bilimlarga ega, sotsiomadaniy darajasi rivojlangan, amaliy ko'nikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim. Kelajakda mutaxassis bo'lib yetishuvchi kadrlar, bugungi kun uzluksiz ta'lim qatnashchilari huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalari ichki qonuniyatlari to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatdagi ijtimoiy sohadagi islohatlar, ahloqiy-huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim. Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir. Ma'lumki, inson jamiyatda erishishi mumkin bo'lgan narsalar-mulk, daromad, ijtimoiy maqom, hokimiyat, huquqlar insonlararo munosabatlaridagi adolatga bog'liq.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

- Ushbu maqsadga erishish, uni amalga ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:
- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

Ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma'naviy-ma'rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

- kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish;
- vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni o'rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;
- mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;
- oilaviy burch, oilada o'zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash;
- yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas'ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- namunali, ma'naviy uyg'unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo'la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgan yosh ota-onalarni rag'batlantirish;
- yosh oilalarning hayotda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishiga erishish.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy rejalari asosida o'quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik rivojlantiriladi.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

- ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;
- o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganishni rag'batlantirish;
- kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zini-o'zi tarbiyalashga o'rgatish;
- faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;
- ilmiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirish;
- baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish.

“Fazilatli avlod” ruknida o'quvchi-talabalar, murabbiylar, professor-o'qituvchilar, ota-onalar, vazirliklar va idoralarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullari uchun o'quv-qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar, ma'rifiy adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik qo'llanmalar majmuasi yaratiladi. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish ishlarini amalga oshirish.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari murabbiylari, professor-o'qituvchilari, yoshlar yetakchilarini “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”ni amalga oshirish maqsadida malakasini oshirish.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari uchun ma'naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini o'rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida

har yili ikki marta sotsiologik so'rovlar o'tkazish va natijalarni pedagogik kengashlarda muhokama qilib borish.

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlarda uzluksiz ma'naviy tarbiya samaradorligini baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda har yili ikki marta o'lchash va "Ma'naviy tarbiya" respublika jamoatchilik kengashida muhokama qilib borish.

Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo'lga qo'yish.

Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko'rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil etish.

Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Oilalar, ta'lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.

Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuvchilik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, "ommaviy madaniyat"ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o'zibo'larchilik, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo'lmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo'ladi.

Oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, otionalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lom va barqaror bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi.

2-MAVZU: UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA FANINI JORIY ETISHNING DOLZARBLIGI: MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasining mazmuni va dolzarbligi.
2. Tarbiya fani Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasi asosida tatbiq etilishi, maqsad va vazifalari.
3. Tarbiya fani muammolari, unga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar.
4. Tarbiya fanining dolzarbligi va zarurati.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi. Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan "Bola huquqlari to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi.

Konsepsiyada belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda amalga oshiriladi.

Konsepsiya umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning yoshiga mos ma'naviy rivojlanishini ta'minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya,

Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o'rganildi, amaldagi fanlarning o'quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi.

Konsepsiya asosida yaratilgan dastur amaldagi Sog'lom avlod asoslari, Salomatlik, Yo'l harakati qoidalari, Hayot xavfsizligi asoslari, Salomatlik darslari, Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya, Media madaniyati, Iqtisod va soliq saboqlari kabi bir qancha fakultativ o'quv kurslari dasturlarini birlashtiradi.

Konsepsiya umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarning (keyingi o'rinlarda — Malaka talablari) negizi hisoblanadi. Konsepsiya “Tarbiya” fanini o'rganish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

Konsepsiyani joriy etishning asos va prinsiplari. Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashdagi asosiy prinsiplar quyidagilar hisoblanadi:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

Huquqiy asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirish orqali shaxs tarbiyasida milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

vazirliklar va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxonalar va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari “Tarbiya” fani konsepsiyasining amalga oshirish tizimini tashkil etadi.

Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning qo'shma qarorlarni ishlab chiqish;

ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, o'rganish va ularni ommalashtirish, rag'batlantirishni tashkil etish;

“Tarbiya” fani konsepsiyasining samaradorligini monitoring qilish.

Ilmiy-metodik asoslari:

shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirilishini ta'minlash;

“Tarbiya” fani malaka talablari, o'quv dasturlari va o'quv rejalarini shakllantirish;

“Tarbiya” fani darsliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;

“Tarbiya” fani o’quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo’naltirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o’quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko’nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to’liq o’zlashtirilishiga erishish;

o’quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o’quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta’lim fanlarini o’qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

Fanning tarkibi, mazmuni, o’quv-metodik ta’minoti:

umumiy o’rta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini o’qitish talablari quyidagi bosqichlarda ishlab chiqilishi zarur:

boshlang’ich sinf (A2), to’qqizinchi sinf (A2+), o’n birinchi sinf (V1) bitiruvchisiga qo’yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o’quv dasturlari. Har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o’z ichiga olishi lozim;

har bir bosqichda o’quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o’quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o’zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo’lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo’llab-quvvatlash;

bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimiga “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish;

o’quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilishga o’rgatish;

bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

dunyo dinlarining ko’p asrlar davomida avloddan avlodga o’tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo’ravonlik, terrorizm va ekstremizm g’oyalari targ’ib etilmasligini tushuntirish;

shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma’rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

ma’naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo’shliqlar mavjud bo’lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo’lgan yoki profilaktik ro’yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtirish.

O’quv-metodik majmuaga qo’yiladigan talablar

O’quv-metodik majmuaning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablar:

o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;
“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” prinsipi mazmun va mohiyatini o'quvchilarning ongu tafakkuriga singdirish;
o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;
faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;
mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, teran ma'rifatlilik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan quyidagi profilaktik ishlar natijadorligini oshirishga zamin yaratadi:

o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg'usini tarkib toptirish;

davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko'nikmalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o'quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish; umumta'lim fanlarining o'qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

O'quv-metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari:

mazkur fan bo'yicha o'quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'liga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy quyidagi o'quv-metodik majmualar kompleksini talab qiladi:

o'quv-metodik majmua ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

mavzularning mazmunan izchilligi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanilganligi.

Darslikka qo'yiladigan didaktik talablar:

o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fani mazmun-mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglash va hayotga tatbiq qilish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, infografikalardan iborat mediamahsulotlar bilan bezatilgan bo'lishi;

o'quvchilar psixo-fiziologik rivojlanish darajasiga mos yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta'riflar va shu kabi lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

Darslikka qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari adabiy til qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlarning aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yo'l qo'yilmasligi;

o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga yo'naltirishga oid matn va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olgan bo'lishi lozim.

Darslikka qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri inobatga olingan holda, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olish va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum bir faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olinishi lozim.

Darslikka qo'yiladigan estetik talablar:

belgilangan talablar darajasida yorqin, rangli, chiroyli bezatilgan, zamonaviy dizayniga mos bo'lishi;

matnlar va illyustratsiyalarning uyg'unligi va o'quvchilar yoshiga mosligi;

bo'lim, bob, mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, ularning mutanosibliigi ta'minlanishi lozim.

Darslikka qo'yiladigan gigiyenik talablar:

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamenti talablariga mos bo'lishi lozim.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichi.

Mustaqillik yillarida milliy istiqloq g'oyasi xalqimizning milliy tiklanishiga xizmat qildi. G'oyaviy kurashlarda kunimizga yaradi. Xalqimizni birlashtirdi, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini tushuntirdi. 2017-yildan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitutsiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarurligi alohida ta'kidlandi. 2019-yil 8-aprel kuni Prezidentimizning O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi. Mazkur hujjat qabul qilinishining zarurati nimalarda namoyon bo'ladi? Rivojlangan mamlakatlarda milliy g'oya davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg'unlashtiradi. "Bir hudud – bir xalq" e'tiqodini shakllantirib, mamlakatlar aholisini birlashtirgani, umumiy maqsad yo'lida safarbar qilganiga misollar ko'p. Ularning aksarida milliy g'oya milliy qadriyatlarga bog'lab singdirilganini ko'ramiz.

Mamlakatimizda milliy g'oyaga yangi davr, millatimiz tarixining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo'yilmoqda. Ilgari milliy g'oyani tushunish va tushuntirishda noqulayliklar uchrab turar edi. Masalan, odamlarning quloqlari milliy g'oya davlat va xalq birligi tarannumini eshitardi. Lekin ko'zlarimiz hokimliklar, vazirlik va idoralarning oldidagi temir panjaralarni ko'rar edi. Xalq davlat organlariga xizmat qilishi kerak, degan noto'g'ri qoida amalda edi. Fuqaro hokimiyatga emin-erkin kirolmas, dardini aytolmas edi. Chunki amalda xalqdan davlatni ajratuvchi temir panjara bor edi. Panjaralar kesib tashlandi. Lekin

ayrim amaldorlarimiz ongida bu panjara haligacha turibdi. Tafakkurdagi temir panjaralarni qo'porib tashlash qiyin kechyapti. Milliy g'oya ana shunday vaziyat talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda. Ilgari milliy g'oya ijtimoiy-gumanitar, ma'naviy-ma'rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh Dasturi, mablag'i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g'oya gumanitar masala bo'lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g'oya ro'yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demokratiya – to'g'rilik, rostlik, adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo'ravondan – ojizni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g'oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo'lsin, deydi. Mamlakatda adolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g'oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g'oyani har bir o'zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo'l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekin mazmun, mavzular bilan mutanosib to'ldirishga alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur. Negaki, biz kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta'sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g'oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz.

“Tarbiya” fanidan darsliklar va o’quv majmualarini xarid qilish va yetkazib berish xarajatlari:

umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 1-sinf, Mehribonlik uylari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlari o’quvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar farzandlarini hamda o’qituvchilar uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar, multimedia ilovalari va o’quv-metodik majmualar nashr etilishi, shuningdek, ijara asosida darsliklar bilan birlamchi ta’minlash — O’zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag’lari hisobidan;

o’quvchilarni ijara asosida darsliklar bilan ta’minlash — O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg’armasi mablag’lari hisobidan qoplanadi.

5. O’zbekiston Respublikasi OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mita, Xalq ta’limi vazirligi:

2020 — 2023-yillarda respublika oliy ta’lim muassasalarining “Boshlang’ich ta’lim”, “Tarix” (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha), “Tarix o’qitish metodikasi”, “Filologiya va tillarni o’qitish: O’zbek tili”, “O’zbek tili va adabiyoti”, “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”, “Pedagogika va psixologiya”, “Dinshunoslik” va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)”, “Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)” ta’lim yo’nalishlari bitiruvchilariga umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o’qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarni ko’rsin va mazkur ta’lim yo’nalishlari o’quv rejalariga 2020/2021 o’quv yilidan boshlab tegishli o’zgartirishlar kiritisin;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o’qitish uchun

kadrlar tayyorlanadigan yangi ta'lim yo'nalishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflarni kiritiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlarini qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirish.

Bugungi kunda «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!» degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. YOshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning xalq etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga gurur va iftixor bagishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umum-milliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga etkazishimiz zarur. SHu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doyr davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. YOshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz².

4-MAVZU: TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY, DINIY, BADIY VA FALSAFIY ASOSLARI.

Reja:

1. Milliy tarbiyaning ilmiy, falsafiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy asoslari. A.Avloniy, A.Fitrat, M.Behbudiy, I.Ibrat asarlarida tarbiya masalalari.
2. Ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda tarbiyaning o'rni.
3. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-may PQ-4307-sonli belgilangan vazifalar.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yigindisi. T. insonning insonligini ta'minlaydigan eng

² Mirziyoev.sh. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentı lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagitangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisidagi nutqi

qad. va abadiy qadriyatdir. **Tarbiya** siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar **Tarbiya** tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura **Tarbiyaga** sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda T. faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning **Tarbiyasi** bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi T.ning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli T.da ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Sho'rolar ped.sida **Tarbiya** orkali xar kandy odamni istagan ijtimoiy kiyofaga solish mumkin degan karash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsning **Tarbiyaga** berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida **Tarbiya** maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash karor topdi, Bu hol **Tarbiyaning** samarasizligiga olib keldi. Chunki **Tarbiya** ning asosiy ob'yekta bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, **Tarbiya** va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. **Tarbiyaning** milliylikiga alohida e'tibor karatilmogda. Shuningdek, **Tarbiyada** irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida **Tarbiyaning** o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol **Tarbiyaga** doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari - bu tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy va ma'naviy farovonligini, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliги kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlar o'zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblilik, vijdonlilik, imone'tiqodlilik, mehmondo'stlik, kamtarlik, or-nomusni, sharmhayo va iffatni e'zozlash, tinchliksevarlik, olijanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Bu esa o'z-o'zidan, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'yadi. Ushbu ehtiyoj mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalari va tavsiyalari ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'riqlarini

o'zida ifoda etadi. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman, jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi va bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlardan biri - mazkur tizimni insonparvarlashtirish yo'l-yo'riqlari va maqsadlari ochib ko'rsatiladi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev (Ubaydulla Xo'jaev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadiriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) turardi. 16 Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, jug'rofiy qamrovi va yo'nalishiga ko'ra, uchga bo'linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidlar chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. Buxorodagi jadidchilik harakati Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasidagi nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, jumladan, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ongi qotib qolgan ayrim kishilar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. 1908 yili "Buxoroi sharif shirkati" tuzilib, bu shirkat darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abdusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jaev (Usmon Xo'ja), Homidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadiriddin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy shirkatning tashkilotchilari edi. XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga 17 keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Shuni ham unutmaslik kerakki, Abdulla Avloniy birinchi o'zbek teatri tashkilotchilaridan edi. Teatr uchun bir necha drama yaratdi, ularni rejissyor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyati o'z maktabida xor, ifodali o'qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o'qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli

jadid maktablariga ham kirib bordi. Mana shunday sharoitda yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo'ladigan qo'llanma kerak edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov hamda ilg'or pedagoglarning taklifi bilan yaratilgan edi. To'g'ri, Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritir ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko'ra ko'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Ta'lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur". Bu so'zlar o'quvchilarga emas, kattalarga, ayniqsa, bo'lg'usi o'qituvchilarga qaratilganligini anglash qiyin emas. Chunki ular kelgusida bularni bolalar — o'quvchilar ongiga singdirishlari kerak. Shu tariqa, "Turkiy guliston..." asari buyuk mutafakkir Shayx Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" asariga nazira sifatida yaratilgan. Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi: "Tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur". Shu tariqa "Turkiy guliston yoxud axloq" asari ko'plab pedagoglar tavsiya va takliflariga binoan yaratildi. Asarga bo'lgan ehtiyojning kattaligi tufayli o'sha yillariyoq 2 marta - 1913 va 1917-yillarda bosmadan chiqdi. Bu asar, asosan, inson axloqi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq zamondoshlar e'tibori inson hayotida tarbiyaning buyuk ahamiyatiga jalb etilgan. Inson hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug'ilmaydi, farzandning barkamol inson bo'lib yetishuvida tarbiyaning ahamiyati buyukligi ta'kidlanadi. Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir. U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasbi axloqindadur", demishlar". Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch yo'nalishga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Xalqimiz "sog' tanda - sog' aql" deganidek, inson uchun avvalo badan (tan) salomat bo'lmog'i zarur, badan sog' bo'lgandagina inson uchun zarur bo'lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun inson

badanini ichkilik, ko'knor, nasha kabi bevaqt zalolatga, tubanlikka eltuvchi, salomatlikka zarar, "ba'zisi harom, ba'zisi makruh" narsalardan asrashi kerak. Bu esa, A.Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, har qanday voqea-hodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatining ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'qituvchining fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasining har jihatdan yuksakligi o'quvchilar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi. Mutafakkir Abdulla Avloniy asarning "Yaxshi xulqlar" bobida diyonat, islomiyat, nazofat, qanoat, shijoat, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, iffat, hifzi lison, sadoqat kabi insoniy fazilatlar haqida atroflicha fikr yuritadi, o'z qarashlarini dalillash uchun Qur'oni karim oyatlaridan, Hadisi sharif da'vatlaridan namunalar, ulug' mutafakkirlar Aflotun, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Mavlono Rumiy, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Bedil fikrlaridan namunalar keltiradi. Jadidchilik harakati namoyandalari ham Yevropa ma'rifatparvarlari kabi ilm-ma'rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar, taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan, Qur'oni karim sura va oyatlarini, Hadisi sharif da'vatlarini o'z manfaatlari yo'lida buzib talqin qiluvchi mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Shuni ham unutmashlik kerakki, o'zbek jadid ma'rifatparvarlarini Yevropa ma'rifatparvarlaridan ajratib turadigan asosiy jihat shundaki, ularning faoliyati zaminida millatni Rusiya mustamlakasi zulmidan ozod etish, istiqlol, mustaqillik g'oyasi yetakchilik qilar, jadid mutafakkirlari olib borgan faoliyat oq va qizil mustamlakachilarga birdek ma'qul emas edi. Shuning uchun ham ular bir umr ta'qib, tazyiq ostida faoliyat ko'rsatdi va oxir oqibatda qirib tashlandilar. Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi bevosita insonni ulug'lash bilan uzviy bog'lanadi. Chunki Ollah insonni barcha mavjudotlardan, maxluqotlardan ulug' qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodati(saodati dorayn)ga erishishdek buyuk maqsad uchun Aql berdi. Inson shu Aql yordamida ilm-ma'rifatni, taraqqiyotni egallaydi, dunyoni boshqaradi. Mana, Abdulla Avloniyning Aqlga bergan ta'rifi: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Janobi Haq insonni hayvondan so'z va aql ila ayirmishdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: "Ey insonlar! Aqlingizga tavoze' qilingiz. Siz janobi Haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz", - demishlar".

A.Avloniy inson salomatligi to'g'risida fikr yuritar ekan, uning asosiy omillaridan biri – tozalik haqida alohida bob ajratadi. "Nazofat" deb nomlanuvchi bobda odamni xalq o'rtasida, hatto Ollah qoshida sevimli qiladigan vosita pokizalik, nazofatdir. Inson nafaqat o'z badanini, kiyim-kechagini, shu bilan birga, yashab turgan joyini, muhitini, shahrini, Vatanini pokiza saqlashi kerak. Atrof-

muhitning nopokligi turli-tuman kasalliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ifloslik, nopoklik balosidan poklik, nazofat davosi bilan qutulish kerakligini alohida ta'kidlaydi. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar. «Birinci muallim» va «Ikkinchi muallim» asarlarining tahlili. «Turkiy guliston yohud axloq» asarida komil inson tarbiyasiga oid g'oyalar. Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida o'qituvchi oilasida dunyoga keldi. U dastlab eski usul maktabida, so'ng madrasada tahsil oldi. Navoiy, Fuzuliy, Sa'diy va Hofizning boy ijodiy merosini ishtiyoq bilan o'rgandi. Mumtoz adabiyot bilan oshnolik uning adib sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Abdulla Avloniy 20 yillarda ilmiy ish bilan ham shug'ullanadi, 1930-yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti (SAGU) ning professori qilib tasdiqlanadi. U ilmiy xodimlar seksiyasida, O'zdnashrda, Respublika fan va texnologiya qo'mitasida, Davlat ilmiy kengashida mas'ul vazifalarda ishlaydi.

A. Avloniy tashkil etgan gruppaga «Turon»da sahnalashtirilgan birinchi asar Behbudiyning «Padarkush» asaridir.

Behbudiy barcha maqsadlarini faqat ma'rifat orqali amalga oshirishni ko'zlardi. U ta'lim-tarbiya xususidagi o'z g'oyalarini amalga oshirishning bosh yo'li sifatida yangi maktablar ochish, unda yoshlarni diniy ilmlar bilan birga, aniq fanlarni ham o'qitish, Yevropacha ta'lim-tarbiyani Turkiston mamlakatlarida keng ko'lamda joriy etishni targ'ib etadi, mahalliy aholini ilm-ma'rifatga da'vat etadi. Mustamlakachilik, zulmat, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashda u faqat ilm -m a'rifatga suyanadi, kuch-qobiliyatini maktab, maorif, diniy, tabiiy ilm va ma'rifatni rivojlantirishga qaratadi. 1912-yilda yozilgan «Padarkush» sahna asarida Behbudiy ilm, m a'rifat, maorif va umuman, xalq ta'limi va ilmiy zaminga ega bo'lgan pedagogik masalalarni keskin qo'ygan. Jumladan, asarda maktab va oilaning tarbiya sohasidagi talablari bir xil bo'lmasa, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo'lsa, bola tarbiyasi tamoman izdan chiqadi degan axloqiy tushunchani ilgari suriladi. «Padarkush» asos-e'tibori bilan pedagogik qarashlarning badiiy ifodasi bo'lib, unda mustamlaka Turkistonidagi tarixiy sharoitning mahalliy aholi hayotiga, yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri masalalari ham aks etgan. Bu bizga Behbudiyning pedagogik qarashlari hamisha ijtimoiy hayotdagi eng muhim va murakkab muammolar bilan, o'z davri siyosati bilan bog'lanib ketganligini ko'rsatadi. Zotan, ta'lim-tarbiya, pedagogika, avvalo xalqlar taqdiri, istiqboli xaqidagi fan sifatida hamisha siyosat bilan uzviy boqlikligi ma'lum. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida islohotlar hayotning barcha sohalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning barkamol bo'lib etishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari alohida o'rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol insonni voyaga etkazishga intilish halqimizga xos milliy hususiyatlardandir. Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo'lib voyaga etadi.

Oilaviy ma'naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a'zolarining muayyan ma'naviy dunyoga ega bo'lishi ular o'rtasidagi munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma'naviy fazilatlarini er-xotinlik

munosabatlarining sharqona an'analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma'naviy olami o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday qadriyatlarning oilada e'zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma'naviy muhitni yaratadi. Bu esa o'sib kelayotgan avlod qalbi va ongi shakllanishida o'ta muhimdir. SHu asosda har bir oila a'zosining iste'dodi va salohiyati to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada oila ma'naviyat maskani sifatida shakllanib boradi. Oila tarbiyasi – bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o'taydi. Har bir ota-ona o'z burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini ta'minlaydigan hamma xususiyatga to'liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O'z bolangni o'zing asra" degan da'vat faqat quruq shior bo'lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya'ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas'uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo'yish vaqti keldi, deb o'ylayman". Haqiqatan ham har bir ota-ona o'z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma'naviy sog'lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o'rganish, kitob o'qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o'qishga qiziqтира bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o'z mas'uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim. Oilada sog'lom muhit mavjud bo'lgandagina, ularda har tomonlama sog'lom, barkamol inson shakllanadi. YOshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog'lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lgan kelajak avlodni voyaga etkazishda oila ma'naviyatining tutgan o'zni alohidadir. Oila tarbiyasi bo'yicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o'ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, islom ta'limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta'kidlanadi: " Islomda tarbiya ta'limdan ko'ra ustunroq va keng qamrovlidir. CHunki tarbiya bolani uyida, ko'chada, maktabda o'zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o'ziga bo'ysundirishdek og'ir ishni yo'lga qo'ydi.

Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani ko'rsa, shunga tahlid qilib o'sadi. Oilada ota olijanob keng fe'l, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo'lishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qarg'amaydigan va muloyim bo'lmog'i lozim.

Farzandlarimizni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan.

Rasululloh sallallohu alayhi vassalam “Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, otda choptirishni o’rgatinglar” deb farzandlaringizni chaqqon, sog’lom, baquvvat, ziyrak qilib tarbiyalashga ummatni targ’ib qildilar”.(Termiziy va Abu Dovud rivoyatlari). Zeroki sog’lom va baquvvat farzand hamma joyda ham o’z yurtiga naf keltiradi.

Oilada ayniqsa, qiz bola tarbiyasiga e’tibor berish asosiy o’rin egallaydi. Qiz bolani erta turmushga bermaslik, ularni ilm-hunar o’rganishga yo’naltirish ham ota-onaning vazifasi hisoblanadi.

Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha sharoitlar yaratib berilgan va bundan keyin bu masalaga kengroq e’tibor berish borasida bir qancha vazifalar belgilab qo’yildi. Jumladan, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyiga so’zlagan nutqida “Qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste’dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish ular orasida haqiqiy etakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish kerak” deb ta’kidlab o’tdilar. SHunday ekan, qiz bolaga eng qimmatli an’analar halollik, rostgo’ylik, ornomus, sharm-hayo, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar dastlab oila davrasida shakllanadi.

Oilaning har bir a’zosi millatning davomiyligini saqlovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makon ma’naviyat maskanidir.

Insonning shaxs bo’lib shakllanishida, hayotda o’z o’rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo’lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi. Oila hayotning abadiyligini davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bo’lib etishishiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan tarbiya o’chog’idir.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg’usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, jahonda g’oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o’rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g’oyalar ta’siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo’shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko’maklashish maqsadida:

1. Quyidagilar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi (keyingi o’rinlarda Respublika kengashi deb yuritiladi) faoliyatining asosiy yo’nalishlari etib belgilansin:

- aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

- oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, "mahalla - tuman - viloyat - respublika" prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

- "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;

- tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g'oyalari xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish;

- aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalari kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

2. O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda - Chora-tadbirlar dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimlari — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari (keyingi o'rinlarda - hududiy kengashlar) raislari o'n kun muddatda hududiy kengashlar tarkibini qayta tasdiqlasin.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Respublika kengashining yig'ilishi bir yilda bir marta Respublika kengashi raisi, boshqa vaqtlarda esa zaruratga qarab Respublika kengashi raisining o'rinbosarlari tomonidan o'tkaziladi;

hududiy kengashlarning yig'ilishlari hududiy kengashlar raislari tomonidan har yarim yilda bir marta o'tkaziladi;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) Respublika kengashining, uning hududiy bo'lim va bo'linmalari tegishli hududiy kengashlarning ishchi organlari hisoblanadi.

6. Markaz:

a) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI, Sog'liqni saqlash vazirligi va "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutgan holda, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

- ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari;

- bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish shakllari;

- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatish mexanizmlari;

- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borishni nazarda tutuvchi uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi;

- ma'naviy tarbiyani shakllantirishning homiladorlik davridan boshlanishi va tarbiyaning har bir bosqichdagi o'ziga xos xususiyatlari;

- ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi;

b) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda ikki oy muddatda quyidagilarni nazarda tutgan holda, Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi loyihasini ishlab chiqsin va Respublika kengashiga kiritsin:

- hududlardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini xonadonma-xonadon yurib aniqlash, tizimli monitoring va tahlil qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish shakllari;

- tahlil natijalarini "mahalla - tuman - viloyat - respublika" prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasida aks ettirish tartibi;

- ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishga doir tavsiyalar;

- aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo'naltirilgan innovatsion metodlarni yaratish, ilmiy-amaliy dasturlarni amaliyotga joriy etish mexanizmi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda Markazning hududiy bo'lim va bo'linmalari xodimlari, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun mas'ul xodimlarini Markaz huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasida tizimli ravishda o'qitish amaliyotini joriy etsin.

7. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga:

- "Madaniyat va ma'rifat" telekanalini Markaz, uning hududiy bo'lim va bo'linmalari faoliyatini yoritish masalalari bo'yicha Respublika kengashining bosh axborot hamkori etib belgilash;

- O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoular, ijtimoiy roliklar, ko'rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilish tavsiya etilsin.

8. Markaz, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar ijodiy uyushmasining ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-

ma'naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga topshiriladigan "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Markaz manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishonini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. Markaz huzurida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida ta'sis etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasiga "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati faoliyatini davlat subsidiyasi shaklida qo'llab-quvvatlash tavsiya etilsin.

5-MAVZU: MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TAKOMILLASHUVI TARBIYANING ASOSI

Reja :

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura va din masalalarining o'zaro uyg'unligi.
2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari.
3. Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.

Ma'naviyatli insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi o'laroq, xavf-xatarlar ro'yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan ko'p boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-uchta bosh o'sib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar mashaqqatli ekanini ko'rsatadi.

Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakli shamoyilini o'zgartirganini tushunib etamiz. Mustaqillik davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la erkinlikni anglatadi. Mustaqillik muayyan davlat erkinlikning birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa mustaqillikning tom ma'noda qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Chunki mustaqillik davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarining irodasiga bo'ysunmay, erkin hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat mustaqilligining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgalari hisobiga yashash, turli

kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat mustaqilligi mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi. Garchi butun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi teng huquqlilik jahon hamjamiyati taraqqiyotining tabiiy va zaruriy sharti hisoblansa-da, ayrim mulohazalar va xatti-harakatlarda hamon imperiyacha fikrlash ta'sirini, davlatlar mustaqilligini emirish istagini ilg'ash qiyin emas. Globallashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globallashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishi uqtilrsa, boshqalarida uning o'rni va ahamiyati o'zgarmaydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globallashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlar o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi², degan farazlarni ilgari surmoqda. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e'tirof etilganidek, «O'zbekistonni olib borayotgan mustaqil siyosatdan qaytarish, kimgadir qaram qilish maqsadida chetdan turib ichki ishlarimizga aralashish, turli niqblar ostida bizga qarshi tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish siyosatini mutlaqo qabul qilmaymiz». Davlatlar mustqilligini kemiruvchi xavf-xatarlarga yuzaki qarash, ularni tahdid manbai sifatida e'tirof etmaslik insoniyat boshiga yana ko'plab kulfatlar solishi muqarrar. Shu bois, bugungi kunda suverenitetimizga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi. SHO'ro davrida marksizm – leninizm ta'limoti shaxsni o'zgartirish uchun jamiyatni o'zgartirish kerak, deb ta'lim berdi. Islom falsafasi esa jamiyatni o'zgartirish, ularning baxtli hayotini ta'minlash uchun insonning o'zini o'zgartirish kerak, deb ta'kidlaydi. Olamni yaxshilash odamni yaxshilashdan boshlanishi kerak, deb hisoblaydi. Hozirgi rivojlangan mamlakatlar tarixi buni yaqqol isbotlaydi. Yaponiya, Kanada, AQSH, Angliya va boshqa davlatlarda sotsialistik inqilob bo'lmasada insonning to'laqonli yashashi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Jamiyat – uning a'zolarining kamoloti natijasida takomillashadi. Islom falsafasida inson omili yuksak rutbada turadi. Inson o'z xulqining ham, jamiyat ma'naviyatining ham ijodkori, o'zining va zamondoshlarining ma'naviy sifatleri uchun javobgar. Ma'naviyatning qay darajada ekanini muayyan shaxsning o'zigagina emas, balki o'zi yashayotgan jamiyat taraqqiyotiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar ekan, uni shakllantirishni o'z xoliga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Insonda Olloh bergan xulqiy sifatlar bilan, tarbiya yordamida shakllanadigan ma'naviy fazilatlar ham bo'ladiki, jamiyatning barcha ijtimoiy tizimlarida shu fazilatlar imkon qadar ezgu va mustahkam shakllanmog'i lozim. Ma'naviyat – insonning insoniylik mohiyati, inson shaxsida tarkib topgan ijobiy fazilatlar majmui. Shaxsdagi ijobiy fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanadi. Shunday ekan, ular ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ma'naviyat yaxshilikka moyillik, yomonlikdan tiyilish, jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir. Garchi yaxshilik va yomonlikning millati bo'lmasa–da, har bir millatning o'z ma'naviyati bor. Milliy ma'naviyat - milliy qiyofa, milliy ruh degani. Ma'naviyat o'zini tanish, o'zni o'zgarlar nazari bilan taftish qila bilish, demakdir. Har bir odam o'zini qanchalik tanisa, butun borliqni, Yaratganni ham shunchalik taniydi. Insonning ma'naviy

komilligi jamiyatning odilligiga, jamiyatning odilligi ma'naviyatning yuksakligiga, ma'naviyatning yuksakligi esa shaxs kamolotiga ta'sir o'tkazaveradi. Shaxs, jamiyat va ma'naviyatning dialektik birligi insoniyat taraqqiyotining asosiy birligidir amiyatimiz fuqarolarini ma'naviy jihatdan kamol toptirish uchun ikki muhim narsani o'zaro uyg'un holda qo'shib olib borish lozim. Biri – boy ma'naviy va madaniy merosimizni chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, chor Rossiyasi mustabidligi hamda sho'rolar istibdodi davrida unutilishga mahkum etilgan qadriyatlarimizni tiklashimiz, zamonamizga muvofiqlaridan, davrimizda bizga foyda beradiganlaridan oqilona foydalanishimiz kerak. Ikkinchisi esa, butun insoniyat, xususan taraqqiy topgan mamlakatlarda yuzaga kelgan ma'naviy va madaniy yutuqlardan milliy xususiyatlarimiz va ruhiyatimizga muvofiq keladiganlarini ijodiy o'zlashtirishimiz lozim. Bu ikki xususiyatni o'zaro payvand qilish orqasida respublikamiz fuqarolarini ma'naviy jihatdan kamolga etkazishning zamini bunyod etiladi. Xuddi shular singari buyuk sohibqiron, turk davlatchiligini qayta tiklagan ulug' bobomiz Amir Temur hayoti va faoliyatini xolis va ilmiy o'rganishga kirishildi. Buyuk Sohibqiron tavalludining 660 yilligini nishonlash munosabati bilan Temur va Temuriylar davri tarixi, adabiyoti va san'atiga bag'ishlangan yangi–yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. “Temur tuzuklari” ning nashr etilishi buyuk Sohibqironning shaxsini teranroq anglashga yordam bergan bo'lsa, Sharafiddin Ali YAzdiyning “Zafarnoma” asari, Shomiyning “Zafarnomasi” Ibn Arabshohning ikki jildlik “Amir Temur tarixi” kitoblarining chop etilishi buyuk bobokolonimiz hayoti va amalga oshirgan ishlarini to'laroq miqyosda idrok etishga olib keldi. Xalqimiz al-Farg'oniy, al-Forobiy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Beruniy, mirzo Ulug'bek singari buyuk ajdodlarimiz bilan haqli suratda faxrlanadi. Mustaqillik yillarida mazkur siymolarning ilmiy merosi keng miqyosda tadqiq etila boshlandi. Ularning yaratgan asarlari asl nusxada yoki tarjima etilib, xalqimizga etkazilmoqda. Bularning barchasi, shubhasizki, ma'naviy hayotimizning tobora boyib borayotganidan dalolat beradi. SHO'ro davrining qatag'onlari... Biz ularning nomlarini alohida ehtirom bilan tilga olamiz. CHO'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Elbek, Botu... Ular Vatanimizning mustaqilligi, erki uchun boshlarini sirtmoqqa tutib berdilar. Bugun qatag'on qurbonlarining hayoti va ajdodlari teran o'rganilib, asarlari yurtdoshlarimiz qo'liga borib etdi. Bularning barchasi ma'naviy hayotimizni boyituvchi omillar – xalqimizning farzandlari tomonidan bunyod etilgan madaniy boyliklar bo'lib, ulardan jamiyatimiz fuqarolarining ma'naviy ehtiyojini qondirish yo'lida oqilona foydalaniladi. Ma'naviy merosdan foydalanishda chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik. SHuni ham aytish kerakki, madaniy merosdan foydalanishda ulardagi o'z davri bilan bog'liq jihatlarni e'tiborga olmaslik mumkin emas. Fikrimizning isboti uchun bir–ikki misol keltiraylik. “Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlarda ko'p xotinlilik masalasiga ijobiy qarash seziladi. Buni tushunish qiyin emas. Doston shariat qoidalariga amal qilingan davrlarda yaratilgan bo'lib, undagi tasvir etilgan turmush tarzi o'z davrida tabiiy tuyulgan va shunday qabul qilingan. Hozirgi kunda biz dostondagi bunday qarash va tushunchalarga o'z davrining mahsuli deb yondashishimiz lozim.

Xalq orasida hamon saqlanib kelayotgan turli marosimlar, urf-odatlar, aqidalar, rasm-rusmlarga nisbatan ham oqilona yondashish lozim deb hisoblaymiz. Demak, o'tmish madaniyatimizdan, merosimizdan foydalanar ekanmiz, unga hozirgi talablariga muvofiq keladiganlarini aniq bilgan holda munosabatda bo'lish kerak. Ma'lumki, jamiyatda ma'naviyatga ehtiyoj bo'lmasa, u hech qachon paydo ham bo'lmaydi, rivojlana ham olmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviy kamolotga intilish insonning mohiyati bilan bog'langan fazilatdir. Ma'naviyatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat juda chuqur va keng ma'noga ega. Ma'naviyat insonni inson qilib, uni boshqa jamiki jonli mavjudotlardan tubdan farqlab, keskin ajratib turadigan ong va til, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat, saxovat, rahm-shafqat, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, meo'natsevarlik, vatanparvarlik, xalollik, poklik tabiatni e'ozlash, ilm va fanni, adabiyot, san'at va madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o'zi va o'zga xalqlarning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va an'alarini hurmat qilish va qadrlash singari ajoyib xislat va fazilatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat inson hayotini bezaydi, go'zallashtiradi. Ma'naviyat jamiyat bilan chambarchas bog'liq holda tarkib topar ekan, jamiyat hayotining rukunlari bo'lmish ijtimoiy iqtisodiy hodisalarga qattiq bog'langan bo'ladi. Ma'naviyat, eng avvalo, jamiyatning iqtisodiyoti bilan uzviy bog'langan. Iqtisodiyot bilan ma'naviyat inson va jamiyat hayotining o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir va aks ta'sir etadigan ikki tomoni, ikki qirrasidir. Ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, ma'rifatli, madaniyatli kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, birovlariga himmat-muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi. YUksak madaniyat sohibi bo'lgan insonlar boshiga mushkul ish tushgan kishining mushkulini oson qiladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, etim-esirlarni parvarish qiladi. Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilar o'z millati, elulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi. Vatanga xavf tug'ilsa, uning ximoyasi yo'lida mol-dunyosini, jonu jahonni ayamaydi, fidoiylik va qahramonlik namunalari ko'rsatadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan. Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va

miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin: ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

2. Quyidagilar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining (keyingi o'rinlarda – Markaz) qo'shimcha vazifalari etib belgilanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

a) davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishida:

mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruhlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va ma'naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta'sirini o'rganib borish;

yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash;

b) ilmiy-tadqiqot yo'nalishida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;

ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash;

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ma'naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyotga tatbiq qilinishini muvofiqlashtirish;

v) targ'ibot-tashviqot yo'nalishida:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

sohalar va hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

aholi, ayniqsa, yoshlarni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish.

3. Markazning ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida "oyina.uz" elektron portalini tashkil etish tashabbusi qo'llab-quvvatlansin.

Portal faoliyatini yo'lga qo'yish uchun Markazga qo'shimcha 15 ta shtat birligi ajratilsin va uning tuzilmasida Raqamli targ'ibot bo'limi tashkil etilsin.

Markaz Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda portalni ishga tushirish choralari ko'rsin.

4. Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlariga qo'shimcha 2 tadan, tuman (shahar) bo'linmalariga aholi soni 200 mingdan ortiq bo'lganda 2 tadan, 200 mingdan kam bo'lgan taqdirda esa 1 tadan qo'shimcha shtat birliklari ajratilsin.

Bugungi kunda unitib yuborilgan asriy ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz tiklanmoqda. Xalq an'analarini madaniyatimizning bir qismi sifatida jamiyat ravnaqi uchun xizmati ulkandir.

"An'ana" asli arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, ota-onalardan bolalarga o'tib davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. An'ana ijtimoiy va ma'naviy merosdir. Ular iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovor, oilaviy an'analar sifatida jamiyatda ijtimoiy guruhlar orasida keng tarqalgan.

O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari taroixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Kaykovusning "Qobusnoma" sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu nasr al Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Xojib, A.Navoiy, A.Avloniy asarlarida sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratli tomonlari ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan ota-onani xurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, mexmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, ayolni ulug'lash, farzandga mehrlil va fidoiy bo'lishlik kabi fazilatlar ochib berilgan.

Hayotda mazmunga ko'ra ilg'or umuminsoniy shaklga ko'ra milliy an'analar qaror topmoqda. Eski va yangi an'analar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar jarayonida saralanadi, sayqal topadi.

Oilaviy an'analarga esa bolalarning tug'ilishlari bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, urf-odatlar, bola tarbiyasiga taalluqli bo'lgan va umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan maslahatlar, qoidalar va vositalar kiradi. Oilaviy an'analarda shu xalqning tarixi, uning turmush sharoiti va hayot tarzi bilan bog'liq o'tmishi va kelajagi aks etadi.

O'zbek xalqining asrlar mobaynida to'plangan xalq og'zaki ijodi xazinasiga g'oyat boydir. U xalqning ma'naviy madaniyatining oltin xazinasiga hisoblanadi. Keksa avlod xayot tajribalari asosida to'plangan, shakllangan dono fikrlarini quyi avlodlarga og'zaki xikoya, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq va matallar shaklida singdirilgan. Xalq ertaklari, topishmoq va matallar orqali ota-onalarning, kattalarning maslahatiga quloq solishga o'rgatgan.

Xalq xotirasida saqlanayotgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan eng yaxshi ertak va dostonlar, maqol va matallar, ashula va topishmoqlar bolalarni tarbiyalaydi, yaxshilikka, mehnat qilishga, xaqgo'ylikka undaydi.

Xalq tajribasida tarbiya usuli ham o'zbeklarda asosiy o'rinni egallab kelgan. Yoshga munosib o'zbekona ta'sir ko'rsatish yo'l va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda rag'batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo'lsa jazolangan. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" deb bejiz aytilmagan. Xatolikka yo'l qo'ygan bola kimligidan qat'iy nazar jazolangan.

Suvga tuflash "gunoh" bo'ladi "yomon bo'ladi" deb tushuntirilgan. Qozonga mushuk yoki ti, sutga sichqon tegsa o'sha idishlar xarom hisoblanib, toza suvda yaxshilab yuvilgan. Kechqurun qozon yuviqsiz qolsa, xarom bo'lgan, kechasi uy supurilmagan, supurgi yotqizib qo'yilgan. Barmoqlarini zanjir qilish, oyoqlarini chalishtirib o'tirish, ko'pchilik oldida oyoqlarini uzatib o'tirish odobsizlik hisoblangan.

"Yomon bo'ladi" iborasi orqali kattalarga xurmat, kichiklarga g'amxo'rlik tarbiyalangan, yetim bolalarga ozod bermaslik, otaga tik qarash, ko'pol muomala qilish, qizlarga bexayolik qilish "yomon bo'lishini" yoshlikdan tushuntirilgan.

Musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlashi, erta saxarda eshik ochilmasa "yomon bo'ladi" deb uqtirilgan.

Xayvonlarga, qushlarga tosh otma, ozor berma, mevani tishlab tashmlama, qush uyasini buzma, ekinlarni paymon qilma, "yomon bo'ladi" iborasi orqali tabiatga xurmat tarbiyasi berilgan.

Oilada tejamkorlikka e'tibor berilgan, isrofgarchilik gunoh xisoblangan. "Toma-toma yo'l bo'lur, tommay qolsa cho'l bo'lur" – degan xalq maqoli bejiz aytilmagan.

"Bola aziz, odobi undan aziz". Bu maqolda o'zbek xalqining tarbiyaga oid qarashlari o'z ifodasini topgan.

Xalqimizning tarbiya uslublarida bolalardan kattalarga birinchi bo'lib salom berish, xushmuomalalik kabi xislatlarni tarbiyalashga asosiy e'tibor berilgan.

Ta'lim-tarbiyaning o'git, nasixat, namuna bo'lish, mehnatda chiniqtirish shakllaridan unumli foydalanilgan.

Yoz kunlaridan birida bog'da ko'maklashayotgan bola otasidan so'rabdi:

- Nima uchun mana bu daraxt qiyshiq, mana bunisi esa to'g'ri?

- o'g'lim, - deb javob beribdi ota, - bu daraxtning qiyshiq o'sgan joylarini qirqib, parvarish qilib turilgan, ikkinchi daraxt esa o'z xolicha o'sgan, shuning uchun qiyshiq.

- Unday bo'lsa, daraxtlarni doim parvarish qilish kerak ekan-da, xulosa chiqaribdi o'g'li.

- To'ppa-to'g'ri, - deb javob beribdi ota, - o'g'lim daraxtlarni parvarish qilish ko'p foyda keltiradi. Sen ham xuddi shu nixolga o'xshaysan. Sening ham xatolaringni tuzatib tursam, yaxshi narsalarga o'rgatmas yaxshi odob bo'lib voyaga yetasan, gaplarimga quloq solmasang, ikkinchi daraxtga o'xshat egri bo'lib voyaga yetasan debdi.

Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniqsa benixoyadir. Bob va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo'lga qo'yishda, chinakam izchil tarbiyani, oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar. Hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, og'iro sinovlarga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishilgan boy ma'naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazuvchi bebaho xalqdir.

Biz ajoyib yozuvchilar, olimlar, buyuk mutafakkirlarning biografiyalariga nazar tashlar ekanmiz, ularning o'sib yuksalishida, insoniyat tarixida buyuk kishilar bo'lib yetishishlarida buvi va buvalarining katta hissasi borligini ko'ramiz.

Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyasi deb hisoblaydi. Bolalarni mehnatga muhabbat qo'yib o'sishida oiladagi ijtimoiy muhit katta rol o'ynaydi. Bunda otanonalar, barcha oila a'zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning ahloqiy shakllanishi, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o'z xalqining an'analrini hurmat qilish, o'z vataniga sodiqlik, jasurlik, tarbiya ko'rinishlari kamol topadi.

Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda

mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamaraini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa q mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish, huquqiy demokratik davlat qurish, ho'jalikning barcha sohalarida keng ko'lamlı islohotlar o'tkazish, yangicha fikrlaydigan, mehnatga yangicha munosabat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish yo'lidan bormoqda.

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonun va dastur davlatimiz taraqqiyoti, uning dunyo hamjamiyatiga bozor tizimi orqali integratsiyalanishi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari safiga qo'shilishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy kadrlarsiz esa sanoat, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik va ijtimoiy hayotni rivojlantirishni tasavvur qilish qiyindir.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotganligi tufayli turli fan sohalarida erishilgan yutuqlar tez yangilanib bormoqda. Bilim o'sish omilidir, uni vaqt talabi darajasida texnika o'sishidan bir necha barobar tez yangilab borish kerak. SHuning uchun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy kadrlarni tayyorlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish davr ehtiyotidan kelib chiqmoqda.

Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy fanlarning mohiyati, mafkuraviy jihatdan yangilanib zamonaviylash-ganligi va ko'pgina masalalarning eskirganligi bu sohaga yangi kuchlarning kirib kelishini yanada dolzarb masalaga aylantiradi. Sobiq sovet tuzumi dinimiz, tilimiz, milliy urf-odatimiz, qadriyatlarimizni tahqirladi. Abdulla Qodiriy, Sho'lpon, Usmon Nosir kabi ziyolilarimizni qatag'on qildi. SHO'rolar tuzumi davrida milliy madaniyatni mensimaslik, milliy, diniy qadriyatlarni buzishga qaratilgan siyosat natijasida ming yillar davomida shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va avloddan-avlodga meros bo'lib kelgan, o'ziga xos sharqona milliy ruh, ma'naviy barkamollik ko'p jihatdan

zaiflashdi. Bu esa yoshlar tarbiyasi, xulqi, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir etishiga olib keldi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri tashkil etish, yoshlar ongiga milliy o'zlikni anglashni singdirish bu salbiy hodisalarning oldini olishga katta imkoniyat yaratadi.

Xalqimizning ma'naviy dunyoqarashi ortishi milliy istiqlol mafkurasi bilan umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini taqozo etadi. Bunga erishish uchun o'tmishimizni bilishimiz va targ'ib qilishimiz lozim.

Ajdodlarimiz merosi va ma'naviyatini o'rganish talabalarda g'urur uyg'otib, aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Mustaqillikdan keyin esa, birinchi prezidentimiz aytganidek "Hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim"1.

Dunyoda sivilizatsiya ilk rivojlangan bir nechta vohalar mavjud.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizim asosiga qurish.

"Men har bir ishda avvalambor tizim – tartib bo'lishi lozim, deb o'ylayman. Agar shunday tizim bo'lmasa, hech bir bir-biri bilan bog'lanmagan tadbirlar vositasida maqsadga erishib bo'lmaydi" .

XXI asr O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifat, iqtisodiyot, fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy innovatsiyalar asri sifatida boshlandi.

Sh Mirziyoevning "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruxi ma'naviyatdir" deb nomlangan ma'ruzasi O'zbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichida barcha sohalarda jumladan, o'ta muhim statistik jabha ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yoshlar tarbiyasidagi roli haqida ham amal qilinishi zarur bo'lgan bosh maqsadimizni belgilab berdi. Bu – demokratlashtirish, yangilash, modernizatsiya va isloh etish tushunchalarida o'z ifodasini topdi. SHu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida tarbiya jarayonini:

- demokratlashtirish;
- yangilash;
- modernizatsiya qilish;
- isloh etish.
- Ta'lim-tarbiya amaliyotining innovatsion tamoyillariga aylandi.

Demokratlashtirish – ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchiga nisbatan hurmat va talab birligi, uning mustaqil, erkin fikrli bo'lishi, shuningdek, o'z-o'zini boshqaruvni rag'batlantirish, har bir ta'lim muassasasida fuqarolik jamiyati muhitini shakllantirish.

Yangilash – ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda eskirgan usullaridan voz kechib, tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar g'oyalari, samarali shakl, metod va vositalar bilan ta'minlanishiga erishish.

Modernizatsiya qilish – an'anaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalarni zamonaviylashtirish, tarbiyalanuvchilarning hayotiy dalillar, voqea-hodisalar, an'analar vositasida tarbiyalash, ularni XXI asr voqeligiga moslashishlariga imkon yaratish.

Isloh etish – ma’naviy-ma’rifiy ishlar amaliyotidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, o’quv va tarbiyaviy ishlar jarayonini yagona tizimda aks etishiga erishish, mazkur tizim mazmunini milliy istiqloqni mustahkamlash talablariga muvofiq shakllantirish.

Barkamol shaxs, malakali mutaxassisni shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy zaruriyatdir. SHu bois bu yo’lda ijtimoiy-pedagogik harakatni tashkil etish – Respublikada amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning bosh yo’nalishi, milliy g’oyaning asosiy talablaridan biri sifatida belgilandi. Ushbu masala ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimi oldida turgan ustuvor vazifa hisoblanadi. SHu sababli ushbu tizimning samaradorligini ta’minlash bo’yicha qator huquqiy-me’yoriy, uslubiy hujjatlar ishlab chiqildi, uslubiy ishlanmalar tayyorlandi.

Biroq, XXI asr boshidagi mavjud vaziyat va Respublika Prezidenti Islom Karimovning ta’lim tizimini tubdan yangilash zarurati to’g’risidagi ko’rsatmalari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini bajarishning ikkinchi bosqichida tarbiya jarayonini ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash ko’zda tutilganligi;

- ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar dasturlari mazmunini tahlil qilish, joylarda bevosita tarbiyaviy ishlar amaliyotini o’rganish natijalari, shuningdek, ta’lim muassasalarining taqdimotlari asosida chiqarilgan xulosalar;

- yoshlarga qaratilgan mafkuraviy tahdidlarning turlari ko’payib borayotganligi ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni pedagogik texnologiya g’oyalari asosida, ya’ni, tarbiyaviy natijani kafolatli loyihalashtirish va amalga oshirish vazifasini kun tartibiga qo’yimoqda.

Amaliyot tahlili tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratish va ular asosida amaliy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy yoshlarda shakllantirilishi talab etilayotgan fazilatlarining ular qiyofasida aks etmayotganligi, bu masalaga jiddiy e’tibor berilmayotganligini ko’rsatdi. Bu holat “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan “ta’lim oluvchilarning ma’naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish”ga alohida e’tibor qaratish zaruratini kun tartibiga qo’yimoqda.

Barkamol shaxs tarbiyasi - tarbiyalanuvchi (go’dak, o’smir (o’quvchi) va o’spirin (o’quvchi-talaba)larni respublika mustaqilligini mustahkamlashga qodir, yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlariga ega, fidokor fuqaro, yuqori malakali mutaxassis va hech kimdan kam emasligini chuqur anglagan shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan hamda o’zaro uzviy va uzluksiz tarkibiy qismlaridan tashkil topgan dasturiy pedagogik faoliyat jarayonidir.

Mazkur tizimning texnologik jihati ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasida loyihalashtirilgan natijani kafolatlashga qaratilgan pedagogik operatsiyalar, vositalar, metodlar zanjiri sifatida namoyon bo’ladi. SHu sababli ushbu tizim asosini vositalar emas, balki u yoki bu fazilatni shakllantirishda kafolatlangan natijaga erishishning pedagogik algoritmlari rejalashtirildi.

Uzluksiz tarbiya jarayoni ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarga parallel ravishda tashkil etiladi. U yangi avlodda siyosiy, g’oyaviy, ma’naviy- ahloqiy, jismoniy fazilatlarini, shuningdek, millat xarakterini shakllantiradi. Demak, ertaga O’zbekistonning yosh avlodi ziyolilari,

mutaxassislarining, umuman millatning qanday siyosiy, g'oyaviy, ahloqiy, g'oyaviy tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugun amalga oshirilayotgan uzluksiz tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog'liq, qolaversa, "hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga, qo'poruvchilik-terrorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa – aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targ'ibot- tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur o'ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta'sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o'zi taqozo etmoqda . SHunday ekan, bu jarayon o'ta aniq maqsad va vazifalarni belgilash asosida amalga oshirilmog'i zarur.

Mazkur tizim, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kooperatsiyasining so'nggi yutuqlariga tayangan holda mavjud holatni ma'naviy diagnostik o'rganish, mazmunan boyitish, takomillashtirish hamda islohotlar talablariga to'la javob bera olish tamoyiliga asoslanadi. Bu esa bolalar bog'chasidan to magistraturagacha bo'lgan jarayonda amalga oshiriladigan har bir tadbirning aniq natijani kafolatlay olishiga e'tiborni qaratish, maqsadga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish va samaradorligini tahlil qilish talab etiladi. Tizimning muvaffaqiyati Alifbe, O'qish, Ona tili, Odobnoma, Vatan tuyg'usi, O'zbekiston tarixi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, tarix, huquq, iqtisodiyot, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika va hokazo fanlar o'rtasidagi o'zaro integratsiyaning "uzluksiz tarbiya ob'ekti va sub'ekti" bo'lgan shaxs (go'dak, bola, o'smir, o'spirin) kamolotini shakllantirishga ko'rsatuvchi samarali ta'siriga bog'liq.

Mazkur tizim ta'lim muassasasining turiga moslab, differensial va siklli asosda amal qiladi. Tizim samaradorligini ta'minlash uchun javobgarlik har bir ta'lim muassasasining rahbari va boshqa mutasaddilar zimmasiga yuklatiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni, amaliyotidagi in'ikosi, olinayotgan natijalar izchil ravishda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari hay'at yig'ilishlarida muhokama qilib boriladi.

Mazkur tizim mazmuniga ta'lim muassasalarining hududiy, milliy, ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish hamda o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar tizimining asosiy tavsiflari sifat va samaradorlik hisoblanadi. Har qanday tizim samaradorligi mohiyatiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan baholanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining samaradorligini baholash jarayonida ko'proq ijtimoiy afzalliklar namoyon bo'ladi. Zero, tizimning amal qilishi natijalari ta'lim, tarbiya hamda ijtimoiy madaniyat darajasini yuksaltirish, tarbiyalanuvchilarda ma'naviy- ahloqiy sifatlarni shakllantirish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, salbiy ko'rinishdagi holatlar (masalan, ahloqbuzarlik, huquqbuzarlik, nosog'lom turmush kechirish va hokazolar)ni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samarasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga tizimning to'laqonli amal qilishi iqtisodiy samarani ham kafolatlaydi. Binobarin, jamiyatda o'zaro birlik, hamkorlik, hamjihatlikka asoslangan ijtimoiy munosabatning qaror topishi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik

ishlarining amalga oshirilishi, sog'lom raqobatning yuzaga kelishi aholi, jumladan, yoshlar jinoyatchiligiga barham berish, terroristik va diniy ekstremistik harakatlarga qarshi kurashishga sarflanayotgan mablag'ni tejashga imkon beradi.

Manbalar pedagogik tizimning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ikki holat bilan baholanishini ko'rsatadi:

1) tizimning amal qilinishiga ko'ra samaradorligi (natijaning nazariy va amaliy ahamiyati (ijtimoiy foydaliligi) bilan ijobiy natijalarni qo'lga kiritish maqsadida sarflangan hujjatlar o'rtasidagi farq);

2) istiqbolda jamiyat tomonidan erishilish ehtimoli ko'zda tutilayotgan muvaffaqiyatlarga ko'ra samaradorligi (tizimning amaliyotdagi tatbiqi hisobiga sarflar hajmining kamayishini ifodalovchi ko'rsatkichlar).

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi quyidagi omillar hisobiga ta'minlanadi:

Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi muassasalari barkamol shaxsni tarbiyalash, unda ma'naviy-ahlovqiy sifatlarni hosil qilish, ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantirish, jismoniy kamolotini ta'minlashga oid nazariy-metodik manbalarning yaratilishi;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida ijodiy, sog'lom psixologik muhitning qaror topishi;

Uchinchidan, barkamol shaxs tarbiyasi uchun mas'ul sub'ektlar (oilalar, ta'lim

muassasalari, mahalla, jamoat, davlat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mikromuhit) o'rtasida mustahkam aloqani yuzaga kelganligi, hamkorlikning o'rnatilganligi;

To'rtinchidan, ta'lim muassasalarida shaxsning har tomonlama (aqliy, ahloqiy, jismoniy) rivojlanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi;

Beshinchidan, yoshlarni ahloqiy va huquqiy jihatdan qayta tarbiyalashga sarflanayotgan iqtisodiy mablag' hamda vaqt miqdorining kamayganligi.

Tizim sifati tarbiyaviy jarayonda qo'llanilayotgan dastur, maxsus metodika, shuningdek, sinfdan, sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga oid o'quv-metodik ishlanmalarning amaliyligi (amaliyotga mos kelishi) bilan tavsiflanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar tizimi samaradorligini quyidagi metodika, shakl, metod va vositalar yordamida baholash mumkin:

- pedagogik kuzatish, pedagogik professiogramma va ob'ektiv ko'rsatkichlar asosida baholash;

- ta'lim muassasalarining faoliyatini yorituvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganish;

- sotsiometrik (suhbat (tarbiyalanuvchilar yoki ularning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan sub'ektlar - ota-onalar, vasiylar, o'qituvchilar, murabbiylar ishtirokida), anketa, ijtimoiy so'rov, intervyu);

- tashhis metodlari (og'zaki, so'rov, testlar (test-so'rov, test-topshiriq, proektiv test);

- pedagogik hamda psixologik tajribalar;
- tarbiyalanuvchilarning xarakterini o'rganish; ularning fazilatlarini tadrijini o'rganish; psixologik testlar – K.Yung (“SHaxs xakteri tipini aniqlash”), Rokich – (“Ahamiyatli qadriyatlar”), Ayzeng metodikalari);
- “Tarbiyalanganlikni o'rganishning pedagogik-psixologik dasturi”, “Talabani ijtimoiy-psixologik portreti”, “Pedagogik tavsifnoma”, “Guruh murabbiysi faoliyati to'g'risida”gi Nizom, “Sotsiologik-psixologik xizmat ko'rsatish”, “Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni modellashtirish», «Tarbiyalangan darajalarini baholashning matematik-statistik metodikasi”, “Kasbiy va shaxsiy barkamol talaba modeli”;
- pedagogik matbuotni o'rganish; modellashtirish (loyihalash); tarbiyalanuvchilarda ularning yoshiga mos ravishda milliy g'oyaning namoyon bo'lishini tahlil qilish.

An'anaviy pedagogik yondashuvda ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiya maqsadlari umumiy xarakterga ega bo'lib, ular tarbiyachi, o'qituvchining sub'ektiv xohish-istaklaridan kelib chiqib belgilangan, muayyan talablar asosida cheklanib qolgan edi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan tadbir va o'quv-tarbiyaviy yondashuvda oldindan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni ko'llash – zamon, taraqqiyot talablaridan biriga aylandi.

Identiv ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaviy maqsadlar ta'lim-tarbiya jarayonining erishilgan real natijasi sifatida bola, o'quvchi-talabalarning hatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, xatti-harakatlar ichki (fikriy) va tashqi (xulq) ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quvchi (tinglovchi) nimanidir ta'riflaydi, tushuntiradi, xulq- atvor tarzini loyihalaydi, muhokama qiladi, qo'llaydi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi. Muayyan vaziyatlarda fikriy hatti-harakat “yuzaga chiqib” tashqi hatti-harakatga aylanadi. Bola, o'quvchi, talabalarning bunday hatti-harakatlari o'z navbatida o'quv-tarbiya natijasini ifodalaydi.

SHu bois, tadbir o'tkazuvchi mashg'ulot loyihasini tuzganda identiv o'quv maqsadlarini belgilash bilan bir qatorda shu materialni o'rganishdan ko'zlangan va kafolatli natijaga erishuvni ta'minlovchi identiv tarbiya maqsadlarini belgilab, ularga muvofiq amaliy faoliyatni yo'lga qo'yishlari taqozo etiladi.

Tarbiyaviy tadbirlar – bu muayyan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi, yagona ijtimoiy tarbiyaviy maqsadga bo'ysundirilgan o'zaro ta'sirlar majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy jarayon yaxlit tarbiyaviy metodlar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi. Har bir tadbir tarbiyaviy jarayonning muhim halqasi, hujayrasi, bo'lagidir. Hozir respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining bir qator resurslari mavjud.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlod tarbiyasi yagona ta'lim-tarbiya tizimi bilan qamrab olingan. Ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga har yili davlat byudjetining 50 foiziga yaqin mablag'i ajratilmoqda. Tarbiya jarayoni sub'ekt (inson), vaqt, mablag' hamda tashkiliy resurslar yordamida tashkil etiladi.

Ta'lim muassasalarida bu jarayonni boshqarish o'quv yurtlarining ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlari (oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ahloqiy tarbiya ishlar bo'yicha prorektor, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari) zimmasiga yuklatilgan. Uni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarlari, oliy o'quv yurtlarida fakultet dekani o'rinbosari, kafedra mudirlari, guruhlarning murabbiylari, shuningdek, barcha o'quv yurtlarida fan o'qituvchilari bevosita ishtirok etadilar.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi.

– Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – dedi SHavkat Mirziyoev yig'ilishda. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

YAqinda bo'lib o'tgan yirik tadbirlar – davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. CHunki bu borada echimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar ko'p. Milliy g'oyaning mohiyatini to'liq anglab etmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo'q emas. SHu bois Prezident mamlakatimiz mafkurasining asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tdi:

– Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur.

Davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati etishmayotganini ta'kidladi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayapti.

SHuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ishini tanqidiy o'rganib chiqib, faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi aytili.

Prezidentimiz ushbu markazning "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish taklifini bildirdi.

Yig'ilishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari belgilandi.

Ma'lumki, hozirgi paytda ma'naviyat targ'iboti bilan o'nlab tashkilotlar shug'ullanadi. Lekin, ularning faoliyati aniq muvofiqlashtirilmayotgani, yagona tizimga birlashmagani sababli bir-birini takrorlash holatlari kuzatilmoqda.

Bundan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi barcha hududiy kengashlarning, vazirlik, idora va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirib borishi belgilandi.

Markaz va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta'minoti keskin kuchaytiriladi. Uning faoliyati ilmiy tadqiqot va targ'ibot-tashviqot yo'nalishlarida qayta tashkil qilinadi.

Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi, deydi xalqimiz. Lekin, ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi uzviylik hozircha bunday emas. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla – har biri alohida ish olib boryapti.

SHu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish muhimligi ta'kidlandi.

SHuningdek, maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Barcha oliygoh va ularning filiallarida mavjud shtat birliklari doirasida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etilishi aytili.

Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar birlashtirilishi ma'lum qilindi. SHuningdek, Toshkent shahar nuroniylarining tarbiyasi og'ir, ishsiz yoshlarga ko'maklashish bo'yicha tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

Hududlar markazida namunaviy loyiha asosida ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish, mahalliy byudjetlar hisobidan sohaga qo'shimcha shtatlar ajratish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Toshkent shahridagi “G’alaba bog’i” majmuasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun harbiy tarix va ajdodlarimiz qahramonligini o’rganish bo’yicha ilmiy markazga aylantirish taklifi bildirildi.

Yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o’rgatish, bu yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

– Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo’lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o’rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, – dedi Shavkat Mirziyoev.

Mutasaddilarga O’zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo’yildi.

O’zbek tilining davlat tili maqomini kuchaytirish, yurtimizda va xorijda uni o’rganish bo’yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan ko’rsatma berildi.

Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan tilda etkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko’rib chiqish zarur. SHu ma’noda, Ma’naviyat va ma’rifat, “Taraqqiyot strategiyasi”, Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo’nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy “aql markazlari”ga aylanishi kerakligi ta’kidlandi.

Milliy g’oya targ’iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida “Ijod” jamoat fondi negizida Ma’naviyat va ijodni qo’llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi qayd etildi.

Bu jamg’armaga 120 milliard so’m ajratilib, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ’ibot-tashviqot ishlarini samarali amalga oshirish, milliy adabiyotimizni rivojlantirish uchun sarflanadi. Bu mablag’ning 90 milliard so’mi hududlarda ma’naviy-ma’rifiy sohalarni rivojlantirishga, 20 milliard so’mi YOZuvchilar uyushmasi faoliyatini qo’llab-quvvatlashga, 10 milliard so’mi mamlakat miqyosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil qilishga yo’naltiriladi.

SHu yildan boshlab, ma’naviyat va ma’rifat sohasi ixtisosliklarini fanlar klassifikatoriga kiritish, bu yo’nalish bo’yicha etuk kadrlar tayyorlash bo’yicha topshiriqlar berildi.

Kitobxonlik madaniyatini kengaytirish, kino san’atini izchil rivojlantirish, barcha telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, teledasturlarning saviyasini oshirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

– Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o’ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir, – dedi Prezident.

Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi faoliyatining asosiy qismi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdan iborat.

Nil vohasida qadimgi Misr madaniyati va ma'naviyati tashkil topgan. Ulardan hozirgacha saqlanib qolgan papirusdagi yozuvlar, ehromlar va hokazolar mavjud.

Ikki daryo – Tigr va Efrat oralig'i Mesopotamiya ikkinchi qadimgi vohadir. SHumer yozuvlari va afsonalari, ular asosida yaratilgan Tavrot bunga misoldir.

Keyingisi sariq daryo – Xuanxe vohasi, u erda yaratilgan Xitoy yozuvi, qog'oz, kitoblar va qadimgi Xitoy falsafasidir.

Hind daryosi bo'ylarida qadimgi Hind madaniyati va mafkurasi, Buddha dini va yodgorliklari yaratildi.

Xuddi shunday Amudaryo vohasida qadimgi Xorazm madaniyati, yozuvi va "Avesto" – zardushtiy dini yaratilgan. Amudaryo o'zani o'zgarib turganligi tufayli yodgorliklarning kamroq qismi saqlanib qolgan. Fikr – so'z va ish birligi, Vatanga sadoqatlilik ma'naviyati "Avesto" ning tarkibiy qismidir. SHuningdek, "Avesto" ta'limotiga ko'ra, yaxshilik qiluvchi odam pokizalik urug'ini ekadi, bu yaxshilik urug'lari iymonni oziqlantiradi. YAxshilik qilmay, jabr-zulm qiluvchilar iymonsiz odamlardir. Yoki qadimgi turkiylar qoldirgan ulkan madaniy meros, "Avesto" da "o'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ravo ko'rma" – g'oyasi turkiylar ma'naviy merosidir, katta ma'rifiy–tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va ularning mazmuni, g'oyasi asosida har qanday shaxs ma'naviy kamol topadi, yuksak vatanparvarlik va qahramonlik tasviridan bahramand bo'ladi. "To'nyuquq" obidasi vatan haqidagi madhiya deyilsa, Bilga hoqon "Yo'qsil xalqni boyitgani", "Oz sonli xalqni ko'paytirgani" uchun ham "Ulug' hoqon" unvonini olgan. Kul tegin timsolida esa qahramonlik va vatanparvarlik g'oyasini ulug'lash o'z ifodasini topgan. Biz ana shu asarlar orqali ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi tarixni bilib olamiz. Bu qahramonlar qalbimizda iftixor tuyg'ularini jo'sh urdirishi tabiiydir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'zagini aynan shular tashkil etishini talabalar bilishlari shart.

Islom dini manbalarida ham inson ma'naviy – axloqiy qadriyatlarining butun bir tizimi, sharqona madaniyatning namunali tamoyillari o'rin egallagan.

Qur'oni Karimda "ilm" so'zi 754 joyda tilga olingan. Hadislarda "Ollah uchun qilingan har qanday ezgu amal ibodat ekanligi, ilm olish esa ibodatlarning afzalidir" deyiladi.

Asrlar osha umumbashariy bo'lgan axloq me'yorlari din tomondan hayotga joriy etilib, jamiyatni axloqiy tartibda saqlashda katta rol o'ynaydi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda islom dini g'oyalaridan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi.

XX asrning boshida Turkiston o'lkasida yangi bir ijtimoiy harakat yuzaga keldiki, bu jadidchilik nomi bilan tanildi.

Jadidchilar o'lkada o'z o'tmishi, tarixi, fan va madaniyatini o'rganishga va g'aflat uyqudan uyg'otishga, olamni ko'z ochib ko'rishga, yangilikni his etishga, o'zligini topishga da'vat etdilar. Ularni tizimli tashviqot qilish ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini yanada oshiradi.

Ajdodlarimizning tarixi, urf-odatlari va ulkan ma'naviy meroslarini o'rganish yoshlarimizda milliy g'urur va faxrlanish tuyg'ularini uyg'otadi. Vatanimizning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan soha o'rtasida maxsus, kasb-hunar, va oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish mumdavlat siyosati miqyosidagi vazifadir. SHu boisdan respublikamiz Prezidenti, hukumatimiz bu sohaga alohida e'tibor bilan qaramoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi buning yorqin misoli bo'lib, unda shunday satrlar bor: "Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi". "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda ham yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Bu hujjatlardan ko'zda tutilgan maqsad bozor iqtisodiyoti davrining murakkab kechuvchi jarayonlari yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tarbiyasiga ko'rsatadigan turlicha ta'sirning oldini olishdir. O'quvchi-talabalarga puxta, zamon talablari darajasida bilim berish barobarida, ularda ona-Vatanga sadoqat, mustaqilligimizga, tariximizga hurmat, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash tuyg'ularini tarbiyalash hamda milliy istiqlol mafkurasini ularning ongiga singdirishdir. Bularni amalga oshirish, ya'ni o'quvchi-talabalarga ma'naviy-ma'rifiy tarbiya berish, o'quvchi-talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, o'tkaziladigan tadbirlar rejasining (ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rektor yoki direktor muovininining yillik ish rejasini) tuzilishiga, mazmuniga bog'liq. Shunonchi, rejadagi g'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy tarbiya, huquqiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, mehnat va kasb tanlash tarbiyasi, voyaga etmaganlar bilan ishlash, diniy ekstremizm va terrorchilikka nisbatan o'quvchilarda ogohlik va hushyorlikni tarbiyalash, giyohvandlik va uning oldini olish, jismoniy tarbiya va sport, oilaviy, ekologik, jinsiy tarbiya kabi bandalarda o'quvchi kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy - ma'rifiy jihatdan tarbiya berish vazifasining mazmun va shakllari o'z ifodasini topadi.

Oliy o'quv yurtining ko'pgina bitiruvchilari maktablarda, akademik litsey va kollejlarda direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari bo'lib ishlaydilar. Ular ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishni, puxta ssenariy va reja tuzishni, turli uchrashuvlar, suhbatlar, muloqotlarni, kechalarni tashkil etishni bilishlari kerak. SHu sababli ushbu kursda bu sohalar qamrab olinadi. Shunki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 avgustdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish to'g'risida" gi qarori bu soha xodimlari oldiga juda ulkan vazifalarni qo'ydi. Hozirgi darvda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxmiman 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. SHu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga etishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivoryo'nlislaridan biri hisoblanadi. Islom Karimov ta'kidlaganidek "Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-ahloqiy jihatdan etuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz, zarurat" chunki yoshlar o'rtasida mumtoz qo'shiqlarni tushunmaydigan, jjahon adabiyoti durdonalari u yoqda tursin, o'zbek adabiyotining nomdor asarlarini hm bilmaydigan, arzimagan choy-chaqaga o'z

xalqini, dinini sotadigan, Vataniga qarshi qo'l kutaradigan yoshlar ham borligini unutmasligimiz lozim.

Yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta'minlash bu davlat buyurtmasidir. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi fanining predmeti fanning yuzaga kelishi, ma'naiy tarbiyaning yoshlarga ta'siri, yoshlarning jamiyat hayotidagi roli uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining, ahamiyati, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi va yangi texnologiyalardan foydalanish yo'llarini o'rganishdan iboratdir.

Ushbu fanning ilmiy-nazariy, tarixiy-falsafiy asoslarini qadimgi davr faylasuflari va allomalari asoslari, xalq o'zaki ijodiyotining ajoyib durdonalari, SHarq va G'arbning o'rta asrlarda ijod qilgan buyuk allomalarining fikrlari, yangi va eng yangi davrda yaratilgan ilm-fanning noyob durdonalari, Islom Karimov asarlarida yoritilgan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaga oid fikrlari tashkil etadi.

Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida kitobxonning e'tibori takror –takror eng dolzarb masalaga, ya'ni yosh avlod tarbiyasiga, o'g'il qizlarimizning sof va beg'ubor qalbini turli ma'naviy taxdidlardan qanday asrash masalalariga qaratiladi. Shu sababli kitobda eng ko'p ishlatilgan tushunchalarni "yoshlar", "tarbiya", "ma'naviyat", "milliy g'oya", "fazilat", "taxdid" so'z va iboralar tashkil etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlar, rivojlanayotgan mintaqalarning boyliklarini egallashga intilish birdaniga paydo bo'lgani yo'q.

Ma'naviyatli insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi o'laroq, xavf-xatarlar ro'yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan ko'p boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-uchta bosh o'sib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar mashaqqatli ekanini ko'rsatadi.

Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakli shamoyilini o'zgartirganini tushunib etamiz¹. Darhaqiqat, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar».

Mustaqillik davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la erkinlikni anglatadi. Mustaqillik muayyan davlat

erkinlikning birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa mustaqillikning tom ma'noda qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Shunki mustaqillik davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarning irodasiga bo'ysunmay, erkin hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat mustaqilligining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgalar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat mustaqilligi mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi.

Garchi butun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi teng huquqlilik jahon hamjamiyati taraqqiyotining tabiiy va zaruriy sharti hisoblansa-da, ayrim mulohazalar va xatti-harakatlarda hamon imperiyacha fikrlash ta'sirini, davlatlar mustaqilligini emirish istagini ilg'ash qiyin emas.

6-MAVZU: TARBIYANING GLOBALLASHUV JARAYONLARIDAGI VAZIFASI

Reja:

1. Tarbiyaning globallashuvi jarayonlaridagi vazifasi.
2. Globallashuvning shaxs hayoti va faoliyatidagi o'rni.

Jamiyatda (jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuvchilik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, "ommaviy madaniyat"ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik) salbiy illatlar va ularni bartaraf etishdagi asosiy vazifalar.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib bora-yotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechir-gan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shid-datli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalist-lar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'-lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongi-da bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, menimcha, ko'p tomondan masalaning mohiyatini to'g'ri ifoda-laydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zud-lik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda-ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy

muammolarning jahon miqyosi-dagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma'noda, globallashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqyaar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommuni-katsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadi-ki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tez-korki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Bu haqda gapirganda, men ilgari bildirgan ba'zi fikrlarni takrorlash o'rinli, deb o'y-layman.

Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlari-dan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, qo'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibat-larini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyo-qarash va

mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har tur-li ma'naviy taxdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh be-rishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab tu-radigan ko'plab voqealar misolida yaqqol kuza-tish mumkin va ularning qanday og'ir oqibat-larga olib kelishini uzoq tushuntirib o'tirish-ning hojati yo'q, deb o'ylayman. O'tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro'y bergan, biz bevosita o'z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosa-ning to'g'ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quydar-gohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maq-sad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokra-tik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chu-qur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz is-tiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar taj-ribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqa-ruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayoti-mizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechi-rish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish taraf-dorimiz. Biz uchun shunday yo'l ma'qul, uning boshqa muqobili yo'q.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina habar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saklashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib bo-rishimiz kerak, degan savol butun barchamizni o'ylantirishi tabiiy.

Men, hayotda ko'p bora o'z tasdig'ini topgan ha-qiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shun-day degan bo'lardim: tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday taxdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta il-miy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluk-siz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki be-parvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylana-di. Va aksincha — qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda tur-li siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokra-tiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, ang-lash katta ahamiyat kasb etadi.

Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomo-nidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, er osti, er usti boyliklariga ega bo'lgan hududlar-ga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'araz-li siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga ay-nan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olami-ni bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib bo-rish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor be-rishimiz lozim. YA'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib ki-rib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuklik va zo'ravonlik, indi-vidualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak. bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortti-rish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'-ana va qadriyatleri, turmush tarzining ma'na-viy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmokda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xuruj-larga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug' aj-dodlarimiz o'z davrida komil inson haqida bu-tun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamona-viy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli, deb bi-laman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, say-qal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tu-shunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmu-nini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, uyat — o'lim-dan qattiq, degan gaplar xalqimiz tilida o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, aksincha, bunday ibo-ralar el-

yurtimizga mansub ezgu va go'zal ax-loqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, uyat va or-nomusini yo'qotgan odam, Ahmad YAssaviy bobomiz aytganidek, xud-diki hayvon jinsiga aylanib qoladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Oldig'a qo'yganni emak - hayvon ishi, Og'ziga kelganni demak - nodon ishi, - degan chuqur ma'noli so'zlari ham bu fikrni tas-diqlab beradi.

O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahon-da va yon-atrofimizda mavjud bo'lgan, toborakuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlar-ni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. SHu bois yurtodoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shaf-qatsiz o'yinlari to'g'risida biryoqlama va soxta tasavvur bo'lmasligi kerak.

Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geo-politik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kom-munikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzand-larimizni ona Vatanga muhabbat, boy tarixi-mizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafku-raviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib etish-sin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ular-ga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayot-gan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychi-lik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyati-mizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'-naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim.

Bu o'rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk ko'rinishi bo'lmish hasad to'g'risida to'xtalib o'tish joiz deb o'ylayman. Odamzot va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonish o'rniga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda hasad insoniylikka mutlaqo zid bo'lgan jir-kanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarda

«Birovga hasad qilish-dan saqlaning, chunki olov o'tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishla-ringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azal-azaldan ochiqko'ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin, ming afsuski, umr yo'llarida hasad balosiga ko'p duch kelamiz. O'lis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog'lig'i, hatto hayotidan judo bo'lganini achchiq misollarda ko'rish mumkin.

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan etishib chiqqan yuzlab ulug' zotlar fidoiylik namunalarini ko'rsatib kelgan. Bunday insonlar diyorumizda hozir ham ko'plab topiladi va bundan keyin ham ularning saflari kengayib boraveradi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlashda. Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog'ida bo'lmasin, yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz uni o'z vaqtida payqab, ardoklab, parvona bo'lib, unga yo'l ochib bersak, barcha sa'y-harakat va intilishlarimizni ana shunday olijanob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralar-ni egallashga erisha olamiz.

Bu haqda gapirar ekanmiz, ma'naviy hayoti-mizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat ha-qida to'xtalib o'tmoqchiman. SHaxsan o'zim bu illatdan jirkanaman. Shu illatga chalingan odam-ni ko'rarga ko'zim yo'q. Bu - sotqinliqdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinliqdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odam rahbarlik kursi-siga o'tirib qolsa bormi, u erda osoyishtalik yo'qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo'lishimiz, ularga yonimizda o'rin bo'lmasligi lozim. Agar tevarak-atrofimiz-dagi birorta kishida shunday alomatlar sezila-yotgan bo'lsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak.

Shu munosabat bilan tarixda ko'p marta o'z tas-dig'ini topgan, men ham o'z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon enga olmaydi.

Shu ma'noda, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Iroda - bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab va-zifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan,

yoningizda turib, qo'ldan kelgancha yordam berish-ga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda engishga harakat qiladi.

Lekin birovning hayotiga, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi. Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmanidan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dush-manlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur taxlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo'rqma - nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma - nari borsa, ular sen-ga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq - ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi».

Har bir inson hayotida g'oyat muxim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib-o'sib ke-layotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifa-tidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir. Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz — yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talaba-larimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi za-mon talablariga javob beradigan jamiyat quri-lishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi-jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Albatta, bu masala bo'yicha ijtimoiy fan-lar sohasida ma'lum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan bo'lsak, bu borada chop etil-gan ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mutaxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburlamiz. Bunday noxush holatlarga barham berish vaqti keldi.

Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va ta-fakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mut-laqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qad-riyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jami-yati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan ibo-ratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson ja-miyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyati aynan ana shu asosda aniklab olishi zarur.

Bu masala haqida chuqurroq o'ylab ko'radigan bo'lsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo'llari, ustuvor xususi-yatlari to'g'risidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo'lishini e'tirof etishimiz va buni o'zimizga mezon qilib olishimiz zarur.

Bunday keng ko'lamli va o'ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalambor, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tav-siyalarni kutishga to'la haklidir.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev'yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo'llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan^{[3][1]}. Mazkur ta'rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e'tibor berilgan. O'z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma'nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma'noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma'nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so'zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo'jaligi rivojlanishining ob'ektiv jarayoni bo'lib, juda ko'p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko'maklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv - butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin

harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo'shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob'ektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.^[4] Globallashtirishga qarshi harakatlar ham mavjud bo'lib, ular globallashtirish natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e'tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir necha antiglobalistlarni kiritish mumkin. Globallashtirish bosqichiga mintaqallashtirish bosqichini bosib o'tish lozim.

Vaholanki, globallashtirish yaxlit jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. A.Ochildievning ta'kidlashicha, "...eng umumiy ma'noda, globallashtirish, bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Er yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga dahldor ekanini anglatadi". V.I.Danilov-Danil'yan esa "Globallashtirish ko'proq mantiqdan emas, balki tarixiy paradigmadan kelib chiqqan so'zdir. Globallashtirish jihatlarining o'zaro aloqadorligini aniq va ravshan tahlili mavjud emas", - deb yozgan edi. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, globallashtirish jarayoni o'zining murakkabligi va serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. SHuning uchun ham S.Otamuratov "...globallashtirish tushunchasi haqidagi qarashlar turli-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. CHunki uning makon va zamonda sodir bo'lish xususiyatlari turlicha bo'lib dunyoning o'zgarishiga o'tkazayotgan ta'sirida ham yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo'lmoqda". 1980-1990 yillar bo'sag'asida "globallashtirish" tushunchasi yangi talqinga ega bo'ldi: asli yaponiyalik keyinroq amerikalik mashhur iqtisodchi K. Ome ta'riflab bergan mazkur atamaning ommaga tushunarli bo'lgan ifodasidan jahon xo'jaligi rivojlanishining nisbatan yangi qirralari va tavsiflari, uning dastlabki taraqqiyot bosqichlaridan farqlanuvchi hozirgi holatini ko'rsatish uchun tatbiq etib boshladilar.

Proffesor A. Katsovich globallashtirish jarayonini tasvirli yoritilishi va jahon xo'jaligining yangi tavsiflari yuzaga kelishi: "Globallashtirish chegaralar orqali iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni intensivlashtirish qilish orqali aniqlanishi mumkin. Globallashtirish – bu erkin savdo to'g'risidagi bitimlar uyg'unligi, jahonni yagona va o'ta raqobatli bozorga aylantirgan Internet hamda moliyaviy bozorlarning birlashishidir", degan taklifni kiritadi.

Jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot-larda «Globallashtirish» tushunchasiga turli ta'riflar berilmoqda va unga turli qarashlar va munosabatlarni bildirish davom etib kel-moqda. Lekin uning er kurrasining bir butunligini ifodalash va barcha soqalarning «yagonaligini» ta'minlash jarayoni, omili sifatida qarash umumiy qarashlardan ustuvor bo'lib kelmoqda. Jum-ladan, rus olimi I.Burikova globallashtirishni jarayon sifatida qaraydi va olimlar tomonidan unga nisbatan qarashlarni umumlashtirib, uning uchta asosiy jihatini ko'rsatadi:

Bilim jiqatlari - globallashtirish jarayoni haqida nimalar ma'lumligi.

Emotsional - bu ma'lumotga qanday yondoshuv zarurligi.

Axloqiy - nima qilish kerak ekanligi.

Uning ta'kidlashicha, Sankt-Peterburg Universitetining siyo-siy psixologiya fakulteti psixologlari globallashtirishni jaxrnda siyosiy qokimiyatning yangi shakli sifatida tushunadilar. Bu siyo-siy hokimiyat yangi shakllarining instrumentlari quyidagilardir:

informatson globallashuv - informatiya soh_ asidagi o'zgarishlar;
iqtisodiy globallashuv - iqtisodiy soqadagi o'zgarishlar;
mintaqaviy globallashuv - hududlar va chegaralar sohasidagi o'zgarishlar;
demografik globallashuv - globallashuvning asosiy instru-menti bo'lib,
insondagi barcha asosiy o'zgarishlarni o'ziga qamrab oluvchi o'zgarishlardir.

Shuningdek, muallif ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritgan.

Yana bir rus olimi L.E. Grinning fikricha, «Globallashuv -mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir».7U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta'rifni beradi. «Globallashuv - bu jarayon, uning nati-jasida dunyo o'zining barcha sub'ektlariga yanada aloqador va yana qam bog'liq bo'ladi».

Rus olimlaridan yana biri professor A.G. Kosichenko qam glo-ballashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: «Globallashuv ko'p o'lchamli jarayon, u o'z ta'sir doirasiga gurlu usul va vositalar bilan barcha soqalarni qamrab oladi». Ayni paytda uning fikricha, «iqtisodiyotning o'ziga xos qukmronlik ta'siri bugun jahon hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda».

2006 yilda «Globallashuv» tushunchasi va uning turli sohalarga o'tkazayotgan ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan jahonning etakchi olimlari qamkor-ligida «Globalistika mejdunarodnsh mejdissiplinarnsh ensiklopedicheskiy slovar» tayyorlanib e'lon qilindi. Unda globalla-shuv tushunchasiga olimlar turlicha ta'rif berganlar va uning ta'sir doirasini aniqlashga qarakat qilingan. Jumladan, amerikalik olim T.Fridman bu qaqda shunday ta'kidlaydi: «Globallashuv - bu «sovuq urush tizimini» almashtirgan yangi tizim». Keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotda kechayotgan globalla-shuv jamiyat, mamlakat va xalqlar qayotining barcha soqalariga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning bilan birga uni o'z davrida jahonni larzaga solgan va butun insoniyatga xavf tug'dirgan «sovuq urush» bilan tenglashtirgan mualliflar qam bor. Haqiqatdan qam, yuqorida mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarda glo-ballashuvning iqtisodiyotga, siyosatga va jahon miqyosidagi jarayon-larga o'tkazayotgan ta'siri keng qamrovli ekanligi ko'rsatib berilgan. Ayniqsa uning iqtisodiyotga o'tkazayotgan ta'siriga asosiy e'tibor berilganligini ta'kidlash lozim. Haqiqatan qam iqtisodiyot-dan manfaatdor bo'lmagan insonning o'zi yo'q. U inson h.ayot kechiri-shining moddiy asosini tashkil qiladi. Shuning uchun qam iqtiso-diyotdagi globallashuv milliy ma'naviyatda ham o'z ifodasini topadi. Afsuski, yuqorida mualliflar tomonidan bildirilgan fikr-lardan ko'rinib turibdiki, globallashuvning milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan salbiy ta'siri e'tibordan chetda qoldirilgan. Bu ja-rayonda iqtisodiy globallashuv milliy ma'naviyatning globallashu-vida vosita vazifasini bajaradi. Ana shu muqim jiqat muallif-lar e'tiboridan chetda qolganligini ko'rish mumkin. Shuning bilan birga T. Fridmanning globallashuvning «sovuq urush» siyosati bilan tenglashtirilganligi zamirida ham katta ma'no bor. Haqiqat-dan ham bugun u butun insoniyat, ayniqsa uning oliy qadriyatlaridan biri bo'lgan millatlar taqdiriga solayotgan tahdidini «sovuq urush» siyosatiga tenglashtirish mumkin. Respublikamizda qam tadqiqotchilarimiz tomonidan globallashuv jarayonini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Hali bu masalaga

bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar e'lon qilinmagan bo'lsa qam bir qator ilmiy jihatdan pishiq bo'lgan maqolalar e'lon qilinganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, «Globallashuv ziddiyatlari», «Ada-biyotida globallashuv jarayoni», «Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi» va boshqa maqolalarda uning ba'zi bir jihatlariga to'la-qonli ta'rif keltiriladi. Aytish joizki, mazkur maqolalarda ham «Globallashuv» jarayon sifatida talqin etilganligini ko'rish mumkin.

Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqbolidagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq. Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu borada alohida ahamiyat kasb etadigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o'zaro bog'liqligini ifodalaydi va oxir-oqibat, ularning unifikatsiyalashuviga olib keladi. Bunda o'ziga xos siyosiy munosabatlar ko'lamiga ko'ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bir tarmoqqa ulanib ketishi kuzatiladi. Bu jarayonda milliy davlatchilik suverenitetiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan bir qancha holatlar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchi, jahon siyosiy sahnasida transmilliy korporatsiyalar, nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar, xalqaro kapital kabi yangi qudratli siyosiy subyektlar shakllanmoqda. Ular siyosatning an'anaviy subyektini - milliy davlatchilik suverenitetining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchi, globallashuv xalqaro huquq asoslariga sezilarli ravishda ta'sir etyapti. Bu esa davlatlarning o'z hududida huquqiy suverenitetidan qisman ayrilishiga olib kelmoqda. Natijada milliy davlatlarning nafaqat tashqi, balki ichki siyosiy masalalarini mustaqil echish imkoniyatlari chegaralanmoqda. Ma'lum bir davlatning ichki siyosatini tashkil etadigan muammo (ichki ixtilof, siyosiy kurash, saylov jarayonlari va boshqalar) bugungi kunga kelib, global ahamiyat kasb etib boshqa davlatlarning manfaatlariga ham daxldor bo'lib qolmoqda.

Uchinchi, kishilar ongida davlatchilik suvereniteti asosini tashkil etuvchi hududiy omil globallashuv samarasi o'laroq, o'zining an'anaviy ahamiyatini yo'qotmoqda va tabiiy ravishda davlat hokimiyati mavqeiga ham putur etmoqda. Boshqacha aytganda, milliy chegaralar tobora shaffoflashib bormoqda.

To'rtinchi, butun dunyo bo'ylab bir qator g'arb davlatlari rahnamoligida "demokratiyalashuv" jarayoni jadallashmoqda va buning natijasida ayrim davlatlarning o'ziga xos demokratik taraqqiyotiga chetdan kuchli ta'sir o'tkazilyapti. Ya'ni, bu jarayondan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga urinayotgan globalizm g'oyasi asoschilari boshqa mamlakatlarning siyosiy boshqaruv tizimini o'z qo'llariga olishga urinmoqdalar. Misol uchun, MDHga a'zo bir qator davlatlarda 2005 yilda yuz bergan "inqiloblar", siyosiy globallashuv mahsuli bo'lib, ushbu jarayon asoratlarining qanchalar xavfli ekanligidan darak

beradi. Ushbu voqealar shundan dalolat beradiki, yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar boshqa davlatlarning suvereniteti va ichki ishlariga aralashmaslik printsipini pardalangan shaklda buzmoqda. Bunda siyosiy globallashuv jarayonining yana bir mahsuli – nodavlat tashkilotlarning resurslari va nufuzidan tashkiliy niqob sifatida foydalanish dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda. Ayni shu ma'noda A.V.Buzgalin "Globallashuv siyosatga ta'siri kuchli bo'lib, havfsizlik va iqtisod sohasida davlatlarning bir-biriga tobeligini kuchaytirib, har birining jahon sahnasidagi ustuvor jihatlarining chuqur o'zgarishiga olib keladi. Tashqi siyosiy vositalar arsenaliga boshqacha nuqtai nazardan qarashga majbur qilib, jahon siyosatining tadrijiylashish jarayonining tezlashib ketishiga olib keladi", - deb yozadi.

XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o'zgardi. Islom Karimov ta'kidlaganidek, "XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. Sovuq urush davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi - o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'ymoqda".

Insoniyat – XXI asrga qadam qo'ydi. Mantiqan insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchiligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakl-u shamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz.

"Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish;

o'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar);

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;

o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o'zini-o'zi baholashga o'rgatish;

faoliyatda o'zini ko'rsatishga intilishni rag'batlantirish;

tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish.

Umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

o'smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi;

irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi;

ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarining paydo bo'lishi;

fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi;

o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlar;

ma'naviy-axloqiy prinsiplarning qat'iylashuvi;

ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo'lishi;

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o’smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo’llanmalar majmuasini yaratish;

davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlari va rejalari asosida o’quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish.

I - XI sinflar uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg’usi”, “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan to’garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani o’qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

O’qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan “Fazilatli avlod” va boshqa metodik qo’llanmalarni ishlab chiqish.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida buyuk ma’rifatparvar siymolar merosini targ’ib etishga qaratilgan “O’n ikki oy - o’n ikki alloma” kitobxonlik oyliklarini tashkil etish.

Hozir O‘zbekistonda Jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning , ayniqsa yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqlol mafkurasi asosida tarbiyalash, o‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosi, qadriyatlarini, an’analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. a’lumki, O‘zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o‘zining dinga munosabatini aniq va qat’iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati “Inson e’tiqodsiz yashay olmaydi”, “Dunyoviylik – dahriylik emas” degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiya hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonunda o‘zining huquqiy ifodasini topgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoii jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasidir. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.

Diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat’i nazar, faoliyat borasida bir xil huquqqa egadirlar. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag’rikenglikning amaliy ifodasidir.

Ayniqsa, respublikada mavjud dinlar orasida islomning mavqei nihoyatda katta. Xususan, hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining soni 31 mln.dan oshgan bo‘lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e’tiqod qiladi. Shu bois, islom dini davlatimiz tub xalqlarining tarixiga, o‘tmish merosiga, madaniyatiga, ruhiyatiga chuqur singib ketgan. Prezident I.A.Karimov ta’kidlagani kabi: “... biz o‘z millatimizni mana shu dindan ayrim holda aslo tasavvur qila olmaymiz... Xalqimizning ming yillik tarixini,

bugungi ma'naviy hayotini, dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab aytish mumkinki, Alloh bizning qalbimizda, yuragimizda". Islom dini qadriyatlari mamlakatimizdagi ro'y berayotgan ma'naviy yangilanish jarayoni va milliy g'oya mezoni shakllanishining eng muhim omillaridan biridir.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Afsuski, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, geosiyosiy maqsadlarga bo'ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko'payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko'plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda.

So'nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iroq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda. Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, turli to'qnashuvlar natijasida arab mamlakatlari iqtisodiyoti 2011-2014 yillar oralig'ida 800 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan. Qonli fojearlar tufayli ushbu davlatlar yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari keskin pasaygan, ishsizlik darajasi deyarli ommaviy tus olgan.

Eng dahshatlisi, hozirgi kunda Iroq va suriya davlatlari hududida qariyb 8,5 million kishi terrorchi guruhlar to'liq nazorat o'rnatgan hududda, har qanday fuqaroviy huquq va erkinliklardan marhum bo'lgan holda kun kechirishga majbur bo'lmoqda. Terrorchilar ushbu mamlakatlarda ommaviy qatl, garovdagilarni qiynab o'ldirish, xotin-qizlarni ayollarni zo'rlash yoki ularni qul qilib sotish kabi jirkanch va qabih ishlarga qul urib, o'zlarini e'tiqodi puch, imonsiz kimsalar ekanliklarini namoyon etmoqda. Yuzlab ziyoratgohlar, shia musulmonlarining masjidlari, xristianlarning cherkov va monastirlari, maktab va kutubxonalar vayron qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga "IShID (Iroq va Shom islom davlati)", "Jabha an-Nusra", "Ansaru ash-Sham" (Suriya), "al-Qoida", "al-Jihod al-Islomiy", "at-Takfir va-l-Hijra" (Misr), "Abu Sayyaf" (Filippin), "Ozod Achex", "Lashkari jihod" (Indoneziya), "Qurolli islomiy harakat" (Jazoir), "Boko haram" (Nigeriya), "Islom jihodi uyushmasi", "O'zbekiston islomiy harakati" Tolbion (Afg'oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda. So'nggi

yillarda “jihodchilar”, soxta “salafiylar” kabi diniy-siyosiy guruhlar, shuningdek, “Xizbut tahrir” diniy-ekstremistik guruhi respublikamizda faol harakat qilishga urinmoqdalar.

So'nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, “Internet” orqali targ'ibot o'tkazish, oila a'zolari, yaqinlari va qo'shnilarini o'z guruhiga tortish, yashirin “hujralar” tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko'rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarining fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Ayniqsa, “jihodchi” guruhlar o'z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Turli internet saytlari, “Odnoklasnik”, “Twitter” kabi ijtimoiy saytlarda tashkil etilgan turli nomlardagi forum va guruhlar, “You Tube” portalidan keng foydalanilmoqda. Mazkur guruhlarining targ'ibotchilari ko'p vaqtini internetda o'tkazuvchi, vaqtincha ishsiz, xorijda pul topish ilinjida yurgan va ijtimoiy holatdan norozi shaxslarni o'z saflariga qo'shish maqsadida ular bilan go'yoki “musulmonlarning azoblanayotgani” suhbatlar olib boradilar.

So'ngra islom olamidagi “muammolar” sanab o'tilib, aybdorlar sifatida dunyoviy davlat va jamiyat ko'rsatiladi. Bundan keyin esa barcha muammolarning “yechimi” sifatida “kofirlarga” qarshi “jihod” qilish taklif etiladi. Buning uchun esa avvalambor “hijrat” qilish lozimligi uqtiriladi. Bilimsiz, o'z mustaqil fikri va atrofdagi hodisalarni tahlil etish malakasiga ega bo'lmagan yoshlar bunday da'vatlarga uchib, aqidaparast oqimlarga moyil bo'la boshlaydilar. Qisqa qilib aytganda “ijtimoiy tarmoqlar” “ekstremistik qarmoqlar” vazifasini o'tamoqda. Aslida esa, yoshlarni o'z safiga chorlayotgan, o'zini “mujohid” deb tanitayotgan kimsalar tinch aholini qatl etmoqda, ayol-qizlarni xo'rlab, nomuslariga tajovuz qilmoqda. Norasida bolalarni o'ldirmoqda. Islomning beshinchi arkoni bo'lgan haj amalini bajarishga borayotganlarni “toshga sig'inuvchilar” deb e'lon qilib, ularga tahdid qilmoqda. Dinimiz qiblasini bo'lgan muqaddas Baytullohni vayron qilishga va'da bermoqda. Uy-joylar, maktab va kutubxonalar, qishlog'u-shaharlarni buzib, mo'ysafid otaxon, mushipar onalar, norasida go'daklarni ko'chalarda sargardon qilmoqda.

Ming taassufki, bizning yurtimizdan ham ayrim yoshlar ota-onasini qon yig'latib Suriya, Iroq kabi fitna o'choqlariga ketib qolmoqdalar. U yerlarda diydasi qotgan jallodlarga aylangan bu johillar yurtiga qurol o'qtalib o'z xalqi, ota-onasi va dindoshlariga tahdid bilan dag'dag'a qilishdek tubanlikka yuz tutyaptilar.

Aqidaparastlik jamiyatimizdagi fuqarolarni “haqiqiy” va “soxta” dindorlarga ajratishi bilan ham tahdid solmoqda. Bunday harakatlarning oddiy misollari sifatida go’yoki islomiy libos deb ilgari surilayotgan “hijob” masalasiga haddan tashqari urg’u berish, dunyoviy hayot kechiruvchi fuqarolarni go’yoki “imoni sust” sifatida ko’rishni qayd etish mumkin. Ta’kidlash joizki, bunday fitna chiqarishlar qanday oqibatlarga olib kelishi Afg’oniston, Pokiston va Jazoirda sodir bo’lgan hamda hozirda Iroq va Suriya davlatlarida yuz berayotgan voqealardan bizga ma’lum. Barcha buyumlarni “halol” va “harom”ga ajratishda g’uluvga ketish oqibatida ba’zi qo’shni mamlakatlarimizda hattoki “halol taksi” chiqqanini qanday izohlash mumkin? Vaholanki, islom dini o’rtalik, mo’adillikka chaqiradi.

Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy-ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o’ylangan strategiyaning bir qismidir. Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazlari, ta’bir joiz bo’lsa, “g’oyaviy laboratoriya”lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim.

Birinchi guruh qatoriga “Tablig’chilar” jamoasi tashkilotini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhlar qatoriga “Nurchilar”, “Hizbut-tahrir” kabi diniy-ekstremistik tashkilotlarni kiritish mumkin. Uchinchi guruhga esa barcha jihodiy, soxta “salafiy” jamoalar kiradi.

Ayni vaqtda, bunday materiallar bilan huquqni muxofaza qiluvchi idoralari xodimlari tomonidan qo’lgan olinganlar ichida endi voyaga yetgan o’smirlar mavjud ekani bizdan alohida e’tibor talab qiladi.

Shu nuqtai-nazardan, mustaqil hayotni boshlayotgan yoshlarimizni turmushda ularni og’ir sinovlar kutib turayotgani, xususan, bizning yurtimiz, xalqimizga do’st bo’lmagan, soxta g’oyalar bilan hali hayotiy tajribaga ega bo’lmagan o’smirlarimizni oilasi va Vatanidan ayirib olib, o’z manfaatlari yo’lida qurbon qilishdek g’araz maqsadlar ega kuchlar borligidan ogohlantirishimiz biz kattalarning, ayniqsa, diniy soha vakillarining burchimiz hisoblanadi.

Diniy-ekstremistik oqimlarning jamiyatimiz barqarorligiga tahdidi respublikamizdagi ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish, fuqarlarni, ayniqsa, yoshlarni qurolli to’qnashuvlar ro’y berayotgan hududlarda faoliyat yuritayotgan terroristik guruhlarga jalb qilish kabi harakatlarda, shuningdek, mamlakatimizda terrorchilik harakatlari sodir etish uchun suqilib kirishga urinishlarda namoyon bo’lmoqda. Yuqorida qayd etilgan holatlar hushyorlikni qo’ldan boy bermaslik, hamisha ogoh bo’lib yashash zaruratini yana bir marta ko’rsatmoqda. Bu esa o’z navbatida, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro maydonda ko’p va ikki yoqlama hamkorlikni kuchaytirish, BMT, Shanhay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning faoliyatini samaradorligini oshirish masalasini qat’iy qilib kun tartibiga qo’ymoqda.

Ma’lumki, O’zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan.

Hozirda O'zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida "uch yovuz kuch", ya'ni "terrorchilik", "ayirmachilik" (separatizm) va "ekstremizm"ga qarshi kurashda xamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004 yildan beri Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston AQSh, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O'z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishini oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta'sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi.

Hozirgi kunda respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga zid ravishda konstitutsion tuzumga qarshi guruhlarning faoliyatini aniqlaydi va ularga chek qo'yadi.

Ta'kidlash joizki, DEO a'zolari diniy e'tiqodi yoki dunyoqarashi uchun emas, balki O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi yoki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi va boshqa qonunlarimizda aniq belgilangan jinoiy ishlarni sodir etgani va qonunbuzarligi uchun jazoga tortiladi. Aldanib oqimga kirib qolgan shaxs o'z vaqtida xatosini anglab yetib, pushaymon bo'lsa va jinoyatni ochishga yordam bersa, Jinoyat Kodeksining 244-2 moddasiga ko'ra javobgarlikdan ozod etiladi.

Jamiyat OAV, ma'naviyat yo'nalishda faoliyat yuritadigan tuzilmalar, jamoat va diniy tashkilotlar orqali fuqarolarni aqidaparast g'oyalarning ta'siriga tushib qolishini oldini olishga qaratilgan profilaktik va tushuntirish ishlarini amalga oshiradi.

Hossatan, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat targ'iboti markazi davlat idoralari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda har yili diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yo'nalishida dastur asosida tizimli faoliyat yuritmoqdalar. Targ'ibot va tushuntirish ishlari OAV, Internet, tele- va radiodasturlardagi chiqishlar, o'quv muassasalari, mahalla fuqaro yig'inlari, turli tashkilot va korxonalarda ma'rifiy tadbirlar o'tkazish shakllarida amalga oshirilmoqda.

Olimlar va ulamolarimiz, soha mutaxassisleri tomonidan aqidaparastlikning turli ko'rinishlarini fosh etuvchi qo'llanmalar nashr etilib, aholining keng qatlamlari ichida tarqatilmogda.

Ulamolarimiz juma ma'ruzalarida, chegara hududlarda davriy ravishda tashkil etilayotgan uchrashuvlarda mutaassib da'vatchilarning soxta da'volarini dalillar bilan fosh etib, aholini, ayniqsa, yoshlarni aldovlarga uchmaslikka chaqirmoqdalar.

Jumladan, joriy yilning o'tgan davri ichida Din ishlari bo'yicha qo'mita O'MI, TIU, "Mahalla" xayriya jamoat fondi va o'quv muassasalari bilan hamkorlikda 200 dan ziyod ma'rifiy tadbirlar tashkil etdi. DIQ, TIU, O'MI internet saytlariga mavzuga oid yuzdan ziyod maqolalar joylashtirildi.

Shu bilan birga, diniy-ekstremistik guruhlar, jihodiy jamoa va ularning da'vatchilari tomonidan olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarining tobora kengayib borayotgani respublikamizdagi davlat va jamoat tashkilotlarining aksiltarg'ibot ishlarini faollashtirishi, ularni yangi, ta'sirchan va ommabop usul va shakllarni amalga oshirishni taqazo etmoqda.

So'nggi vaqtda qo'ni Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, Tolibon harakati va mazkur mamlakatdagi boshqa terrorchi guruhlarining Markaziy Osiyo respublikalariga chegaradosh hududlarda to'planayotgani haqidagi ma'lumotlar bizni yanada hushyor bo'lishimiz lozim ekanidan dalolat bermoqda.

Davlatimiz Rahbari tomonidan jamiyatimizning ma'naviyatini yuksaltirish, aholini yot va soxta diniy g'oyalar ta'siridan saqlash, hushyorlik va ogohlikni da'vat etishda diniy soha xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuksak baholanganiga barchamiz guvohmiz. Mazkur e'tirof diniy soxa xodimlarini jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni avaylab-asrash yo'lida yanada fidokorona faoliyat yuritishlariga undaydi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, shuningdek, yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy va diniy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, turli diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashni yanada faollashtirish hamda yoshlarni yot g'oyalarga qo'shib ketishining oldini olish maqsadida diniy soha xodimlari quyidagilarga ahamiyat qaratishi zarur hisoblanadi:

- joylarda fuqarolar ichida din bilan bog'liq jarayonlardan doimiy ravishda boxabar bo'lib yurish, vaziyatning barqarorligini ta'minlash bo'yicha mutasaddi tashkilot va idoralar bilan amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash;

- o'quv muassasalari, mahalla yig'inlari, korxonalar va tashkilotlarda yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ta'sirchanligini oshirish;

- ta'lim muassasalarida «Tinchlik eng oliy ne'mat», «Islomda ekstremizm va terrorizmga o'rin yo'q», «Diniy-ekstremistik oqimlar – davlat va jamiyatga tahdid» kabi mavzularda davra suhbatlari va seminar-mashg'ulotlar son va sifatini oshirish, tadbirlarda diniy ekstremistik va terroristik guruhlarining asl qiyofasini fosh etuvchi, jinoyatlari aks etgan videotasvirlardan foydalanish;

- joylarda masjid va alohida uylarda(hujralarda) noqonuniy diniy ta'lim berish holatlariga barham berish yuzasidan tushuntirish ishlari tizimli o'tkazish;

- mahalliy OAVda diniy ekstremizm va missionerlik g'oyalari jamiyatga tahdidi haqida davra suhbatlarida ishtirok etish, xalqaro terrorizm hamda diniy ekstremizm g'oyalari zahirida g'arazli geosiyosiy maqsadlar yotganligi, aqidaparastlar islomni buzib talqin qilishlarini asosli tarzda fosh etuvchi chiqishlarni ko'paytirish;

- Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Toshkent islom instituti, Imom Buxoriy xalqaro markazi, O'Mining joylardagi

vakilliklarining internet saytlariga sof islom ta'limotlarini yoritishga bag'ishlangan hamda turli norasmiy, g'arazli oqimlar tomonidan da'vo qilinayotgan g'oyalarga (xususan, mazhabsizlik, takfir, hijrat, jihod) haqqoniy ilmiy raddiya mazmunidagi maqolalarni muntazam berib borish;

- mahallalarda hushyorlik va ogohlikni ta'minlash, yoshlarning tarbiyasida oila ma'suliyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar uyushtirish va bu kabi ishlarda faol ishtirok etish, mehnat migrantlari bilan ularni jihodiy jamoalar ta'siriga tushib qolishi oldini olishga qaratilgan suhbatlarda ishtirok etish;

- hokimiyat, korxonalar, tashkilot, "Mahalla" va "Nuroni" jamg'armalari bilan hamkorlikda xayriya faoliyatini kuchaytirish orqali ekstremistlar uchun «faoliyat maydonini» toraytirish va yo'qqa chiqarishga alohida e'tibor qaratish;

- diniy-ekstremistik oqimlar tarkibida sodir etgan jinoyati uchun jazo o'tagan, hozirda tuzalish yo'liga kirgan va amnistiya tufayli ozodlikka chiqqan shaxslar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda qatnashish, ularga aqidaparastlikning asl mohiyati va zararli oqibatlarini tushuntirish bilan ijobiy ta'sir o'tkazishga urg'u berish.

Tinchlikni asrash hushyorlik va ogohlikni talab qiladi. Shu nuqtai-nazardan, globallashtirish jarayonlari shiddatli tus olgan hozirgi zamonda xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda milliy g'urur, iftixor, tuyg'usini, yanada chuqurroq shakllantirish, yot g'oyalardan saqlovchi mafkuraviy immunitet shakllantirish O'zbekistonda buyuk Vanatimiz kelajagiga o'zini ma'sul hisoblovchi barcha yurtdoshlarimizning, shu jumladan, diniy soha xodimlarining muhim vazifasi bo'lib qoladi.

7-MAVZU: Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi na'munalari, tarixiy bitiklar, sharq allomalari merosi, diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanish.

Reja:

1. Xalq og'zaki ijodi turlari.
2. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish.
3. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.
4. Sharq allomalari merosida inson falsafasi masalalari.
5. Dars jarayonlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

1. Xalq og'zaki ijodi turlari. Inson qadimdan atrof muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakadar, ovozlari, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar his-tuyg'ulami ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiydilar. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni "xalq og'zaki ijodi" deb atashga odatlanganmiz.

Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlari, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga,

To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari - hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan tungi "folklor" deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. Biz - so'z san'ati sirlarini o'rganuvchi sohada ish yuritganimiz uchun maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo'shiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib olamiz, tahlil qilamiz. "Folklor" atamasini talaffuz qilganimizda xalq og'zaki ijodini tushunamiz. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Folklorshunoslik hozirgi paytda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Badiiy adabiyot xalq og'zaki ijodidan boshlanadi. Binobarin, adabiyot tarixining birinchi qismini folklor tashkil etadi. Shuning uchun filologiya fakulteti talabalari mutaxassis sifatida shakllanish jarayonini xalq og'zaki ijodini o'rganishdan boshlaydilar.

Har bir fan, sohaning muhim nazariy masalalari bo'ladi. Badiiy adabiyotni o'rganuvchi fan adabiyotshunoslik deb ataladi. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasini folklorshunoslik deyiladi. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblansa-da, o'rgansh obyekt badiiy adabiyot bo'lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlari bor. Xususan, janrlar masalasi adabiyotshunoslik uchun ham, folklorshunoslik uchun ham muhim hisoblanadi. Faqat adabiyotshunoslikda yozma adabiyot vakillari qalamiga mansub g'azal, ruboiy, doston, noma kabi (mumtoz adabiyot); she'r, hikoya, roman, drama kabilar (zamonaviy adabiyot)ning janr xususiyatlari o'rganiladi. Folklorshunoslikda esa xalq og'zaki adabiyotidagi maqol, ertak, doston kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi. Ammo qaysi shaklda yaratilgan adabiyot ekanidan qat'i nazar har bir yo'nalishdagi yutuqlar va kashfiyotlar adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo'shilgan hissa sifatida baholanaveradi. Avvalo, badiiy asarlar yaratilish jinsi yoki turiga ko'ra uch xil bo'lishini esga olaylik.

Umuman olganda, jahon adabiyotida uchta jinsning mavjudligi (epos, lirika, drama) qayd etilgan, tan olingan. Janr deganda, ana shu uchta jinsdagi asorlar tarkibini tashkil qiluvchi kichik turlar tushuniladi. Masalan, yozma adabiyotda epik asarlar turini roman, qissa, hikoya janrlari, og'zaki adabiyotda ertak, doston, latifalar tashkil etadi. Ya'ni jins nomi saqlanishi, tarkibi esa asar yaratilish usuliga ko'ra (og'zaki yoki yozma) boshqa-boshqa janrlardan iborat bo'lishi mumkin.

Epos - yunoncha "epos" - rivoya, hikoya, qo'shiq so'zidan iborat bo'lib, badiiy adabiyotda voqea, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash manosi anglatadi. Ta'rifdagi "qo'shiq" so'ziga ajablanish kerak emas,

chunki qadimgi yunonlar nazarda tutgan qo'shiqlar so'zning hozirgi paytda tushunilishidan farqli ravishda voqea-hodisani bayon qilish xususiyatiga ega edi. Badiiy adabiyotdagi epik jinsda biron voqea badiiy so'z vositasida hikoya qilinadi. Xalq og'zaki ijodida bunday jinsga mansub janrlar afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, ayrim termalar, latifa, loflardan iboratdir. Mazkur nazariy masalani ilmiy asosda o'rgangan olim Bahodir Sarimsoqov avval qayd etilgan uch jins qatoriga to'rtinchisini ham qo'shgan va "maxsus tur" deb atagan. Bu tur tarkibini: "oddiy o'tirish olqishlari, qarg'ish, so'kish, maqol, matal, topishmoq va boshqa xildagi yumuq iboralar"³, - deb belgilagan. Haqiqatan ham, qayd etilgan janrlarda bir tomondan muayyan vaziyat, voqea-hodisa haqida tasavvur hosil qilish uchun aniq ma'lumot, axborot mavjud bo'lishiga qaramay, aytilgan matnning hajm jihatdan o'ta ixchamligi alohida ko'zga tashlanadi.

Taniqli folklorshunos olimlardan V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov o'zbek xalq og'zaki ijodidagi dostonlarni "qahramonlik eposi" deb ataganlar. 1947 yilda Moskvada e'lon qilingan katta hajmdagi kitobni "O'zbek xalq qahramonlik eposi" deb ataganlar va unda "Alpomish", Go'ro'g'li turkumiga oid dostonlar, "Kuntug'mish" kabi ishqiy-romanik dostonlar tahlil etilgan.

Lirika - lira deb atalgan qadimgi yunon musiqa asbobining nomidan olingan bo'lib, badiiy adabiyotda inson his-tuyg'usini, ichki kechinmalarini ifodalovchi asarlar nazarda tutiladi. Ma'lumki, hayotda turli voqea-hodisalar ro'y beradi. Lirik asarlarda ana shu turmush lahzalari ta'sirida shaxs qalbida paydo bo'lgan kechinmalar ifodalanadi. Ana shu xususiyati bilan lirika eposdan farqlanadi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo'lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan ichki munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarning namoyon bo'lishini izohlaydi. Shuning uchun lirik asarlarda aks etgan voqea bayonini aynan emas, nisbiy tushunish lozim. Masalan, "Alpomish" dostoni "Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi. Kichkinasining otini Boysari qo'ydi", - deb boshlanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, Fozil Yo'ldosh o'g'li tinglovchiga aytilajak asardagi voqealar qanday boshlangani yuzasidan ma'lumot bermoqchi. Matnda baxshi Qo'ng'iro't, Dobonbiy, Alpinbiylar bilan tinglovchini tanishtirmoqda. Aslini olganda, dostonning to'liq mazmuni ana shunday xabarlar tizimidan iborat. Endi lirik qo'shiqdan bir namuna keltiraylik:

"Tolga chiqib tol bo'ldim,
Tusholmay behol bo'ldim.
O'z tengimning ichida
Muncha betole bo'ldim"⁴.

Qo'shiq aytayotgan qizmi, yigitmi tolga chiqqani, tushgani haqida xabar berayotgandek tuyiladi. Vaholanki, uning maqsadi bizga qilgan harakatini aytish emas, balki o'z tengini topa olmay qalban iztirob chekayotganini izhor qilishdir. Tol esa shunchaki bir vosita, xolos. Odatda, qo'shiqlarning dastlabki misralari,

³ Саримсоков Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави / Ўзбек фольклори очерклари китобида. 1-том. - Т.: Фан, 1988. - Б 66.

⁴ Оқ олма, қизил олма. Қўшиқлар. - Т., 1972. - Б. 86.

ko'pincha, tinglovchini chalg'itish yoki nimanidir ifodalash maqsadida to'qiladi. Asosiy maqsad oxirgi misrada, ba'zan 3-4-misralarda ifodalanadi.

Yana bir qo'shiq matniga murojaat qilaylik:

Dayrani ul yuzidan sel keladi,

Sel bilan ikki o'rdak teng keladi.

O'rdakka o'rdak munosib, g'ozga g'oz,

Yigitga qayliq munosib, qizga noz.

Bu qo'shiqda daryodan toshib kelayotgan sel, sel bilan teng uchayotgan o'rdak, o'rdakning o'rdakka, g'ozning g'ozga munosibligi, yigitning orzu qilgan qizda noz, istig'noni ko'rish havasi borligini ifodalovchi vosita - bir bahona, xolos. Yigitning asosiy niyati o'ziga munosib deb bilgan yor tavsifi, uning o'ta andishali qiz ekanini ta'riflashdir. Shunday qilib, inson qaysi vosita bilan bo'lmasin, o'zining his-tug'usini, ichki kechinmalarini, ruhiy holatini izhor qilar ekan, lirik asar namunasi vujudga keladi. Shuning uchun ham ayrim iqtidorsiz shaxslarning ma'nosiz qofiyalar yig'indisidan iborat she'riy asarlarini lirika namunasi deb bo'lmaydi. Haqiqiy ma'nodagi lirik asar insonni loqayd qoldirmaydi, unga ma'naviy huzur bag'ishlaydi, estetik rohat beradi.

Xalq og'zaki ijodidagi har bir lirik qo'shiq qachonlardir dil so'zlarini aytish bilan ruhiy olamidagi o'zgarishlarni bildirmoqchi bo'lgan yigit-qizlarning qalb daftaridagi muhrlangan misralardan iborat. Hatto bolalar folkloriga mansub allalarni olasizmi, "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga" qo'shiqlarini olasizmi, lirik asarlar talabiga javob berishi shart deb hisoblash kerak.

Xullas, lirik qo'shiqlar asrlar davomida xalq og'zaki ijodidagi qalb izhorini ifodalovchi asosiy janr sifatida yashab kelgan so'z durdonalaridir.

2. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish. Drama. Yunoncha "drama" so'zidan olingan bo'lib, harakat, tanglik, mushkullik ma'nolarini bildiradi. Badiiy adabiyotda "drama" so'zidagi harakat ma'nosi asos qilib olingan va muayyan voqea-hodisani sahnada harakat orqali ifodalash tushunchasi nazarda tutiladi. Shubhasiz, mazkur harakat orqali so'z vositasining yetakchiligini inkor qilish mumkin emas. Dramatik asarlarda vaqt, makon cheklangan bo'ladi. Voqeaning mohiyati drama ishtirokchilarining nutqlari bilan ochiladi.

Xalq og'zaki ijodida dramatik janrlarni, Bahodir Sarimsoqov fikricha, og'zaki drama, kulki - hikoya, qo'g'irchoqbozlik, askiya janrlari tashkil etadi. Bu asarlarni ijro qiluvchilar faqat og'zaki nutqlari bilangina emas, tovush tovlanishi - intonatsiya, yuz, ko'z, bosh, qo'l harakatlarini ishga solib ham obraz yaratadilar. Oqibatda, tomoshabin tinglovchilarni o'ziga jalb qiladigan teatrlashgan tomosha ko'rinishi vujudga keladi. Misol uchun Yo'ldosh A'zamov rejissyorlik qilgan "O'tkan kunlar" badiiy filmidagi Xudoyorxon va Musulmonqul qiyofalari bilan o'ynalgan qo'g'irchoqbozlikni eslashingiz mumkin. Xalq dramasi haqida yaxshiroq tushunchaga ega bolish uchun, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi "Xon ko'ngil ochmoqchi" va "Qiziqqlar"⁵ bobini o'qib chiqishingizni maslahat beramiz.

⁵ Қодирий А. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. - Т., 1992. - Б. 418-426.

Xalq dramasi qatnashchilari asar mazmunini o'zlari o'ylab topadilar. Tomoshaga yig'ilgan odamlar o'rtasida qallob qozi, jinoyatchi, jabrlanuvchi, sho'rpehona ona yoki xotin, baxtsiz ota, landovur farzand kabi rollarni bajaradilar. Uzoq o'tmishdan tortib o'tgan asming o'rtalarigacha bozorlarda, guzarlarda qiziqchilarning sahna ko'rinishlarini uyushtirishlari oddiy odat edi.

Askiya esa maxsus so'z o'yini musobaqasi tarzida to'ylarda, sayillarda, yig'inlarda o'tkazilgan. Askiyabozlar ikki, ba'zan uch-to'rt guruhga bo'linib tanlangan mavzu doirasida so'z asos bo'lgan bellashuvlarda kuch sinashganlar. Bunday anjumanlarda askiya ishtirokchilarining turgan joylari o'z-o'zidan sahnaga aylanib qolar edi. Tinglovchilar esa askiya jozibasiga mast bo'lib, qayerda o'tirganlarini ham bilmay qolar edilar. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan janrlar dramatik tur tarkibini tashkil etgan.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodidagi asarlarning jins va turlari, ulardagi janrlar tarkibi haqida umumiy fikrga ega bo'ldik. Endi mazkur janrlaming o'zaro munosabati yuzasidan eng muhim tushunchalar haqida to'xtab o'tamiz. Avvalroq qayd etganimizdek, badiiy adabiyot yaratilish usuliga ko'ra og'zaki va yozma ijoddan iborat. Og'zaki ijod yozuv madaniyati shakllanishidan ancha oldin vujudga kelgan. Ammo og'zaki ijodning o'zi paydo bo'lishida qadimgi miflammg o'mi va ahamiyati beqiyosdir. Filologiya fanlari doktori, professor B.Sarimsoqovning chuqur ilmiy tadqiqotida mif xalq og'zaki ijodi asosini tashkil etadi⁶. Mif badiiy ijod turiga kirmaydi. Chunki unda badiiylik darajasi nihoyatda past bosqichda namoyon bo'ladi. Binobarin, mif xalq og'zaki ijodi tarkibidan o'rin ololmaydi. Lekin og'zaki ijod asarlarining shakllanishida diffusion jarayon amalga oshgan. Diffuziya - lotincha "diffusion" - so'zidan olingan bo'lib, singish, tarqalish ma'nolarini beradi. Molekulalar, atomlar, ionlar va kolloid zarralarining tartibsiz issiqlik harakati natijasida bir moddaning ikkinchi moddaga o'z-o'zidan o'tishi, birining ikkinchisiga "singib ketishi". Qarangki, aniq fanlardagi diffuzion jarayon mifdan xalq og'zaki ijodi janrlarining paydo bo'lishida bosh omil bo'lgan ekan. Xususan, B.Sarimsoqov shunday yozadi: "Folkloristikada diffuziya termini biror janr, motiv yoki obrazning ikkinchi bir janr, motiv yoki obrazga kirib borishi, singishi natijasida ulaming tabiatida sodir bo'ladigan struktural, semantik hamda funksional o'zgarishlarga nisbatan qo'llaniladi"⁷. Soddarog qilib aytganda, mifdan voqea tasviri, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi murosasiz kurash, obrazning dastlabki elementlari tarkibida asta-sekin afsona; afsona tarkibida ertak; ertak rivoji natijasida doston janrlarining shakllanishi va alohida janr sifatida mustaqil taraqqiy etishini og'zaki ijoddagi diffuziya jarayoni bilan izohlash mumkin bo'ladi. Taniqli folklorshunos olimlar V.Ya.Propp, E.M.Meletinskiy, Z.P.Sokolova xalq ertaklari bevosita mifdan vujudga kelganligini to'liq tasdiqlaganlar.

Taxmin qilish mumkinki, diffuziya tizimi asosida xalq og'zaki ijodidagi yirik hajmdagi epik asarlar shakllangan. Lirik janr qo'shiq, maqol, matal, topishmoq va boshqa kichik janrlar og'zaki ijodning badiiy ijod sifatida

⁶ Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981.-Б . 97-148.

⁷ Ўша жойда. - Б. 99.

shakllanishi jarayonida asta-sekinlik bilan paydo bo'lgan. Maqol va topishmoqlar janri yuzasidan ma'lumot berganimizda, ertak va dostonlardan parcha keltirish bejiz emas. Bugungi kunda har bir asar mustaqil janr namunasi sifatiga ega bo'lsa ham, umuman, og'zaki ijodimiz asarlari matni bilan tanishganimiz sari janrlar o'rtasidagi aloqalar qanchalar uzviy ekaniga ishonch hosil qilib boramiz.

Z.Husainova maqol va topishmoq o'rtasidagi yaqinlik haqida to'xtab shunday deydi: Topishmoq ma'no va aytilishi jihatdan maqol bo'lib kelishi mumkin. Bunday maqollar dastlab topishmoq tarzida vujudga kelib, keyinchalik maqolga aylangan. Til haqidagi:

Birovni suydirar,
Birovni kuydirar.

Asaldan shirin,
Zahardan achchiq
topishmoqlari
Suydirgan ham til,
Kuydirgan ham til.

Shirin so'z - shakar,
Achchiq so'z - zahar

shaklida maqol sifatida qo'laniladi"⁸. Olima bolalar qo'shig'i topishmoq bo'lib kelishi mumkinligini aytib misol keltiradi:

Yomg'ir yog'aloq,
Tarvuz yumaloq,
Jaladan qo'rqmas,
Laqqa baqaloq⁹.

Janrlar o'rtasidagi yaqin aloqani bir asaming doston va ertak variant borligidan bilsa ham bo'ladi. Jumladan, "Tohir va Zuhra"ning doston va ertak variantlari mashhur. Qizig'i shundaki, ertakdan Tohir va Zuhraning qo'shiq tarzidagi aytishuvi ham o'rin olgan:

Tohir:

Suv kelar axta-axta,
Sandig'im temir taxta,
Sendan boshqa yor qilsam,
Qon yutay laxta-laxta.

Zuhra:

Suv kelar tosh ustida,
Ro'molim qosh ustida.
Tohir esimga tushsa,
Yig'layman osh ustida¹⁰.

Dostonlarning xalq qo'shiqlari bilan uzviy aloqasini "Alpomish" dostonida aniq ko'rish mumkin. Hakimbek Barchin bilan Ultontoz to'yi kuni yurtiga qaytib

⁸ Хусаинова З. Топишмоқлар. Ўзбек фольклори очерклари. - Т., Фан, 1988. - Б. 110-111.

⁹ Ўша жойда. - Б. 113.

¹⁰ Ойжамол. Ҳаётин эртаклар. - Т., 1969. - Б. 63.

keladi va to'ya Qultoy qiyofasida qatnashadi. Shunda u avval Bodombekach bilan, keyin Barchin bilan yor-yor aytishadi:

“Qultoy”:

Oy Barchinim yor-yor,
Gul Barchinim yor-yor,
Aqling bo'lsa, o'yla-da,
Bil Barchinim yor-yor.

Ultontozga tekkancha,
O'1, Barchinim yor-yor.

Barchin:

Uy demayin qaynag' a,
Buy deysana, yor-yor,
Bulbul qo' nar to'qayning
Jiydasina yor-yor.
Ultontozga tekkancha,
Qora yerga teg deysana yor-yor¹¹.

Doston va ertaklardagi tasviriy mushtaraklik ham alohida tadqiqot yuritishga arziydigan mavzudir. Qahramonlarning tashqi qiyofasi, qiz-malikalarning go'zalligi tavsifi shu qadar o'xshash tasvirlanadiki, ba'zan matni o'qiyotganimizda asar doston yoki ertak ekanini unutib qo'yamiz. Masalan, “Malika ayyor” dostonida Shozargar vaziyat taqozosi bilan sichqonga, uzukka, tishi olmos kalamushga, boshi olmos o'q ilonga, va nihoyat, kal qiyofasidagi qimorbozga aylanadi. Dostonining bu sahifalari ko'proq ertaklardagi transfiguratsiya (bir qiyofadan boshqa qiyofaga o'tish) usulini eslatadi.

Bundan tashqari afsona, rivoyat, ertak, doston matnlarida o'nlab maqollarning qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. “Alpomish” dostonining o'zida:

Sulton suyagini xo'rlamas.
G'amli qulning o'ylaydigan o'yi bor.
Kuchuk bosmas yo'lbars, sheming izini,
Esi bor biladi gapning tuzini.
O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga.
Do'stga zor aylama, dushmanlarga xor.
Elakka borgan xotinning ellik og'iz gapi bor.

kabi bir qator maqol, matal, hikmatli so'zlar asar matnini bezab turibdi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari, ularning tarkibi, avvalo, ularning jins, tur, janrlarga bo'linishidan tashqari bir butun meros ekanini tasdiqlaydi. Janrlararo yaqinlik og'zaki ijodning asrlar davomida dunyoqarashi jihatidan yaqin ijodkorlarning iqtidori mahsuli natijasi sifatida baholanishi mumkin. Og'zaki asar qaysi janrga taalluqli ekanidan qat'i nazar yosh avlodning barkamol farzand bo'lib yetishishini ta'minlash maqsadini amalga oshirishda xalq xizmatida bo'lgan.

3. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari. Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat

¹¹ Алпомиш. Достон. - Т.: Шарқ НМАК, 1998. - Б. 381.

qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini ezozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o'rgatish oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan. Ulug' mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avlodan-avlodga meros bo'lib o'tishini sinchkovlik bilan o'rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan. O'z-o'zidan ravshanki, serqirra faoliyat murakkab mehnatni, chuqur bilimni talab qilish barobarida hunarmand ustalar orasida ixtirochilikning keng tarqalishiga zamin yaratgan.

Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini ezozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o'rgatish oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan. Ulug' mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avlodan-avlodga meros bo'lib o'tishini sinchkovlik bilan o'rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan. O'z-o'zidan ravshanki, serqirra faoliyat murakkab mehnatni, chuqur bilimni talab qilish barobarida hunarmand ustalar orasida ixtirochilikning keng tarqalishiga zamin yaratgan.

- Mahmud Qoshg'ariy - Devoni lug'atit turk asarida - Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so'zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o'rganib, amalga oshir, deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e'zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Sohibqiron Amir Temur o'z saltanatida yirik mehnat taqsimoti negizida mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan hunarmandchilik – to'qimachilik, yog'och va tosh o'ymakorligi, gilam to'qish, sopol, metall buyumlar tayyorlash kabi sohalarni yanada rivojlantirishga hamda dehqonchilik, chorvachilik va savdoga katta ahamiyat qaratgan. Shu sababli ijtimoiy hayotda yangidan-yangi kasb-hunarlarining paydo bo'lishiga imkoniyat yaratilgan, ommaviy ishsizlikka yo'l ko'yilmagan. Ajdodlarimiz o'z asarlarida yoshlarning kasbiy mehnat ta'limi va tarbiyasiga juda katta etibor berganlar. Ular kasb-hunar ta'limiga talim va tarbiyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida yondashganlar va uni aqliy, jismoniy va manaviy tarbiya bilan birga olib borish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarga qobiliyatlarini va moyilliklarini hisobga olib, jiddiy o'ylab mehnat turini tanlash to'g'risidagi pand va nasihatlarini ko'rish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiy ta'lim oluvchilarning individual, o'ziga xos qobiliyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlab, - Insonlar tabiatan teng bo'lsalar ham, ammo ularga turli fazilatlar berilgan, deydi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, buyuk allomalar va mutafakkirlar kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, pedagogik-psixologik jihatlariga, ota-ona, maktabning roli, kasb tanlashda yosh avlodning hayot, mehnat yo'lini mustaqil tanlashiga alohida e'tibor bilan qarashgan. Bolani hunarga yo'llashda uning qiziqish, moyilligi, qobiliyatini

o'rganish, bunday holatda ularning onglilik, izchillik va vorisiylik, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini qayd etgan.

Xullas, bu kabi misollar ajdodlarimizning kasb tanlash nazariyasini shakllantirishga munosib hissa qo'shganidan dalolat beradi. Umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish jarayonida ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan unumli foydalanish ijobiy samara berishi shubhasizdir.

Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga tariximizdan ko'p misollar keltirish mumkin. Al Farobiyning - Fozil odamlar shahri Yusuf Xos Hojibning - Qutadg'u bilig", Kaykovusning - "Qobusnoma" asari, Ahmad Yugnakiyning - "Hibatul haqoyiq", Sa'diyning - "Guliston", Jomiyning - "Bahoriston", Alisher Navoiyning - "Mahbub-ulqulub", Davoniyning - "Axloqi Jaloliy" kabi asarlarida sog'lom va barkamol insonni shakllantirish mazmuni, yo'llari, shakllari hamda usullari yoritiladi.

Shunday asarlardan biri Kaykovusning - "Qobusnoma" asaridir. Ming yilga yaqin davrlardan beri 49 xalqni ayniqsa yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo'llanma bo'lib kelayotgan - "Qobusnoma" asari hozirgi o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy kamolotga yetkazishda muhim o'rin kasb etmoqda. XII asrning 82-83 yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab - Nasihatnomasini yaratdi va uni bobosi podshoh Shamsul maoniy Qobus sharafiga - Qobusnoma deb ataydi. Bu asar juda ko'p sharq va g'arb tillariga tarjima qilingan. 1860 yilda - "Qobusnoma" asari birinchi marta buyuk o'zbek shoiri va mutaffakiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan.

Ushbu asar muqaddima va qirq to'rt bobdan iborat. Muqaddimada asarning nomlanishi va G'ilonshoh shajarasi xususida yozib, - Ey farzand, ikki tarafdin sening asling va nasabing pokdur va ulug'dur deydi. Kaykovus Qobusnoma asarida ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq ilm, ilm bilan bog'liq bo'lgan kasbhunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat. Ilm olish yo'lga kirgan toliblarga hamma vaqt parhezli va qanoatli bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish, doimo shodxurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun uni takrorlab borish, ilmda haqiqat uchun kurashish, oz so'zlab, ko'p tinglash haqida gapiriladi.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini aytib, uni mol-dunyodan ham yuqori qo'yadi. - Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa say' ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lgandan, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim, aql bila mol jam etsa bo'lur, ammo mol bilan aql o'rganib bo'lmas. Bilgil, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvda oqmas, inson odobi ham aqlning belgisi ya'ni - al adab - suratil aql deb xulosa chiqaradi.

Ma'naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishi juda ko'p mutafakkirlarning, donishmandlarning tarixiy va adabiy asarlarida yuksak mahorat-la bitilgan, hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo'lib qo'shilgan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlarda yaratilgan hadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, maqol, g'azal, ruboiy, masnaviy va boshqa ko'rinishlarda ta'lim-tarbiya va kasb-hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizning zamonamizgacha ham yetib kelgan. Bunday

yoza manbalarga VI-VII asrlarda yaratilgan Avesto, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan — Qobusnoma, Abu Nasr Forobiyning —Baxt-saodatga erishuv —Fozil odamlar sharhi asarlari, hind faylasufi Beydabo (Bedpoy) tomonidan yozilgan —Kalila va Dimna, Al-Xorazmiyning —o'g'itlari, Abu Rayhon Beruniyning «Minerologiya» asari, Yusuf Xos Xojibning —Qutadg'u bilig, Mahmud Qoshg'ariyning —Devonu-lug'otit turk, Ahmad Yugnakiyning —Hibat-ul haqoyiq, Pahlavon Mahmudning —Ruboiylari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan to'plangan —Hadislar, Lutfiyning —Gul va Navro'z, Alisher Navoiyning —Xamsa, —Mahbub-ul-qulub asarlarida, Aruz Samarqandiyning —Nodir hikoyatlari, Zahiriddin Muhammad Boburning —Boburnoma va boshqa ko'plab adabiy, tarixiy, madaniy-ma'rifiy meroslari namunalarini misol keltirish mumkin. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan —Avesto dastlab 1200 betlik hajmda Zardo'sht tomonidan yozilib, 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan(eramizdan avvalgi 548-529 yillarda qog'oz bo'lmagan), hamda ko'pgina dinlarning ma'naviy, mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qildi, davrlar o'tishi bilan, tarjima va o'girishlar natijasida qisman takomillashtirildi. - Avestoda mehnat qilish, halol kun kechirish to'g'risida shunday satrlar ko'plab keltirilgan: -Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim. Yana, - Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham, tilanchilar qatorida, yot 53 eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh eshib turajaksan, haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o'tadilar. U tarbiyaviy, ta'limiy, pandnoma ko'rinishidagi yirik asardir.

O'rta asr Sharqining buyuk allomasi Abu Nasr Forobiy o'zining qator asarlarida ilm va ta'limning muqaddasligi, xushaxloqlik, sadoqat, insoniylik, tarbiya, mehnat va kasb-hunar o'rganish to'g'risidagi falsafiy, ilmiy g'oyalarni ilgari surdi. M: uning —Risola fi-t tanbih asbob as-saodat (Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola), —Fozil odamlar shahri va boshqa asarlarida o'zining yaxshi, mukammal, baxtli jamiyat haqidagi orzularini batafsil bayon qiladi.

Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan. Barkamol inson deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan shaxs tushuniladi. Barkamol so'zining lug'aviy ma'nosi ham kamolotga erishgan, kamol topgan, bekamu-ko'st yetuk, har jihatdan to'kis, mukammal deganidir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar kechayotgan hozirgi kunlarda talabalarining milliy ma'naviy merosimiz asosida ma'naviy rivojlantirish masalalari alohida dolzarflik kasb etmoqda.

Chunki, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari merosidan foydalanish yanada samarali bo'lishiga olib keldi. Haqiqatdan ham bu ma'naviy merosimiz turli pedagogik muammolarni hal etishda, eng muhimi, ma'naviy barkamol insonni rivojlantirish va bu bilan pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ulkan imkoniyatlarga egadir.

Barkamol avlod sifatlarini shakllantirish tizimi O'zbekiston tarixi, falsafa, etika, metodika fanlari bilan o'zaro aloqada o'qitish jarayonida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Bu borada pedagogika kursini o'qitishning turli xil yo'llari, usul va vositalari ayniqsa katta imkoniyatlarga ega.

Talabalarni IX-XV asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar hayoti, ilmiy faoliyati, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalari bilan tanishtirish natijasida ular ongi va xulqida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Tadqiqot jarayonida talabalar qanday yashash, o'qish va ishlash kerakligiga namuna, o'rnak bo'la oladigan allomalarning ilg'or fikr va g'oyalari bilan tanishtirish imkoniyatlari ochib berildi; ular ongi mutafakkirlar turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda qanday faoliyat ko'rsatganligi haqidagi bilimlar bilan boyitildi; talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash haqidagi tushuncha va tasavvurlari kengaytirildi; Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya masalalarini talqin qilishda uning ustuvorligiga ishonirildi va isbotlandi; kasbiy va ma'naviy sifatlarini tarkib toptirish uchun tinimsiz mehnat hamda shaxsiy sifatlarini takomillashtirib borish zaruriyati tushuntirildi. Talabalarda o'zining buyuk yurtdoshlari, dunyo ilm-fani, jumladan Ma'naviyat asoslari fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar bilan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ldi; Vatanga muhabbat, uning tarixi, an'analari, xalq pedagogikasi xazinasiga qiziqishi orttirildi; xalqimizning buyuk allomalari merosini mustaqil ravishda yanada chuqurroq o'rganishga ishonch hosil qilindi.

Hozirgi davrda yosh avlodning intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlantirmay turib jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi. Bu borada O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy ta'limoti katta ahamiyatga ega ekanligi o'zining ilmiy isbotini topdi. Ijtimoiy fikrlar taraqqiyotida O'rta Osiyoda mutafakkirlarining ijtimoiy ta'limoti talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikr va g'oyalari o'z davri jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda keyingi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasida aql-idrok, bilim, yaratuvchilik, ijodkorlik, xulq-odob, insoniy munosabatlar, mehnatsevarlik, sog'lom turmush tarzi kabilarni tarkib toptirishda o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi asoslab berildi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida tarbiya tizimida o'ziga xos umumiylik mavjud bo'lib, bu umumiylik iymon-e'tiqod, ona-Zamin, Vatanga muhabbat, erksevarlik, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik, xulq-odob qoidalari bosh g'oya tarzida fikrlar mahsuli bo'lib, talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida mutafakkirlarimiz ijodini o'rganish asosida yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, mehnatevarlik tuyg'ulari shakllanadi.

Bu borada ta'lim-tizimiga texnologik yondoshuv, yangi pedagogik texnologiyalardan, ta'limning eng ilg'or tajribalaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari yordamida talaba yoshlarda ijobiy insoniy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan samarili foydalanish har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Sharq mutafakkirlarining asarlari yordamida yoshlarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi.

Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish yordamida yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy yetish;

- hayotni anglashga qiziqish hissini o'stirish, atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;

- Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

- Sharq mutafakkirlarining didaktik asarlari yordamida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar uyushtirish;

- O'quvchilarning ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan tashviqot targ'ibotchilik faoliyatini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish;

- Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o'quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari, mazmun, shakl va metodlar birligini ta'minlash hamda o'quvchi shaxsini kamol toptirish.

- Mutafakkirlarimiz ma'naviy merosi yordamida o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni yaratish.

4. Sharq allomalari merosida inson falsafasi masalalari. Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, shu sababli insonning qo'lidan keladigan birdan-bir ish - bu o'zini ana shu taqdirda belgilab qo'yilganidek tutish. Biroq, *Forobiy, Beruni, Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirza Bedil*, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar - *Axmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Sattorxon Abdulg'afforov* va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qo'ydilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchiga, aqliga, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar.

Yer yuzidagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqishda asosiy o'rinda turuvchi insonni o'rganishda IX-XVIII asrlarda yashagan Sharq olimlari, ayniqsa, O'rta Osiyo mutafakkirlari va shoirlarining qo'shgan hissalarini tahsinga sazovor. Biz bu o'rnida Xorazmiy, Forobiy, Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Nosir Xusrav, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad YAssaviy, Hofiz SHeroziy, Bedil, Ulug'bek, Alisher Navsiy kabi olim va shoirlarning ijodiga bir nazar tashlasak, yuqoridagi fikrimiz nechog'lik to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bunga istagancha dalil keltirish mumkin.

Bu an'ananing beshigi boshida turganlardan biri Abu Nasr Forobiy bo'lib, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining markazida insonning baxt-saodatga erishishi haqidagi g'oya turadi. Forobiy o'z aholisini baxt-saodatga etaklovchi, butun faoliyat va vazifalarining ana shu maqsadga yo'naltiruvchi shaharni eng yaxshi, fazilatli deb ataydi. Haqiqiy baxtga erishish uchun zarur bo'lgan ishlarda o'zaro yordamni maqsad qilib olgan kishilar birlashmasi mavjud bo'lgan shahar - fazilatli, ideal shahardir; baxtga erishish uchun kishilar bir-birlariga yordam beruvchi jamoa fazilatli, ideal jamoadir.

Baxtga erishish uchun barcha shaharlarda o'zaro yordam beruvchi xalq - fazilatli, etuk xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun er yuzi fazilatli, etuk bo'ladi, deb ko'rsatadi Forobiy.

Forobiy insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqiradi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi.

Forobiyning fikricha, inson o'z-o'zidan baxtli bo'la olmaydi, bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunarlarini egallashiga, bilimiga bog'liq.

Kamolotga bir kishining yolg'iz o'zi, ko'pchilikning yordamisiz erisha olmaydi. Har bir insonning tug'ma tabiatida o'zidan boshqa kishilar bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor. U kamolotga erishuvda boshqalarning ko'maklashuviga va ular bilan birlashishga muhtojdir. Mana shu o'zaro ko'maklashuv jarayonida yaxshi, go'zal insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan inson jamoalari vujudga keladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda odamlarning bir-biriga yashash va etuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Forobiyning bunday qarashlarini uning "Fozillar shahri aholisining fikrlari" asarida uchratamiz.

"Shohnoma" nomli nodir asari bilan nomi jahonga mashhur bo'lgan Abulqosim Firdavsiy insonni butun mavjudotning eng barkamoli, taraqqiyot cho'qqisi, barcha narsalarning ijodkori deb biladi.

Insondan yaxshilik, nur va ravshanlik,
Insonsiz dunyoda yo'q farovonlik¹².

Firdavsiyning fikricha, avval chor unsur - olov, suv, havo, er yaratilgan, so'ng o'simliklar, hayvonlar va oxiri eng oliy zot - inson yaralgan. Firdavsiy o'zining "Aql vasfida bir necha so'z" nomli asarida inson o'zining aql-idroki va tafakkuri, ongi bilan, boshqa mavjudotlardan ajralib turishini alohida uqtiradi. U aqlni haqiqatning o'lchovi deb biladi. Aqlning qudrati, xosiyati, ahamiyati haqida so'z yuritadi. Yazdon yaratgan eng oliy narsalar orasida aytdan a'losi, go'zali yo'qdir. Shohlar shohining tojidir ul... O'chmas va yagona haqiqat, de ani. U qalbdan g'amni va qo'rquvni haydaydigandir. U, ikki dunyoda sening ikki qo'lingdan ushlab, qo'ltiqlab yuradigandir. Sening baxting ham, g'aming ham undadir, sening foydang ham, ehtiyojning ham undadir. ...Kim o'ziga yo'l ko'rsatkich qilib uni olmasa, u odam o'zining harakatlari bilan o'z qalbini parchalaydi; bunday odamni aqlli odam nodon deb ataydi... Ikki dunyoda sen u bilan qimmatlisan. Kim aqlni sindirsa, u azob chekishda bo'ladi. Aql ruhning ko'zidir:

Jahondor yaratgan oliy zot inson,
Senga ma'lum barcha oshkoru nihon.

Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.

¹² А. Фирдавсий. Шоҳнома (Биринчи китоб), Тошкент, Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат ишприёти, 1975, - Б 29.

Yo'l izla donolar suxani tomon,
Dono so'zin takror etib, kez jahon.

Har nechuk ilmdan eshitsang bir so'z,
Uni tinmay o'rgan kechayu kunduz.

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon¹³.

O'rta Osiyo va umuman Sharqning iftixori va ulug' olimlaridan sanalgan Abu Rayhon Beruniy dunyoda insonning tutgan o'rni, istiqboli masalasiga katta e'tibor bilan qaraydi. Ongli hayotiy faoliyat odamni hayvonning ongsiz hayotiy faoliyatidan farqlantiradigan muhim jihatlardan biri ekanligi uning "Mineralogiya" asarida keng bayon etilgan. Odamda tafakkur qudrati bo'lmaganda edi, deb ta'kidlaydi Beruniy, uning ahvoli hayvonlar holatidan ham tubanroq bo'lgan bo'lardi, chunki odam kuch jihatidan hayvonlardan zaif, kuchli tabiiy himoya vositalaridan mahrumdir.

Beruniyning qayd qilishicha, insondagi maqtovga sazovor xislat olijanoblik, mardlik, muruvvat, nafsni tiya bilish, pokizalik, yoqimli kiyinishdir. Mutafakkir rostgo'ylikni hamma narsdan ustun qo'yadi, bilib-bilmay noto'g'ri habar tarqatuvchilarni, atayin yolg'on so'zlovchilarni qoralaydi. "Shunday kishilar ham bo'ladi-ki, - deydi bu haqda u o'zining "Hindiston" nomli asarida, - ularning tabiatiga yolg'on habar tarqatish o'rnashib qolgan, go'yo unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va yolg'on habar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatga buzuq fikrlarning joylashganidan kelib chiqadi... Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi... Demak, yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi; zulm, yolg'on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini xiyla bilan bosib olish, o'g'irlik, dunyo va xalqni buzilishiga sabab bo'ladigan boshqa yomon xulqlarni kishiga yaxshi qilib ko'rsatadi"¹⁴.

Buyuk alloma o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida urf-odatlarini yaxshi va yomonga ajratadi. To'g'rilik, odillik, o'zini saqlash, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, bilimdonlik, tadbirkorlik singarilarni u yaxshi xislatlar jumlasiga kiritadi. Bir-birining payiga tushish, ko'rolmaslik, xusumat, birovlarining baxtsizligi hisobidan bo'lsada yuksak marralarga ega bo'lish uchun harakat qilishni, faqat o'zini o'ylash, boshqalar bilan ishi bo'lmaslikni esa eng yomon odatlar sifatida ko'rsatadi.

Insonning sog'lom, baxtiyor hayot kechirishi, umrni uzaytirish, odamning tabiat bilan uzviy aloqadorligi, bolalar tarbiyasi singari eng muhim masalalar Abu Ali ibn Sino ta'limotida keng o'rin tutadi. Allomaning ko'rsatishicha, inson olam rivojlanishining toji bo'lib, u shon-sharaf va hurmatga to'la loyiqdir. U tabiat yaratgan noz-ne'matlardan tashqari oziq-ovqat, kiyim bosh, uy-joyga muhtojlik sezadi, bularni esa kasb-hunar o'rganish, mehnat qilish asosida yaratadi.

¹³ A. Фирдавсий. Шоҳнома (Биринчи китоб), Тошкент, Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, - Б 36-37.

¹⁴ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Тошкент, "Фан" нашриёти, 1965, 2- том, 26- бет.

Ibn Sino tib olimi sifatida inson salomatligini saqlashda sof havoning, mijozga qarab ovqat tanovul qilishning, ichiladigan suvning, badan tarbiyasi, har bir giyohning ahamiyati haqida ham juda qimmatli fikrlarni bayon etdi.

Eng oliy mavjudot bo'lgan insonni madh etish, uning kelajagi haqida qayg'urish Sharqning zabardast faylasuf olimi Umar Hayyom ijodida markaziy o'rin egallaydi. U o'zining ruboiylaridan birida insonni olamning bezagi, gultoji deb yuksak baholaydi:

Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko'zin qorasi - javhari ham biz.
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz, uning ko'zi - gavhari ham biz¹⁵.

Inson o'zining tafakkur quvvati, dahosi, mehnati bilan tabiat va jamiyatni o'z ehtiyojlari yo'lida o'zgartiradi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, dunyoda insondan ulug'roq kamolot yo'q, chunki unga "bebaho marvarid" - aql -zakovat kuchi hadya etilganki, unda "sir -asrorlarni va yuksak cho'qqilarni bilish qobiliyati" bo'lib, uning ko'magida inson "ulug' zafarlarni bajo keltiradi. Alisher Navoiy ham insonni chin qalbi, vujud-vujudi bilan sevadi, uning haq-huquqlarini astoydil himoya qiladi, baxt-saodati uchun kurashadi. Navoiy sevib ardoqlagan inson yaramas xislat va illatlardan xoli bo'lgan fozil va komil insondir. U mehnatkash, ijodkor, o'z kasb-korini mukammal egallagan, mehnati va zakovati, faoliyati va bilimi bilan o'ziga ham, o'zgalarga ham manfaat etkazuvchi insondir. Navoiy boshqalarning ham ana shunday inson bo'lishini istaydi.

Alisher Navoiy jamiyatning asosiy moddiy boyliklarini yaratuvchi dehqonlar, hunarmandlar va chorvadorlarni maqtaydi, ularning jamiyat hayotidagi roliga katta baho beradi. Umrining oxirlarida yozgan "Mahbu- ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") asarida dehqonlarga barcha insonga ham, jonivorlarga ham oziq-ovqat, rizq-ro'z etishtirib beruvchidir deb baho beradi.

Alisher Navoiy inson har tomonlama etuk va barkamol bo'lishi zarurligi haqidagi g'oyani o'z salaflariga nisbatan ancha rivojlantirib va boyitib, bu haqda barcha asarlarida o'zining fikr-mulohazalarini bildiradi. Uning "Farhod va SHirin" dostonidagi Farhod obrazi bunga misol bo'ladi. Farhodda har, tomonlama barkamol insonga xos sifatlar mujassamlashgandir. U - etuk musavvir, mohir usta, chuqur bilimdon, dono mutafakkir, ayni vaqtda dovyurak jangchi insondir. Ilm-fan va madaniyatining unga begona bo'lgan biror sohasi topilmaydi. Unda donishmandlik va insoniylik uzviy ravishda birlashib ketgan, insonga xos hech bir narsa unga begona emas.

Alisher Navoiy Farhodning mehnat va ijodda erishgan muvaffaqiyatlarining omili uning ilmi, aqli va irodasida, deb hisoblaydi. Uning aql-idrokiga baho berib Navoiy shunday deydi:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
Ulum ichra manga to bo'ldi madhal,
Topilmas mushkule men qilmagan hal¹⁶.

¹⁵ Умар Хайём. Рубоийлар. Тошкент, 1976, - Б 5.

Alisher Navoiy insonning qadr-qimmatini uining mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi, ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatлари, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanadi, deydi. Bu haqda uning quyidagi so'zlari tahsinga sazovordir: "Kishilarning so'z bilan naf etkazish qo'lidan kelmasa, loqal ko'nglidagi andeshasi yaxshi bo'lishi kerak. Ko'ngli odamlarning xursandligidan xursand bo'lishi lozim; ularning ko'ngli noxush bo'lsa, tashvishiga sherik bo'lishi kerak. Kimning xalq g'amidan g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema. Birov senga yaxshilik qilmoqchi bo'lsa, so'z bilan senga jon bag'ishlamoqchi bo'lsa-yu, lekin gap bilan buni ifodalay olmasa, yaxshilikni tilga olganining o'zi kishi ta'biga osoyish bag'ishlaydi"¹⁷.

Sharqning buyuk daholaridan biri Mirzo Abdulqodir Bedil insonni juda yuksaklarga ko'taradi, o'zining ko'pchilik asarlarida uni "hazrati inson" deb ataydi. Uning nazmida bayon etilgan quyidagi mulohazalari insonni borliqning, olamning toji, o'z baxtini o'zi yaratadigan zot, deb bilganligidan darak beradi.

To'rt dahraro sen nuri oftob,
Etti bahr ichra gavhari noyob.
Har narsagaki etibdi aqling,
Undan afzalsan buni yaxshi bil.
Dunyo mevasin shirinkorisan,
Hammasidan ham hosildorisan.
Qay tarafgakim uchdi xayoling.
Sen etsang parvoz, etar majoling.
Diling himmatidan hayot guliston,
Qo'ling qudratidan hammayoq bo'ston¹⁸.

Bedil insonni erga uradigan xislatlarini qattiq qoralaydi, ish qilmasdan mukofot istash uyatsizlikdir, deb, odamlarni yaxshilardan ibrat olishga da'vat etadi. "Agar yaxshilardan begona bo'lmayman, ajralmayman, desang, yomon so'zlovchilar, g'iybatchilar bilan oshnolik qilma, o'zingni to'g'ri ko'rmoqchi bo'lsang, oynaning orqasiga boqma"¹⁹, deydi Bedil.

5. Dars jarayonlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

Mamlakatimizning buguni, kelajak taraqqiyoti ko'p jihatdan yoshlarning intellektual salohiyatiga, vatanparvarligiga bog'liq. Agar ularni sog'lom, bilimdon, xalqparvar qilib tarbiyalasak, shubhasiz, ular Vatan ravnaqi uchun hissa qo'sha oladigan, uning yuksalishiga dahldor bo'lgan barkamol va ijtimoiy faol shaxslar bo'lib shakllanishi muqarrar. Albatta, bu borada biz ta'limning ichiga singib ketgan tarbiyaning beqiyos kuchi va mas'uliyatini his qilishimiz, undan oqilona foydalanishimiz joiz. Yoshlar ongiga va turmushiga odob va axloq haqidagi qarashlarni singdirib borish, bo'sh vaqt tushunchasini hayot tarzlaridan chiqarib tashlashga ko'maklashish, ilm-u ziyoning inson hayotidagi ahamiyati nechog'lik ulkan ekanligini uqtira bilish nihoyatda zarur.

¹⁶ Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том, Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1966, - Б 29-30.

¹⁷ Алишер Навоий. Хайратул-аброр, - Б 97-98.

¹⁸ Ўзбекистонда илғор ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. Тошкент, Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1959. - Б 293.

¹⁹ Ўша жойда, - Б 249.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Gap yoshlar tarbiyasi haqida borar ekan, bu borada shoshmaslik, yoshlar va ota-onalarning talab-istaklaridan kelib chiqib, har tomonlama puxta o’ylab ish tutish kerak”, - degan fikrlari har bir pedagogning dasturil amali bo’lishi zarur. Chunki, ta’lim va tarbiya doimo bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir.

Mustaqillik davrida komil insonni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi qilib belgilandi. Buni amalga oshirishning metodologik, pedagogik va psixologik asoslari “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da o’zining ilmiy ifodasini topgan. Unda: “O’quvchilarning fanlar asoslari bo’yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o’zlashtirish ehtiyojini, asosiy o’quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko’nikmalarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo’lishni va kasb tanlashni shakllantiradi,”-deb ta’kidlanadi. Bu vazifalarni yechishda ilmiy hamda amaliy asosda tashkil qilingan tarbiya muhim rol o’ynaydi. Pedagoglardan esa ta’lim va tarbiyani uyg’un olib borish; yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo’yicha ta’sirchan pedagogik choralarni belgilash; yoshlarni diniy-ekstremistik g’oyalari, turli axborot xurujlari ta’siridan himoya qilish yo’llarini izlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish; yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil, ijodiy, mantiqiy, konstruktiv mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashiga erishish; yoshlarda sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarni hamda faol hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish; har bir yoshning shaxsiy rivojlanishiga sharoit yaratib berishi kerakligi nazarda tutiladi.

Tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishning muhim komponentlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. O’z davrida taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy tarbiya vositalarini bolaning hayoti, uning tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqotidan iborat deb ta’kidlagan edi. To’g’ri tanlangan va pedagog tomonidan qo’llanadigan metodlar tizimiga kiritilgan vositalar tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning oqibatida ular o’quvchi va talabalar tomonidan tarbiyaviy ta’sirning mohiyatini bevosita anglash va ularning kuzatuvchanligi va ta’sirchanligini kuchaytirib, fikrlash, ya’ni tarbiyachi maqsadini tezroq fahmlashga asos bo’ladi. Tarbiya vositalariga o’quv qo’llanmalari, kitoblar, badiiy adabiyot, turli predmetlar- tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun foydalaniladigan buyumlar, kishilarning ibrat namunasi, tajribasi ommaviy axborot vositalari: radio, televideniya, internet, gazeta, jurnallar ham tarbiya vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, adabiyot va san’at asarlarining yoshlarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy-estetik ta’sir xususiyatidan iloji boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega. Adabiyot va san’at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarligida, inson ichki dunyosiga ta’sir ko’rsata olishidadir. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyotning ana shu xususiyatini hisobga olish muhim. Shu nuqtai nazardan P.Jafarov o’zining “Milliy o’zlikni anglash va ma’naviyat” asarida quyidagi fikrni keltirib o’tgan: “Tarbiya jarayonida o’zbek xalqining boy ma’naviy merosidan keng foydalanish uning samaradorligini

oshirishda muhim omil bo'la oladi. Yoshlarimiz ma'naviy tarbiyasida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi mumtoz so'z ustalari asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir". Haqiqatan, ularning bizga qoldirgan boy badiiy merosi chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ma'naviy tarbiyada Pirmqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik kabi yozuvchilarimiz, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matchon, Rauf Parfi kabi shoirlarimizning asar va she'rlaridan keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe'l-atvori, axloqi, ma'naviy dunyosi to'g'risida suhbat, munozara o'tkazish katta samara beradi. Ayniqsa, o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlarini bo'lgan yaxshilik va samimiylilik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, insonparvarlik xislatlarini o'zida mujassamlashtirgan bitiklar ruhiyat va tarbiya kamolotida beqiyos kuchga ega. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda so'z g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. "Yaxshi so'z- qilichdan ham kuchli" degan gap bor. O'z o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, ba'mani fikr doimo kishilarning xulq-atvoriga, ma'naviyatiga, tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pirovard natija har tomonlama kamol topgan, yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratiladi. Tarbiya jarayonining eng asosiy maqsadi har tomonlama va uyg'un kamol topgan, yangicha fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdir. Bu qiyin jarayonda badiiy asarlardan keng foydalanish, o'zaro muhokamalar tashkil qilish ikki tomonlama bo'lib, tarbiyachidan uyushtirish va rahbarlikni boshqarish, o'ziga xos notiqlik qobiliyati va muloqot psixologiyasini yaxshi o'zlashtirganlik, tarbiyalanuvchi shaxslardan faollik ko'rsatish talab qilinadi. Demak, tarbiya jarayoni umuminsoniy milliy va har bir shaxsning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy jarayon bo'lib, unda adabiyot manbalarining ahamiyati yuksakdir.

8-mavzu: Yoshlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish.

Reja:

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati.
2. Inson huquqlari. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr).
3. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati. Huquqiy ong tushunchasi, tuzilishi, vazifalari va turlari: Huquqiy ong - bu odamlarning qonunga va jamiyat hayotidagi huquqiy hodisalarga munosabatini ifoda etadigan g'oyalar, tushunchalar va hissiyotlar to'plamidir. Huquqiy ong - bu huquqning manbai (moddiy ma'noda, ya'ni huquqiy normalarni yaratish ma'nosida), jamiyat rivojlanishining ob'ektiv ehtiyojlarini aks ettiradi, qonunni amalga oshirishning majburiy vositalaridan biri, xatti-harakatlarning qonun normalariga muvofiqligini baholash vositasi. Huquqiy manba sifatida huquqiy ong huquqiy aktlarda o'z ifodasini topadi (moddiylashadi), qonun ijod qilish jarayoni

va natijalariga ta'sir qiladi. Huquqiy normalar, o'z navbatida, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirishga, huquqiy tamoyillar va me'yorlar, huquqiy munosabatlar va javobgarlik to'g'risida to'g'ri g'oyalarni shakllantirishga ta'sir qiladi. L.I. Spiridonov- ning ta'kidlashicha, "ommaviy huquqiy ong - bu huquqiy haqiqatning kollektiv ongida aks etishi, nima bo'lishi kerakligi prizmasi orqali idrok etilishi, madaniy me'yorlar, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va boshqa ijtimoiy ong shakllari vositasida aks etishi. Bu kontseptsiyalarda, g'oyalarda, qarashlarda, hissiyotlarda va boshqalarda ifodalangan qonun, qonun, huquqbuzarlik, hukm, huquqbuzarga psixologik munosabatni ifodalaydi".

Huquqiy ong - bu murakkab tarkibiy tuzilish bo'lib, unda kamida ikkita tarkibiy qism ajratiladi: huquqiy mafkura (ratsional) va huquqiy psixologiya (hissiy). Bundan tashqari, ichida huquqiy ongning tuzilishi boshqa elementlarni ta'kidlash odatiy holdir: huquqiy ontologiya (qonun nima ekanligini bilish), aksiologiya (qonunni baholash), praxeologiya (xulq-atvorni tanlash bilan bog'liq irodaviy element).

Huquqiy ong nafaqat mavjud huquqiy munosabatlarning sifatini tavsiflaydi, balki uning ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro munosabatda bo'lib, rivojlanish tendentsiyalarini ham ko'rsatadi. U uzluksizligi va yangiligi bilan ajralib turadi, huquqiy tartibga solishning mohiyati va sifati to'g'risida, buzilgan huquqlarni himoya qilish usullari to'g'risida yangi g'oyalarni yaratadi. Huquqiy ong munosabatlar ta'sirida shakllanadi, ularga teskari ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy mafkura qonuniy xatti-harakatlar uchun qiymat motivlarini yaratadi, u huquqiy psixologiyaga va shunga muvofiq huquqiy amaliyotga ta'sir qiladi. Huquqiy ongning mazmuni nafaqat jamiyatda beriladigan, balki huquqiy ta'lim jarayonida o'stirilishi kerak bo'lgan qadriyatlar tizimi bilan bog'liq.

Huquqiy ong huquqiy madaniyatning elementi sifatida huquq va yuridik xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi mexanizmdir. Nazariy kontseptsiyaga ko'ra, asosiy huquqiy ongning funktsiyalari - kognitiv, baholovchi va tartibga soluvchi... Huquqiy ongning bilish funktsiyasi aqliy faoliyat (huquqiy tayyorgarlik) natijasi bo'lgan ma'lum miqdordagi huquqiy bilimlarni nazarda tutadi. Baholash funktsiyasi yuridik tajriba asosida shaxsning huquqiy hayot hodisalariga ma'lum bir hissiy munosabatini keltirib chiqaradi. Ushbu munosabat shaxs yoki jamiyat nuqtai nazaridan olingan bilimlarning ahamiyatini aniqlashda ifodalanadi. Huquqiy ongning mazmuni baholash munosabatlarining quyidagi asosiy turlarini o'z ichiga oladi: qonunchilikka va qonunchilikka, boshqalarning huquqiy xatti-harakatlariga va faoliyat ob'ektlariga, huquqni muhofaza qilish idoralariga, o'z yuridik xulq-atvoriga (o'zini o'zi baholash).

Huquqiy ongni tartibga solish funktsiyasi huquqiy munosabat va qiymat va huquqiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi.

Sub'ektlarga ko'ra huquqiy ong individual, guruhli va jamoatchilikka bo'linadi: individual adolat tuyg'usi, ma'lum bir kishining qonun va jamoat hayotidagi huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi g'oya va tuyg'ular majmuasi sifatida namoyon bo'ladi; guruhli huquqiy ong - bu huquq va huquqiy hodisalarni (ijtimoiy guruhlar, sinflar, qatlamlar, professional va boshqa birlashmalar) jamoaviy xabardorligi bilan bog'liq g'oyalar va hissiyotlar majmuini

anglatadi; jamoat adolat tuyg'usi makrokollektivlar (mamlakat, millat aholisi va boshqalar) munosabatini ifodalovchi g'oya va tuyg'ular majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy madaniyat darajasiga yoki huquqiy voqelikning aks etish chuqurligi nuqtai nazaridan, huquqiy ongning odatda uchta darajasi odatiy (empirik), ilmiy (nazariy) va kasbiy darajalarga bo'linadi. Oddiy adolat tuyg'usi eng chuqur: unda psixologik (hissiy) elementlar ustunlik qiladi. Ushbu darajadagi huquqiy bilimlar shaxsiy tajriba va kundalik munosabat bilan cheklangan, tarqoq, tizimsiz va ko'pincha yuzaki. Odatda, qonunga bo'lgan munosabat qarama-qarshi bo'lib, o'zgaruvchan kayfiyat va kundalik hissiyotlarga bog'liq. Ushbu daraja shaxsiy hayot tajribasi ta'sirida shakllanadi.

Huquqiy nazariya - bu huquqiy ong mavjudligining kontseptual shakli, huquqiy aks ettirish ob'ektini aniqlashning eng chuqur usuli. Mafkuraviy darajadagi bunday ifoda darajasi nazariy huquqiy ongga mos keladi. Bir tomondan, huquqiy ongning rivojlanishi ma'lum darajada amaldagi qonun bilan shartlangan; boshqa tomondan, qonunning o'zi ham qonun ijodkorligi darajasida (qonun hujjatlari qabul qilinayotganda qonun chiqaruvchi aholining huquqiy ongi darajasini hisobga olishi kerak) va qonunni amalga oshirish darajasida ham huquqiy ongga bog'liq (huquqiy ong qonun normalariga ixtiyoriy ravishda rioya qilinishini ta'minlaydi va huquqni muhofaza qilishga yordam beradi, qonunlarni maqbul talqin qilish va bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam beradi o'ng).

Shunday qilib, huquqiy ong huquqiy tartibga solishning butun mexanizmini qamrab oladi, huquqiy normalar nashr etilishidan oldin keladi va ularning amal qilish muddati davomida normalarni amalga oshiradi. Ijtimoiy ongning turli shakllari mavjud bo'lib, ular orqali odamlar ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar, atrofdagi olamni idrok etadilar (aks ettiradilar) va unga nisbatan ma'lum bir munosabatni shakllantiradilar. Bu siyosiy, diniy, estetik, milliy, axloqiy ong.

Huquqiy ong jamiyatning, ijtimoiy guruhning, shaxsning amaldagi yoki istalgan qonunga, shuningdek boshqa davlat-huquqiy hodisalarga munosabatini ifoda etadigan o'zaro bog'liq g'oyalar, nazariyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar yo'nalishlari, huquqiy munosabat, tuyg'ular to'plamidir.

Huquqiy ong jamiyatning huquqiy hayotini rivojlantirish va takomillashtirishda ulkan rol o'ynaydi, chunki huquqiy normalarning sifati, ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligi, shuningdek ularning ko'rsatmalarining aniq va to'liq bajarilishi fuqarolarning huquqiy ongi darajasiga bog'liq.

Huquqiy ongning belgilari:

1) huquqiy ong - bu siyosiy ong, siyosiy, axloqiy, diniy, milliy va boshqa shakllar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mustaqil ong shaklidir;

2) huquqiy ong faqat huquqiy voqelik hodisalarini aks ettiradi va huquqiy normalarni yaratish, ularning talablarini jamoat hayotida amalga oshirish jarayonini qamrab oladi;

3) huquqiy ong huquqning o'tmishi, buguni va kelajagi haqidagi g'oyalarni o'z ichiga oladi;

4) huquqiy hodisalar to'g'risida xabardorlik maxsus huquqiy tushunchalar va toifalar (huquqiy munosabatlar, yuridik javobgarlik, qonuniylik va boshqalar) orqali amalga oshiriladi;

5) huquqiy ong huquqning manbai;

6) huquqiy ong huquqiy faoliyatning manbai va huquqiy xatti-harakatlarning ichki regulatori yoki uni amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ongning tuzilishi. Huquqiy ong - bu ikki asosiy elementdan tashkil topgan murakkab hodisa: huquqiy psixologiya va huquqiy mafkura. Huquqiy psixologiya - bu shaxsga, o'ziga xos ijtimoiy guruhga yoki umuman jamiyatga xos bo'lgan va mavjud huquqiy normalar va ularni amalga oshirish amaliyoti asosida vujudga keladigan his-tuyg'ular, tajribalar, kayfiyat, istaklar, odatlar, stereotiplar majmui.

Huquqiy mafkura - Bu nazariy shaklda ijtimoiy hayotning qonuniy hodisalarini aks ettiradigan qarashlar va g'oyalar tizimi. Huquqiy mafkura ijtimoiy murosaga erishish orqali turli xil jamoat manfaatlarini nazariy xabardorligini aniqlash, muvofiqlashtirish va yarashtirishni aniqlash jarayoni sifatida shakllanadi. U mavjud va paydo bo'layotgan huquqiy munosabatlarni, qonuniylikni va huquqiy tartibni asoslaydi va baholaydi. Huquqshunoslar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar huquq mafkurasini ishlab chiqishda jamiyat hayotining o'ziga xos tarixiy sharoitlarini, jamoat ongining darajasi, ijtimoiy psixologiya va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda qatnashadilar. Huquqiy ongning nazariy darajasi mafkura ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Huquqiy mafkura bu huquqiy haqiqatni aks ettiruvchi va baholovchi huquqiy g'oyalar, nazariyalar, tamoyillar, e'tiqodlar tizimidir. Huquqiy mafkurani ishlab chiqishda huquqshunoslar, iqtisodchilar, siyosatshunoslar, bilimlarning boshqa sohalari vakillari ishtirok etadilar, ular jamiyatning o'ziga xos tarixiy sharoitlarini, siyosiy kuchlarning birlashishini, jamoat ongining darajasini, turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va irodasini va boshqa omillarni hisobga olishga majburdirlar.

Huquqiy mafkura ma'lum sinflar, ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini bilan bog'liq bo'lib, ularning eng mukammal qonun (tabiiy-huquqiy, iste'molchi, marksistik davlat va huquq kontsepsiyasi, huquqiy davlat to'g'risidagi ta'limot va boshqa zamonaviy mafkuralar) haqidagi g'oyalarini aks ettiradi. Huquqiy mafkuraning asosiy tarkibiy qismi huquqni bilishdir.

Huquqiy psixologiya - turli xil ijtimoiy guruhlar, kasbiy guruhlar, ayrim shaxslarning huquqqa, jamiyatda mavjud bo'lgan huquqiy hodisalar tizimiga munosabatini ifodalovchi tuyg'ular, odatlar, kayfiyat, urf-odatlar majmui. Huquqiy psixologiya - bu millat, aholining turli guruhlari va qatlamlarini tashkil etuvchi jamiyat a'zolarining hayotiy munosabatlarining eng to'g'ridan-to'g'ri aksidir. Yuridik psixologiya orqali huquqiy madaniyatga xos urf-odatlar va urf-odatlar, shaxsning o'zini o'zi qadrlashi amalga oshiriladi, ya'ni. ularning xulq-atvorini qonun nuqtai nazaridan tanqidiy baholash qobiliyati. Uning his-tuyg'ulari va hissiyotlarini boshqarish qobiliyati shaxsning tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lib, bu huquqiy ongning tarkibiy elementlari sifatida huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. "Jamiyat ongi individual

fuqarolarning ruhiyatiga kirib borguncha, u ijtimoiy guruhlarining kollektiv ongiga aylanadi”.

Huquqiy psixologiya - bu huquqni anglashning eng keng tarqalgan shakli, chunki u odamlarning muomalasi va o'zaro ta'siri jarayonida kundalik hayot asosida rivojlanadi va insonning turli xil davlat va huquqiy hodisalarga individual psixologik reaksiyalari shaklida namoyon bo'ladi. Huquqiy psixologiya huquq tajribasini va uning ko'rsatmalariga rioya qilishni yoki ulardan chetga chiqishni nazarda tutadi.

Huquqiy ongning mazmunini tashkil etuvchi huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularning vositalari bilan huquqiy ong vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Asosiy funktsiyalar huquqiy ong kognitiv, baholovchi, tartibga soluvchi va bashorat qiluvchi bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadigan yo'nalishlardir.

2. Inson huquqlari. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr). Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill inson huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilingan eng asosiy hujjatlar majmui bo'lib, u bu sohada keyinchalik qabul qilingan barcha hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill o'z ichiga inson huquqlari sohasidagi BMT tomonidan ishlab chiqilib, qabul qilingan asosiy hujjatlarni birlashtirgan. Bu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil);
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil);
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda unga ilova qilingan I Fakultativ Bayonnoma (1966-yil) va O'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan II Fakultativ Bayonnoma (1989-yil).

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi, tuzilishi, mazmuni va ahamiyati. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. 2008-yilda ushbu Deklaratsiya qabul qilinganligining 60 yilligi butun dunyoda keng nishonlanishi to'g'risida BMT Bosh kotibining murojaati e'lon qilindi. Ushbu murojaatga javoban, 2008-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligini nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilindi.

Inson huquqlari to'g'risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan oldin bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. BMTning tashkil topishi va uning Nizomining qabul qilinishi inson huquqlari sohasidagi davlatlararo munosabatlarni yangi sifat darajasiga ko'tardi. BMT Nizomi xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari bo'yicha davlatlarning keng hamkorligiga asos solgan birinchi ko'p tomonlama shartnoma bo'ldi. Ammo, BMT Nizomini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan davlatlar turlicha yondashuvda ekanliklari namoyon bo'lib qoldi.

1946-yilda BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi tashkil etildi, unga inson huquqlari sohasida universal hujjat, ya'ni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Komissiya huzurida Deklaratsiya loyihasi bo'yicha ishchi guruh tuzildi. Bu ishchi guruh 1947-1948-yillar mobaynida Deklaratsiya loyihasi ustida ishlashdi va Deklaratsiya loyihasi 1948-yili 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi a'zolari tomonidan qizg'in tortishuvlardan keyin qabul qilindi. 1950-yil Bosh Assambleya 10-dekabrmi "Xalqaro inson huquqlari kuni" deb e'lon qildi.

Alohida qayd etish kerakki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 400 dan ortiq tillarga va dialektlarga tajjima qilingan va Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Shuning uchun ham Deklaratsiya eng ko'p tilga tarjima qilingan hujjat bo'lib, haqiqatan ham jahondagi eng "universal" hujjat hisoblanadi.

Deklaratsiya loyihasi barcha mintaqalar va huquqiy an'analarning vakillari tomonidan tayyorlangan. Vaqt o'tishi bilan u mamlakatlarning hukumatlari hamda xalqlari o'rtasidagi o'ziga xos shartnoma sifatida ko'rilishi lozim. Deklaratsiya, shuningdek, aholining barcha qatlamlarini ham qamrab olgan inson huquqlarini himoya qiluvchi inffatuzilmani kengaytirish uchun asos bo'lib qoldi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, unda insonning asosiy huquqlari, qadr-qimmati, inson shaxsining benazirligi hamda erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligi o'z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida huquqiy jihatdan asoslangan falsafiy fikrlar bayon etilgan bo'lib, unda "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va birbirlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur" deyilgan.

Deklaratsiyaning bu moddasi uning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Unga ko'ra, birinchidan, inson o'zining erk, huquq, tenglik singari ajralmas huquqlaridan mahmm qilinmasligi va ikkinchidan, inson aql va vijdon sohibi sifatida yer yuzidagi boshqa mavjudotlardan farq qilib, o'z taqdiri va hayotini o'zi erkin belgilashi lozim.

2-moddada har bir inson huquq va erkdan foydalanishda teng boiishi, u Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo'lishi quyidagicha bayon etilgan: "har bir inson, biror-bir ayirmachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlaridan qat'i nazar, mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi boiishi kerak".

3-moddada har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bu modda 4, 21-moddalarga kirish bo'lib, bularda fuqarolik va siyosiy huquqlar ifodalangan: qullik yoki qaramlikdan saqlanish huquqi; azob-uqubatga yoki vahshiyarlarcha jazoga mustahiq bo'olmaslik huquqining qonun tomonidan bab-baravar muhofaza etilishi; o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishdan, ushlab turish va quvg'in qilinishdan saqlanish huquqi; qo'yilgan aybning asoslanganligini aniqlash uchun tenglik asosidagi ijtimoiy adolatning barcha talablariga rioya qilish va uning sud tomonidan xolisona ko'rib chiqilish huquqi; shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan

aralashishdan muhofaza qilinish; uy-joy va xatlardagi sirlarning daxlsizligi huquqi; davlat hududida erkin yurish va o'ziga istiqomat joyini tanlash erki; boshqa mamlakatda boshpana olishdan foydalanish huquqi; fuqarolik huquqi; nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi; erkin fikr, vijdon va din erkinligi huquqi; maslak erkinligi va uni ifodalash huquqi; tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzishda qatnashish huquqi; mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqi va boshqa huquqlardan foydalanish shular jum lasidandir.

Deklaratsiyaning 23-27-moddalari insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini muhofaza qilishga bag'ishlangan. Bu moddalarda har bir insonning mehnat turini o'z erki bilan tanlashi, ishsizlikdan muhofaza qilinishi, oilani ta'minlaydigan darajada adolatli daromad olish imkoniyatiga ega bo'Mishi, jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishi singari huquqlari o'zining aniq ifodasini topgan.

Deklaratsiyaning 28-30-moddalarida esa, Deklaratsiyadagi huquqlarni amalga oshirish yo'llari belgilab berilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tuzilishiga ko'ra deklarativ hujjat bo'lsa-da, uning normalari o'ziga xos xalqaro odat normalari darajasigacha ko'tarilmoqda. Buni quyidagi misollar tasdiqlaydi.

BMTning 1968-yilda Eronda bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha birinchi umumjahon anjumanida qabul qilingan Tehran konferensiyasi hujjatlarida Deklaratsiyaning ahamiyatiga alohida baho berilar ekan, shunday deyilgan: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi jahon xalqlarining, xususan, bar bir insonning ajralmas va mustahkam huquqlari bo'yicha umumiy bitimni o'zida namoyon qilib, xalqaro hamjamiyatning barcha a'zolari uchun majburiydir".

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida shakllangan g'oyalar keyinchalik xalqaro maydonda qabul qilingan ko'plab xalqaro hujjatlarda o'zining huquqiy va mantiqiy rivojini topdi. 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, unga fakultativ protokollar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1965-yilgi, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiya, 1979-yilgi Xotin-qizlami kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, 1984-yilgi Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risida konvensiya kabi inson huquqlari bo'yicha BMTning asosiy hujjatlari, shuningdek, 1951-yilgi Qochoqlar to'g'risidagi konvensiya, 1951-yilda qabul qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining teng taqdirlov to'g'risidagi konvensiyasi, 1974-yilda qabul qilingan "Qurolli to'qnashuvlar davrida va favqulodda holatlarda xotin-qizlar va bolalami himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya", 1975-yilda e'lon qilingan "Ilmiy-texnikaviy yutuqlardan tinchlik va insoniyat farovonligi manfaatlari yonida foydalanish to'g'risidagi deklaratsiya", 1981-yilda e'lon qilingan "Din yoki e'tiqod uchun kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi deklaratsiya" kabi hujjatlar shular jumlasidandir.

"Barcha davlatlar va xalqlar erishishga harakat qilishi lozim bo'lgan andoza" sifatida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar tomonidan konstitutsiyalarining, inson huquqlariga oid turli

qonunlari va hujjatlarining alohida qoidalarini ishlab chiqish uchun asosiy huquq manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. 1948-yildan keyin qabul qilingan 110 dan ortiq milliy konstitutsiyalarda Deklaratsiya qoidalari yoki uning ta'siri ostida kiritilgan fundamental huquqlar ro'yxati mavjud. Unda huquqiy yo'nalishlar belgilangan bo'lib, u mezon (etalon) sifatida barcha hukumatlarga inson huquqlarini himoya qilishdagi taraqqiyot darajasini o'lchashga imkon beradi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalari aks ettirilgan va u Deklaratsiyaga to'la mos keladi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganidan so'ng BMTga a'zo-davlatlar tasdiqlashi zarur bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning imperativ xususiyatga ega bo'lgan shartnomaviy shaklini ishlab chiqishga kirishildi.

Paktlar deyarli 18 yilda ishlab chiqildi va qabul qilindi. Dastlab bitta hujjat ishlab chiqish va qabul ko'zda tutilgan edi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi o'zining Rezolyutsiyasida fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanish, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarga hamda madaniyat sohasidagi huquqlarga ega bo'lish o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi huquqlar ekanligini e'lon qildi. 1951-yilda Komissiya maxsus muassasalarning fikrlari va hukumatlarning takliflari asosida iqtisodiy, ijtimoiy huquqlar to'g'risida 14 ta moddani tuzdi. U, shuningdek, bu huquqlarni amalga oshirish yuzasidan chora ko'rish to'g'risidagi 10 ta moddani shakllantirdi. Shunga muvofiq, Paktning ishtirokchi-davlatlari bu masala bo'yicha o'zlarining ijodiy maslahatlarini topshirishlari lozimligi qayd qilindi. 1951-yilda uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng Bosh Assambleya Komissiyaga inson huquqlari to'g'risidagi ikkita paktning loyihasini ishlab chiqishni va ulardan birida fuqarolik va siyosiy huquqlar, boshqasida esa - iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlar yoritilishi lozimligini topshirdi. 1966-yilda oldindan belgilangan bitta pakt o'rniga ikkita Xalqaro pakt ishlab chiqildi: Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokol ham qo'shimcha ravishda ishlab chiqilib, unda alohida shaxslarning paktga ifodalangan huquqlarining buzilishiga doir xabarlari ko'rib chiqilishi o'z ifodasini topishi zarurligi qayd etildi.

Inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning huquqiy mohiyati va mazmuni. Har ikkala Paktning Muqaddimasi, 1-, 3- va 5-moddalari aynan bir xildir. Har bir Paktning Muqaddimasida BMT Nizomiga muvofiq ravishda davlatlarning majburiyatlari qayd etilgan. Unga ko'ra, har bir inson bu huquqlarga rioya qilishi va har bir davlat inson huquqlarini himoya qilishga doir amalga oshiriladigan ijobiy tadbirlarni rag'batlantirib turishi zarur.

Har ikkala Paktning 3-moddasida ishtirokchi-davlatlar insonga berilgan barcha huquqlardan erkaklar va ayollarga teng huquqni ta'minlash majburiyatini oladilar. Har ikkala Paktning 5-moddasida biron-bir davlat, gumh yoki alohida shaxs paktga e'tirof etilgan har qanday huquq yoki erkinliklarni cheklashga

qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi bor deb qarashi va buni targ'ib qilishi mumkin emasligi hamda insonning huquqlari biror-bir tarzda cheklanishi yoki kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-15-moddalarida mehnat qilish huquqi (6-modda), adolatli va qulay mehnat sharoiti (7-modda), kasaba uyushmalari tuzish va unga kirish (8-modda), ijtimoiy ta'minot huquqi (9-modda), oilani, onalik, bolalik va o'smirlikni keng himoya qilish va yordam berish huquqi (10-modda), yetarli hayotiy darajaga ega bo'lish huquqi (11-modda), jismoniy va ruhiy sog'lomlikning eng yuqori darajasiga erishish va ma'lumot olish huquqi (12-13-moddalar), madaniy hayotda ishtirok etish huquqi (15-modda) va boshqa huquqlar qayd etilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-27-moddalarida insonning yashash huquqi himoyalaniishi nazarda tutiladi. Bu moddalarda hech kim azob-uqubatga solinmasligi yoki zulmlik bilan, insonlikka isnod keltiruvchi bir tarzda yoki uning qadr-qimmatini xo'rlab muomala qilinmasligi yoki jazoga mustahiq etilmasligi kerak (7-modda); hech kim qullikda saqlanishi mumkin emas; qulchilik va qul savdosi, bular qanday shaklda boim asin, taqiqlanadi; hech kim majburiy yoki shart bo'lgan mehnatga majbur qilinishi mumkin emas (8-modda); hech kim o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi yoki hibsdan saqlanishi mumkin emas (9-modda); ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga insonlarcha muomalada bo'lish kerak (10-modda); hech kim biror shartnoma majburiyatini bajarishga qodir boim agan asosdagina ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas (11-modda); har bir odam davlat hududida erkin ko'chib yurish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egadir (12-modda).

Ushbu Paktda ishtirok etayotgan biron-bir davlatning hududida qonuniy tarzda turgan chet ellik shaxs qonunga binoan chiqarilgan qaror asosidagina chiqarib yuborilishi mumkin (13-modda).

Paktda barcha shaxslar odil sudlar va tribunallar oldida tengdirlar, jinoyat va fuqarolik jarayonlarida kafolatga egadirlar, deb e'tirof etilgan (14-modda); shuningdek, jinoyat sodir etilgan paytda qo'llanilishi lozim bo'lgandan og'irroq jazo tayinlanishi mumkin emas (15-modda); qayerda boiishidan qat'i nazar, har bir inson o'zining huquq subyekti ekanligining e'tirof etilishi huquqiga egadir (16-modda); hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan yoki g'ayriqonuniy tarzda aralashish, uy-joy daxlsizligi yoki maktublari sirining daxlsizligiga o'zboshimchalik bilan yoki g'ayriqonuniy tusda yoki uning onomusi va sha'niga g'ayriqonuniy tusda tajovuz qilish mumkin emas (17-modda).

Bundan tashqari, mazkur Paktda qayd etilishicha, har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egadir (18-modda); har bir inson bema'lol o'z fikrida sobit bo'lish huquqiga egadir (19-modda); urushni har qanday yo'sinda targ'ib etish qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilishi kerak; dushmanlik, zo'ravonlik, gij-gijlash, milliy, diniy yoki irqiy g'animlikni yoqlab qilinadigan har qanday yo'sindagi harakat qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilishi kerak (20-modda); ular osoyishta yig'ilishlar o'tkazish (21-modda) va uyushmalar tuzish erkinligini e'tirof etadi (22-modda). Ular nikoh yoshiga yetgan erkaklar va ayollarning nikohdan o'tish huquqi va oila qurish huquqi, nikohda bo'lgan davrda va nikoh bekor

qilinayotganida er-xotinlarning huquq va majburiyatlari tengligini e'tirof etadi (23-modda); ular bolalar huquqini muhofaza qilish tadbirlarini belgilaydi (24-modda); va o'z mamlakatining davlat ishlarida qatnashishdan iborat har bir fuqaroning huquqini nazarda tutadi (25-modda). Ular barcha odamlarning qonun oldida tengligi va ularning hech bir kamsitishlarsiz qonun tomonidan babbaravar himoya qilinishi tadbirlarini nazarda tutadi (26-modda). Va nihoyat, 28-moddada Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tuzish ko'zda tutilgan. Bu Qo'mita Paktda qayd etilgan huquqlarni hayotga tatbiq etilishini nazorat qilib boradi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qatnashuvchi davlatlar huquqdan foydalanishda cheklashlar o'rnatishi mumkin. Cheklashlar shu davlatning qonunida belgilanib, ular umumiy farovonlik maqsadlariga va mamlakatda amalda bo'lgan tartib-qoidalar tabiatiga mos bo'lishi shart.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qattiq talablar belgilangan: faqat favqulodda holat rasmiy ravishda e'lon qilingandagina ishtirok etuvchi davlatlar o'z majburiyatlaridan chekinishlari mumkin. Cheklashlarning Paktda alohida qayd etilgan huquqlarga ta'siri bo'lishi mumkin emas. Bular: yashash huquqiga ega bo'lish, qiynoqni taqiqlash, qulchilik, odil sudlov va hokazo. Qabul qilingan cheklashlar to'g'risida ishtirok etuvchi davlatlar BMTning Bosh kotibi orqali Paktning boshqa ishtirokchi-a'zolarini xabardor qilishi lozim. Paktda qayd etilgan ayrim huquqlardan foydalanishda davlat cheklash o'rnatishi mumkin. Bu cheklashlar

qonunda o'z ifodasini topishi shart. Ular davlat xavfsizligini va ijtimoiy tartibini, aholining sog'lig'i yoki axloqiy udumlarini, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, Paktda qabul qilingan boshqa huquqlarga mos bo'ladi.

Har bir Paktda unda ko'rsatilgan m e'yor va tamoyillarni amalga oshirishga qaratilgan bir qancha qoidalar keltirilgan. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq, unda qatnashuvchi har bir davlat BMT Bosh kotibiga Paktda e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda erishilgan yutuqlar va tadbirlar to'g'risida m a'ruza berib turishni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash vaqti-vaqti bilan Bosh Assambleyaga umumiy tushdagi tavsiyanomalar bilan mazkur Paktda ishtirok etayotgan davlatlardan va ixtisoslashgan tashkilotlardan olingan m a'lumotlarning bayoni to'g'risida m a'ruzalar taqdim etishi mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash BMTning boshqa organlari ularning yordamchi organlari hamda texnikaviy yordam berish bilan mashg'ul bo'lgan va ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning diqqat-e'tiborini mazkur Paktning ushbu qismida eslatib o'tilayotgan m a'ruzalar munosabati bilan paydo bo'layotgan har qanday masalalarga qaratishi mumkinki, bu ana shu organlar tomonidan o'z vakolatlari doirasida ushbu Paktning tadrijiy yo'sinda amalga oshirishga yordam berishi mumkin bo'lgan xalqaro tadbirlarning nechog'lik maqsadga muvofiqligi xususida qarorlar chiqarishda foydali bo'lishi mumkin (22-modda).

3. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini

shakllantirish. Huquqiy madaniyat: tushuncha, turlari va tuzilishi Huquqiy madaniyat umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tarixan shakllangan tizimi sifatida jamiyat madaniyatining muhim qismidir, shu asosda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish amalga oshiriladi. Zamonaviy mahalliy huquqiy adabiyotlarda huquqiy madaniyat ta'rifiga yagona yondashuv mavjud emas.

Keng ma'noda huquqiy madaniyat bu insoniyat tomonidan huquqiy sohada yaratilgan barcha narsalardir: a) qonun, uning normalari; b) huquq manbalari; v) huquqiy ong; d) yuridik fan; e) yuridik amaliyot.

Tor ma'no huquqiy madaniyat - bu huquqiy normalarni bilish, huquqiy qadriyatlarga hurmat, bular orasida doimiy bo'lib konstitutsiya, sud hokimiyati va boshqalar bor.

Huquqiy madaniyat - bu murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa, yilda tuzilishi ulardan uchta o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar bloki mavjud: 1) kognitiv (epistemologik); 2) qiymatga yo'naltirilgan; 3) faoliyat (xulq-atvor).

Huquqiy madaniyatning xulq-atvor jihatining namoyishi huquqiy faoliyat bo'lib, u nizolarni hal qilishda noqonuniy kuch vositalaridan foydalanishni istisno qiladigan, faqat qonuniy majburiyatlarga rioya qilish va bajarishdan tashqari, huquqiy sohadagi faoliyatning yuqori darajasi va intensivligini nazarda tutadi. Huquqiy madaniyatning barcha ko'rib chiqilayotgan tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil, lekin shu bilan birga o'zaro bog'liq va maxsus tizimni shakllantirish.

Huquqiy madaniyatning funksiyalari: kognitiv, tartibga soluvchi, huquqiy sotsializatsiya, baholovchi, kommunikativ, bashorat qiluvchi.

1. Kognitiv funktsiya shaxslarda, ijtimoiy guruhlarda davlat-huquqiy hodisalarni idrok etish va anglash orqali zarur huquqiy bilimlar, g'oyalar shakllanib, shu asosda ular o'zlarining vazifalarini bajarish uchun huquqiy munosabatlarga kirishishlarida yotadi.

2. Tartibga solish funktsiyasi huquqiy tizimning barcha elementlarining va shu sababli butun jamiyatning barqaror, dinamik ishlashini ta'minlaydi. Bunga odamlarning ongida ideal madaniyat, qadriyatlar, tamoyillar, an'analar va huquqiy madaniyatga xos ijtimoiy foydali, yuridik ahamiyatga ega xatti-harakatlarning namunalarni shakllantirish va mustahkamlash orqali erishiladi.

3. Huquqiy sotsializatsiya funktsiyasi huquqiy madaniyatning to'plangan tajriba, ma'lum huquqiy bilimlar, qadriyatlar, printsiplar, huquqiy hayot normalarining avloddan avlodga - vertikal va sub'ektlar o'rtasida gorizont ravishda uzatilishini ta'minlash qobiliyatidan iborat. Shunday qilib, bu sub'ektlar tomonidan ularning huquqlaridan yanada samarali foydalanishga va qonuniy majburiyatlarni bajarishga, shuningdek, ham shaxsni, ham butun jamiyatni doimiy ravishda boyitishga yordam beradi.

4. Bashoratli funktsiya huquqiy madaniyat huquqni, qonuniylikni, qonuniylikni, huquqiy munosabatlarni va boshqa huquqiy hodisalarni ularni tegishli huquqiy qadriyatlar bilan taqqoslash yo'li bilan o'lchash, baholashga va shaxslarning, ijtimoiy jamoalarning ushbu hodisalarga zarur munosabatini rivojlantirishga qaratilgan.

5. Kommunikativ funktsiya huquqiy sohada ham fuqarolar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani, ham biz shaxsan tanish bo'lmagan zamondoshlarimiz

bilan, hatto o'tgan avlod vakillari bilan bilvosita aloqani o'rnatishga imkon beradi. Bunday aloqa to'g'ridan-to'g'ri jamiyatda huquqiy ishlarning mavjudligiga, ommaviy axborot vositalarining rivojlanish darajasiga va, albatta, huquqiy madaniyatning boshqa xalqlarning huquqiy madaniyatlarining barcha turlarining yutuqlarini to'plash qobiliyatiga bog'liq. Bashoratli funktsiya huquqiy madaniyatning mumkin bo'lgan rivojlanish yo'nalishlarini oldindan ko'rish, qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish faoliyati oqibatlarini bashorat qilish, belgilangan maqsadlarga erishish uchun eng samarali vositalarni aniqlash, yangi huquqiy qadriyatlarining paydo bo'lishini bashorat qilish va ularning zarurligini tushuntirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Turli xil huquqiy madaniyat turlaridagi mezonlar asosida tasniflanishi mumkin: 1) huquqiy madaniyatni tashuvchisiga qarab shaxs, guruh va jamiyatning huquqiy madaniyatini ta'kidlash; 2) huquqiy hodisalarni bilish darajasi bo'yicha va ulardan huquqiy faoliyatda foydalanish huquqiy madaniyatning oddiy, professional va nazariy darajasini ajratib turadi.

Huquqiy madaniyat- bu shunchaki u yoki bu munosabat emas, balki avvalo uning me'yorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Huquqiy madaniyat insonning tashqi dunyo va odamlar bilan munosabatlarini "normallashtirish" xususiyatiga asoslangan. Tor ma'noda Bu odamlar yoki ularning tashkilotlari o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllangan, davlat tomonidan majburiy va himoyalangan qat'iy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi. Keng ma'noda- bu shaxsning mehnat, muloqot, xulq -atvori, shuningdek, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga munosabati jarayonida amalga oshiriladigan huquqiy bilimlari, e'tiqodi va munosabatlari majmui.

Huquqiy madaniyatning ixtisoslashgan darajasi qonun, huquqshunoslik, jamoat tartibini himoya qilish tizimi va huquqiy munosabatlarni tartibga solish tizimi, oddiy, axloqiy insonning jamiyatda yashashi uchun zarurdir. Ular, siyosat singari, davlat, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladilar, shuning uchun ularning ta'siri jamiyat hayotining barcha muhim sohalariga tarqaladi.

Huquq madaniyati shular jumlasidan elementlar qonun sifatida, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, qonuniylik va tartib, qonun chiqaruvchi, huquqni muhofaza qilish va jamiyatda huquqning ishlashi sohasidagi boshqa faoliyat sifatida va ijtimoiy institutlarning keng tizimiga ega - qonun chiqaruvchi organlar, sudlar, prokurorlar, politsiya, jazoni ijro etish muassasalari.

Qonun odatdan kelib chiqadi, axloq va din bilan chambarchas bog'liq. Turli davrlarda huquqiy madaniyatning har xil shakllari bo'lgan. Zamonaviy huquqiy madaniyat tenglik, erkinlik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Shunday qilib, barcha odamlarni bitta ijtimoiy o'lchov bilan o'lchash, ularning huquq va majburiyatlarini muvozanatli birlashtirish talablari paydo bo'ladi. Shu bilan birga, o'zboshimchalik va qasddan istisno qilinadi, garchi har bir kishi o'z xohish -irodasini erkin ifoda etish va o'z xulq -atvorini izlash huquqiga ega. Bu sizning erkinligingizni boshqa odamlar erkinligini tan olish bilan bog'laganingizda mumkin.

Huquqiy madaniyatning o'ziga xosligi. Har qanday narsa, birinchi navbatda, madaniyatli turmush tarzi, shaxs, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning intellektual, ma'naviy, psixologik va xulq-atvor qadriyatlari tizimi. O'ziga xoslik huquqiy madaniyat Umumiy madaniyatning alohida sohasi sifatida davlat va barcha davlat xizmatchilarining, shuningdek, barcha huquq sub'ektlarining hayotining alohida shakli yotadi. Boshqacha qilib aytganda, bu jamiyatning umumiy madaniyatining bir qismi bo'lib, u huquqiy tizim bilan bog'liq va huquqiy jarayonni boshqaradi. Huquq tizimi huquqiy madaniyatsiz ishlamaydi. Davlat va huquqning jamiyat hayotidagi rolini bilish va chuqur tushunish, bu bilimlarga amal qilishga tayyorlik, kundalik xulq-atvorining amaldagi qonunlarga muvofiqligi, to'plangan huquqiy qadriyatlarga hurmat-bularning barchasi spetsifikatsiyalar ya'ni huquqiy madaniyat.

Har qanday, har qanday, har qanday odamlar jamoasi o'z huquqiy madaniyatiga ega. Huquqiy madaniyat, bir tomondan, ilgari mavjud bo'lgan va shu davrda mavjud bo'lgan, davlatning davlat haqiqati va huquqiy haqiqatini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, bu haqiqatga ta'sir qiladi. Agar u haqiqiy madaniyat bo'lsa, unda u siyosiy va huquqiy sohada ilgari surilgan, qimmatli, ijtimoiy jihatdan oqlangan hamma narsani o'zida mujassam etgan, davlatning tashkil etilishi va faoliyatini takomillashtirishga, amaldagi qonunlarning sifati va samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi. intizom, qonuniylik va qonuniylikni mustahkamlash, har bir insonning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan himoyalangan manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish.

Huquqiy madaniyat jamiyatda mavjud bo'lgan baho va g'oyalarni ifodalovchi va huquqiy sohaga nisbatan ma'lum umid va istaklarni shakllantiruvchi tanqidni ifoda etuvchi, ular bilan chambarchas bog'liq va doimiy aloqada bo'ladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ong kabi huquqiy ongga ham asoslanadi - huquqiy madaniyat.

Huquqiy ongda bo'lgani kabi, huquqiy madaniyatda ham uning tashuvchilarini hisobga olgan holda, kichik turlarni ajratish mumkin. Eng keng tarqalgan hodisa jamiyatning huquqiy madaniyati. Muayyan xarakterli xususiyat va xususiyatlarga ega odamlarning huquqiy madaniyati milliy huquqiy ongning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, shuningdek ijtimoiy guruhlarning huquqiy madaniyati mamlakat aholisi, masalan, keksa fuqarolar, shaharlar, qishloqlar aholisi, ta'lim, kasbiy xususiyatlari bilan aniqlangan guruhlar. Yoqilgan individual huquqiy madaniyat shaxsning olgan ma'lumoti, kasbiy mansubligi, dinga bo'lgan munosabati, yosh ayol yoki qishloqda yashash, yashash muhiti, shu jumladan ozodlikdan mahrum qilish joylarida jinoyat uchun jazo o'tagan lindenslar bilan muloqot. ta'sir. Shunday qilib, ommaviy va guruhli, individual huquqiy madaniyatlar zamonaviy jamiyatning haqiqatidir.

Shaxsning ongli ijtimoiy-huquqiy faoliyati, ya'ni qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida uning huquqiy bilimlardan foydalanishi ommaviy madaniyat madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan huquqiy madaniyatning eng yuqori ifodasidir. Shaxsning tabiiy va boshqa huquq va erkinliklarining kengligi va haqiqiy kafolati huquqiy madaniyatning o'ziga xos birinchi va muhim belgilaridan biridir.

Huquqiy madaniyatning shakllanishi

Huquqiy madaniyatning to'rtta asosiy darajasi (shtatlari) mavjud:

- mafkuraviy (huquqiy g'oyalar);
- normativ (huquqiy normalar);
- xatti -harakatlar (qonuniy harakatlar);
- ob'ektivlashtirilgan (yuridik faoliyat natijalarini mustahkamlaydigan yuridik institutlar).

Bu pozitsiyalardan jamiyatning huquqiy madaniyati o'ziga xos ijtimoiy madaniyat sifatida namoyon bo'ladi, u ma'lum darajadagi huquqiy onglilik, qonuniylik, qonunchilik va huquqiy amaliyotning mukammalligini aks ettiradi va odamlar huquq sohasida yaratgan barcha qadriyatlarni qamrab oladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining tarkibiy qismi va unga bog'liq bo'lgan qadriyat bo'lib, u yoki bu tarzda shaxsning qonuniy faolligini ta'minlaydigan uning progressiv rivojlanish darajasi va xususiyatini aks ettiradi. Bu shaxsning bilimi bilan bog'liq va uning huquqiy ongiga bog'liq.

Rivojlangan ommaviy huquqiy ong, alohida fuqarolarning etuk huquqiy faoliyati - tsivilizatsiyalashgan jamiyatda qonun ustuvorligining asosi, qonun ustuvorligining asosi. Shu sababli, fuqarolarning huquqiy ongini tarbiyalash huquqbuzarliklarning oldini olish, zamonaviy sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashishning zaruriy qismidir.

Huquqiy ta'lim jamiyat a'zolarining ongi va xulq -atvor madaniyatiga maqsadli va tizimli ta'sir bo'lib, ularda qonunni hurmat qilish tuyg'usini va shaxsiy ishonch asosida qonunlarga rioya qilish odatlarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday holda, eng samarali natijaga shaxsning huquqning asosiy qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirishi orqali erishiladi.

Huquqiy ta'lim Bu huquq, bilim va tamoyillar, normalarni uzatish, to'plash va o'zlashtirish, shuningdek huquq va unga amal qilish amaliyotiga munosib munosabatni shakllantirish, o'z huquqlaridan foydalanish, taqiqlarga rioya qilish va majburiyatlarni bajarish qobiliyatidir.

Albatta, tarbiyaning bu shakli har bir shaxs uchun maqbul bo'lavermaydi. Har bir fuqarodan advokat yasashga urinish utopik bo'lardi, lekin huquqiy savodsizlik va huquqiy nigilizmni yengish huquqiy madaniyatni rivojlantirish shartlaridan biridir. Buning uchun jamoat-davlatning doimiy harakatlari zarur tashviqot, ta'lim darajasi. Bunday ishlarning shakllari quyidagilar: aholi o'rtasida ma'ruzalar, ommaviy axborot vositalarida targ'ibot va tarbiya, huquqiy bilimlar bo'yicha ma'ruzalar; umumiy ta'lim muassasalari, kollejlari va yuridik bo'lmagan universitetlarda yurisprudensiya asoslarini o'qitishda maxsus ma'ruza kurslari; malaka oshirish tizimidagi darslar. Ularning barchasi muayyan huquqiy g'oyalar va qadriyatlarni tarqatishga, vizual ravishda huquqiy me'yorlarga rioya qilishga chaqirishga, qonunlarning mazmunini tushuntirishga qaratilgan.

9-mavzu: Milliy tarbiyani shakllantirishda vorisiylik va qadriyatlar uyg'unligi.

Reja:

1. O'zbek tarbiyashunosligida vorisiylik va qadriyatlar ustivorligi.
2. Ajdodlar o'g'itlari va an'analar.

3. Tarbiyani insonparvarlashtirish. Shaxs erkinligi va tarbiya.
4. Tarbiyani insonparvarlashtirish. Shaxs erkinligi va tarbiya.
5. Tarbiyada o'tmish va zamonaviy transformatsiya.
6. Milliy tarbiya yo'nalishlari.

1. O'zbek tarbiyashunosligida vorisiylik va qadriyatlar ustivorligi.

Vorislik-tabiati, jamiyat va bilish taraqqiyoti jarayonida hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik; jamiyatda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda o'zlashishi; ananalarning amal qilishi.

Har qanday ijtimoiy tuzumning qudrati undagi kishilar ma'rifati, ma'naviy salohiyati, insonparvarlikka yo'g'rilgan ta'lim-tarbiya jarayonining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Albatta, bu rivojlanish avlod tarbiyasiga g'amxo'rliksiz amalga oshmaydi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining ilk bosqichidayoq, ta'lim-tarbiya masalasida bir qator axloqiy mo'ljallarni yangilash muammosi yuzaga keldiki, u milliy tarbiyamizdagi ezgu ishlardan ibrat olish ma'naviyatimiz hamda merosimizga ixlos qo'yish, xalqimizning ixlosmandlik an'alarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Biz yoshlarimizni ana shu ijodkorlarimiz, fidoiy olimlarimizning ibratli hayotidan namuna olishga o'rgatishimiz, ularni o'z maslagi va intilishlariga ixlosmand qilib tarbiyalamog'imiz lozim.

Xalqimizningtabiatini anglatuvchi milliy-madaniy an'analari qotib qolgan emas. Balki, ular yangi sifatlar bilan boyishi kerak bo'lgan xalq ma'naviyatiga oziq bo'ladigan va undan ozuqa oladigan shaxsni shaxsga, elatni elatga, millatni millatga yaqinlashtiruvchi va bog'lovchi kuchli omildir.

An'analar bir avloddan ikkinchisiga ibrat orqali o'tib boradi. Ulkan shaxslar ibratlari, ajdodlar ibratlari, ota-ona ibratlari, namunasi bunga misol bo'la oladi.

Inson tug'ilib, yorug' dunyoni idrok etishni boshlar ekan, dastlab atrofdagilardan, ayniqsa, yoshi ulug'lardan ibrat olib, ma'naviy kamolot kasb etib boradi. Bu o'rinda, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-ona, aka-opalari, keyinroq, bog'cha va maktabga borganda, ustozlari uning uchun birinchi ibrat maktabi bo'ladi.

Odamlar jismoniy kuch, iste'dodi jihatidan tent emas va shunga qaramay, biz ularning barchasiga nisbatan ma'naviy qadr- qimmatni birdek joyiga qo'yishga intilamiz. SHubhasiz, ma'naviy egilatarizm, bu - hech qachon etishish mumkin bo'lmagan orzu, biroq, biz unta borgan sari yaqinlashayotirmiz.

Bu yaqinlashish esa ibrat orqali amalga oshadi. Falsafiy pragmatizmning yirik namoyondasi U. Jeyms fikricha, Inson dunyodan ibrat olib, yangi haqiqat yaratadi.

O'tmish ajdodlarimiz tarixiga nazar tashlasak, ular barcha insoniy fazilatlardan ibrat olib yashaganligini, qiyinchilik, mehnatu zahmatlardan cho'chimaganligining guvohi bo'lamiz. Muhammad Muso Al-Xorazmiyning quyidagi fikrlari bunga asos bo'ladi:

“O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlari... sohasida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar... Ulardan biri

o'zidan avvalgilaridan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketardi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharxdaydi, bu bilan qiyinchaliklarni osonlashtiradi... O'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi".

Inson jamiyatsiz yashay olmaganidek, jamiyat ham insonsiz mavjud bo'lmaydi. Har qanday jamiyat o'zini tashkil qilib turgan kishilarning faoliyati, o'zaro munosabati va umrguzaronligi bilan tirikdir.

SHu ma'noda, inson har qanday jamiyat bor bo'lishini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy unsurdir.

Bunday ta'minlanib turish insonning individual shaxsiy ishtiroki, ya'ni biror guruh, qatlam, qavm, elat, xalqyoki millat doirasidagi faoliyati, oila vaturmushdagi xatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, yaratgan boyliklari, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati, orqali namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarning eng muhimi, inson shaxsining ma'naviy qiyofasini shakllantiradigan jihati ibratdir. SHu o'rinda, mustaqilligimizning tayanch nuqtasi - kishilarimizdagi imon-e'tiqodni takomillashtirish omili bo'lgan milliy g'urur va nafsoniyat, milliy fe'l-atvorni shakllantirish ham ibrat va ixlosni o'zaro mutanosibligida yuzaga kelishi hech kimga sir emas. Milliy fe'l-atvorni shakllantirishda na ijtimoiy institutlarning, na ota-onaning, na o'qituvchilarning o'rni haqidagi gaplarga e'tiroz bildirish qiyin. Lekin bir narsani qat'iy anglab olishimiz kerakki, fe'l-atvorni pand-nasihat, dashnom, ma'ruza shakllantirmaydi; uni munosabat va ibrat shakllantiradi.

Har qanday shaxs hayotda o'ziga nisbatan qo'llangan munosabat va o'nta nisbatan ko'rsatilgan ibrat asosida o'zlashtirgan tajribasini qo'llaydi.

Har narsadan yaxshi ibratli, kerakli narsa, sifatni ajratib ola bilish axloqiy kamolotning muhim mezonidir. An'analarda esa xuddi shu tomon juda kuchlidir. An'analari va qadriyatlar har bir millat, xalqning shonli tarixi, ildizlari milliy qiyofasidir.

Bola tarbiyasi sohasidagi milliy urf-odatlarni qunt bilan o'rganish va uni hayotga tatbiq etish juda zarur. Qush uyasida ko'rganini qiladi deganlaridek, kattalarning namunali xulqi, mehnat va oilaviy an'analari, xarakter va kayfiyatlari yosh avlodning hayot xaqidagi qarashlari va g'oyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, bola taqlidchan bo'ladi. SHuning uchun ibrat taqliddan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Tarbiya ishida hamma narsa tarbiyachining shaxsiga, ichki dunyosi va tashqi qiyofasiga asoslanishi lozim. SHu bone, ayniqsa, murabbiyning shaxsiy xislatlari tarbiyaga kuchli g'oyaviy-estetik ta'sir etadi.

Ixlos va ixlosmandlikning ibrat bilan aloqadorligi shundaki, biz barcha yaxshi amallarni, solih ishlarni diniy-axloqiy tarbiya asosida hamda ijtimoiy amaliyotdagi insonparvarlik tamoyillaridan ibrat olish asnosida shakllantirib, o'zimizning amaliy faoliyatimiz, maqsad hamda muddaolarimizga asos qilib olamiz.

Bu shuning uchun ham zarurki, biz azaliy qadriyatlarimizni urf-odatlarimizni bilmay, undan ibrat olmay turib, go'zal xulq va muomala madaniyatiga eta bo'la olmaymiz.

Har bir jamiyat xalqni muayyan maqsadlar va manfaatlar yo'lida uyushtirib turuvchi, safarbar etuvchi g'oyalar va ta'limotlarga muqarrar ravishda ehtiyoj sezadi. Bu-qonuniyat. Odamlarning, ijtimoiy guruhdarning, boshini qovishtirib, birlashtirib turadigan mafkuraviy ta'sir bo'lmasa, parokan- dalik, boshboshdokdik boshlanadi, jamiyatda taraqqiyot bo'lmaydi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy inqiroz avj olib ketadi. Ko'rinib turganidek, jamiyat taraqqiyotini mafkurasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Avvalo, mafkuraning o'zi nima?

Rus olimlari V.I. Kovalenko va A.I.Konstinning fikrlaricha (mafkura) ideologiya tushunchasi dastlab ilmiy iste'molga fransuz ma'rifatparvari Antuan Destyu de Grasi tomonidan kiritilgan. U o'zining "Fikriy qobiliyat haqida etyud" nomli asarida "ideologiya" terminini g'oyalar haqidagi fan, deb baholagan. Keyinchalik, o'zining ko'p jildli asarlaridan biri "Ideologiya elementlari" (1805-1815 yillar)da g'oyalar haqidagi fanni inson tafakkurida qanday paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida batafsil to'xtalib, bu fan xuddi tabiiy fanlar kabi aniq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Mazkur termin o'sha davrdagi boshqa - fransuz olimlari, Kabanis, Gar, Jordano, Lapslin asarlarida ham keng qo'llanilgan.

O'sha davrlardayoq mafkuraviy jarayonlar inson ehtiyojlariga bog'liq holda yuzaga kelishi hamda kishilar o'z faoliyatlari ko'lamini ijtimoiy ehtiyojlar doirasida takomillashtirishi asosida mafkuraning o'zini ham shakllantirish mumkinligini anglab etganlar. Demak, mana shu jihatning o'zi ham mafkura sohasi inson fe'l-atvori, intilishlari, maqsad-muddaolari asosida takomil topishini bildiradi.

Demak, barcha mafkuraviy jihatlar inson, uning tafakkuri, ehtiyoji asosida shakllanar ekan, avvalo jamiyatning o'zini ham insoniylik fazilatlar bilan bezamoqzarur. Insonni olijanob ishlarga ixlosmand qilib tarbiyalash joiz. Ammo bu unchalik oson ish emas. Fikrimizning dalili sifatida Ahmad Donishning inson haqidagi quyidagi fikrlarini keltiramiz: "Inson zuvalasi-shaytoniy, hayvoniy va malokoniy xislatlardan iborat qorilgan xamirdan uzilgandir". SHu bois u doimo hatto qilishga moyildir. CHunki, uning ruhida ijobiylikdan ko'ra, salbiylikka yaqin bo'lgan ikkita - shaytoniy hamda hayvoniy xislat ustundir. SHaxsda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ayni shu holatga alohida e'tibor qaratish lozim.

Inson tabiatdagi qusurlardan forig' bo'lish, milliy istikdol g'oyasiga ixlos qo'yish va uni e'tiqot darajasiga ko'tarish kishilarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning birlamchi asosidir. Lekin, ijtimoiy hayotda shunday g'ayri-mantiqiy holatlar mavjudki, bular, ko'pincha jamiyat tanasidagi nuqson, zararli o'simta sifatida uzoq vaqt saqlanib, davrdan davrlarga ham o'tib boradi.

Ilm-fan, ma'rifatga, shuningdek, tashkiliy uyushqokdikka rag'batning yuksalishi, shaxe va uning faoliyati orqali, jamiyatdagi muammolarning echimini topish kalitini beradi. Odam ma'rifat va bilimga qanchalik intilsa, jamiyat hayotining ma'naviy qiyofasi shunchalik ko'rkam bo'ladi.

Ikkinchi tomondan, kishilar xafsalasini pir qiladigan, ularni muayyan ijobiy jarayonga nisbatan ixlosini qaytaradigan boshqa sabablar ham mavjud. "SHunga ko'ra, inson voqelikni doim ham ijobiy tarafga o'zgartiradi, deb bo'lmaydi. Ajoyib qasrlar bunyod etgan, vohalarni obod etgan ham inson, shaharlarni to'pga tutib

kulini ko'kka sovurgan, o'rmonlarga o't qo'ygan ham odam bolasi (zero, hayvonning qo'lidan bu ishlar kelmaydi). Dunyoni hayratga solgan kashfiyotlar, ko'ngillarni zabt etuvchi g'azallar, dostonlar inson aqli-zakovati, iste'dodi mahsuli, ammo kitoblarni gulxan qilib yoqtirgan, onatuproqni zaharlab, zilol suvni og'uga aylantirganlar ham jo'il sarbozu savodsiz dehqon emas, o'zini tabiat, jamiyat ustidan hukmron bilgan ulamoyu kubarolardir". Adabiyotshunos olim, professor I.Imomnazarovning ushbu mulohazalarida ibrat, tarbiya va ixlosga doir masalalar yuzasidan mushohada yuritishga chorlovchi asos bor. Xo'sh, nima uchun oddiy sarboz yoki dehqon emas, ayni ma'lum iqtidorga, bilimga ega bo'lgan ayrim kishilar buzg'unchi g'oyalarga rahnamolik qiladi?!

Buning boisi o'z maslagi hamda bilimiga nisbatan e'tiqodining sustligi, ixlosining haminqadarligida emasmi? YOki ilmning sayozligi-yu, unga amal qilishga rag'batning yo'qligida emasmi? Xalqimizda: "Ilmga amal qilmagan mulladan..." - deya boshlanadigan maqol bor. Til bilan dil birligi, ish bilan amal birligini ta'minlovchi omil esa kishilardagi bilim, e'tiqod va ixlos yaxlitligidan iboratdir.

Ahmad YUgnakiy o'zining "Hibbat-ul haqoyiq" ("Haqiqatlar arg'umoni") nomli asarida yozganidek: "Bilim bilan baxt-saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas qalbaki (aqcha)"dir. Demak, kishi qalbini nurafshon qiladigan, uni yaxshi amallarga chorlaydigan, ajdodlar merosini e'zozlashga o'rgatadigan rahbari najot ham bilimdir. SHu bois, kishilarimizda mustahkam e'tiqodni, yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirish, milliy g'oyamizga ishonch va ixlosni takomillashtirish uchun avvalo ularni bilimli qilish, o'z xalqi o'tmishini, ma'naviyatini chuqur bilish asosida o'zligini anglashlari zarurligini o'rgatmoq zarur.

Buning yo'li - odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning imon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, otabobolarining muqaddas qadriyatlarini asrab avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularni men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashga eri-shishdir".

Avvalo, shuni qayl etish lozimki mafkura bir muddatda namoyon bo'lib, so'ngra so'nib qoladigan tasodifiy hodisa emas, balki ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi, ularning maqsad yo'nalishlarini ifodalaydigan g'oyalar majmuasidir.

Demak, jamiyatning ma'naviy hayotida mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayni mana shu zaruriyat mafkuraviy immunitetni takomillashtirishning muhim shartidir. Har qanday targ'ibot esa insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgandir. Ayniqsa, bu ishda yoshlarimiz o'qiydigan kitoblarni, adabiyotning ahamiyati katta. Adabiyotshunos Rahmon Qo'chqor adabiyot kuchli mafkuraviy ta'sir vositasi ekanini, lekin uning ko'pincha xolis niyatga ega bo'lmagan namoyondalari g'arazli maqsadlarda foydalanib kelganligini fransuz yozuvchisi Markiz de-Sad fikrlari asosida isbotlashga harakat qiladi. Markiz De-Sad "Fohishaxonadagi falsafa" kitobida yozgan edi: "biz butun dunyoni egallamog'imiz uchun bundan buyon katta muhorabalarda qatnashishimiz, jangu-

jadallar yuritib dunyoning qariyb uzoqo'lkalarida farang askari halok bo'lishi-yu uning jasadi va etiklari chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar biz boshqa mamlakatlarga, sharqqa axloqimizni (to'g'rirog'i axloqsizliklarini — R.Q.) menikiday kitoblar va boshqa yo'llar bilan tarqata olsak, uni o'sha xalqlar turmush tarziga aylantira bilsak jumlai jahon oyog'imiz ostiga yukunib keladi, butun odamzotning qalbiga egalik qilishga muvaffaq bo'lamiz".

Milliy mafkuraning tamal toshi, eng avvalo, uyda, bog'chada, maktabda bolajonlarimiz qo'liga tushadigan o'yinchoqlar, kitoblar, o'quv qurollari bilan qo'yiladi.

Xalqimizga, vatanimizga sadoqat ruhini tarbiyalash uchun quyidagi muhim dolzarb masalalar hal etib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ta'lim muassasalarida bolalarning yoshiga mos dasturlar asosida milliy mafkurani ularning ongiga singdirish maqsadida dasturlar yaratish;
- o'quvchi - talabalar ongida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish ishlarini, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz tarzda olib borish;
- o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy mafkura g'oyalarini teran aks ettirish;
- maktab, litsey, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;
- pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Bunday ishlar har bir fuqaro ongida juda katta mafkuraviy boyliklar yaratadi. Muhimi, xalqimizga, vatanimizga, tariximiz va madaniyatimizga bo'lgan ixlos tuyg'ulari hayotimizni farovon etadi.

Alloma Sulaymon Boqirg'oni "manim hor bo'lishim - o'z g'aflatimdan" degan fikri orqali inson ilmga intilmasa, jaholat qorong'uligida qolib, dunyo oldida g'aflatda bo'lsa, ul qalb hamisha xorlikka mahkumdur, degan umuminsoniy g'oyani ilgari surgan edi. Bu hikmat tarixiy taraqqiyot jarayonlarida doimo o'ziga xos e'tirofini topib keldi.

Xo'sh, ilm olishga ixlos targ'iboti zaruriyatmidir?

Aslida ma'rifatning, ilmning, unga ixlosning ham ilk yo'li ibratdir. Ilm-ma'rifatga ixlos qo'yish, avvalo, oilada ota-ona ibrati hamda tarbiyasi asosida yuzaga keladi.

Ilm insonlarga ularning ahvolini va istiqbolini oynadek ko'rsatib turadi, odamning zehni, fikrlarini o'tkiraydi. Mashhur yozuvchi Stefan Uvelening fikricha ikki kashfiyot insoniyat taraqqiyotining bemsiz tezlashtirib yubordi. Bular- ning birinchisi g'ildirakni, ikkinchisi esa kitob bosishni kashf qilinishidir. Odamzot g'ildirak tufayli tovuqday o'z katagida tuxum bosib o'tirishdan xalos bo'lib, dunyo aylanishi, boshqa xalqdarni taraqqiyot darajasi va bu darajani sirlari bilan tanishishi, o'ziga va o'z hayotiga chet nigoh bilan qarash, boshqalar ko'zglasida o'z hayotini ko'rish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa, kitob tufayli shularning barchasini o'tirgan joyida o'z tasavvuriga kirita oladi.

Nega bugun kam kitob o'qilyapti?

Sabab qilib, bozor iqtisodiyoti, turmush tashvishlari, yugur-yugur, ko'pdan kam bo'lmaslik g'ami, texnikaviy taraqqiyot, kompyuter zamoni, vaqt tig'izligi va boshqalar ko'rsatiladi. Kechagina muk tushib eng og'ir damlarda sham bilan kitob

o'qigan, yozganlarning turmush tashvishlari yo'qmi? Ularning orzu-umidi, qoring'ami, bolalar qayg'usi yo'qmidi?

Bor edi ammo ertaga nima bo'lishini bilish, dunyoni anglash, olamni go'zal ko'ra olish, kelajakni sog'inib, ulug' niyatlarning ushalihi yo'llarini topish, e'tiqod va irodasini toblash uchun kitob o'qirdi. O'qiy olmagani hikmat tinglardi. Bu kishilar dunyoqarashini, ma'naviyatini yuksaltirishga, o'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini yuqori tutishga ichki bir ehtiyojini yuzaga keltirar edi.

Doktor Albert Makob shunday e'tirof etadi: "Ilmiy ishlar bilan shug'ullanishim xudoga bo'lgan ishonchimni mustahkamladi. Hattoki, avvalgidan ko'ra mustahkamroq, asosliroq bo'lishiga olib keldi. Hech shubha yo'qki, ilm, albatta, insonga Ollohning qudratini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Inson o'z ilmiy izlanishlarida yangilik kashf qishani sari uning imoni ham kuchayib boraveradi" (Hamidjon Hamidiy. "Ko'hna SHarq darg'alari". "SHarq" NMK, 1999, 37-bet).

Ilm inson irodasini toblash bilan bir vaqtda hayotda nimadan ibrat olish va nimalardan o'zini tiyish zarurligini ham kishilarga ko'rsatib turadi.

Ilmga ixlos kishilarning muayyan narsa va hodisaga qiziqishi, ishonchi, uning biror g'oyani, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarni, axloq-odob normalarini, qadriyatlarini, o'z faoliyati va ma'naviy kamolotiga asos qilib olishiga zamin bo'ladi.

YOshlarni ilmga ixlosmand, tafakkur hikmatlaridan ibrat olish ehtiyojini o'stirish bilan ruhiy olamini kamol toptirishga oila, bog'cha, maktab va jamoa birdek mas'uldir.

2. Ajdodlar o'g'itlari va an'analar. Imom Abu Homid G'azzoliy "Kimyoi saodat" nomli asarida "Inson farishta va hayvon orasidagi mahluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat. Faqat insondagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud" deya ta'kidlaganida insonlarning yuksak ma'naviyati ifodalangan. Ma'naviyat tarixi, insoniyat sivilizatsiyasi tarixi – bu o'z-o'zini anglash, kamol toptirish uchun olib borgan kurashning natijasidir.

Odamzod tafakkuri, aql-zakovati, layoqati bilan dun-yoni lol qoldiradi, mo'jizalar yaratadi, biroq tuban, jirkanch ishlarga ham qo'l uradi. Bu hol turli zamonlarda goh zohiran, goh botiniy holda davom etaveradi. Allomalar, faylasuf donishmandlar bu savolga javob izlaganlar, o'z davri ma'naviy olami miqyosida o'lmas, buyuk durdonalarini meros qoldirganlar.

Sharq mutafakkirlari nazdida insonda ikki asos mavjud, ya'ni ilohiy-ruhiy quvvat hamda moddiy hayvoniy quvvatdir. Hayvoniy quvvatni olimlar tabiatdagi to'rt unsurdan – tuproq, suv, havo, olovdan deb bilganlar. Bir-biriga zid bu to'rt unsur barcha biologik quvvatlarni harakatga keltirgan. Darhaqiqat, insonni tarbiyalash va insoniy sifatlarini oshirish mumkin. To'g'ri va rahmoniy yo'lga yursa botiniy olamini poklab ma'rifat nuriga to'lib, kamolot sari boraveradi. Ma'lumki, Islom olamida tarbiya masalasi insonni poklash va kamol toptirish ilmiy bo'lgan tasavvuf kishidagi barcha salbiy hislatlarni nafs tushunchasiga bog'lab izohlaydi, shuningdek, ulug' ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Aziziddin Nasifiy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat, Muqumiy va

boshqa allomalar, shoir va olimlarimiz hayoti va ijodi yoshlarimiz uchun tengsiz ibrat va tunganmas ma'naviy, ilmiy merosdir.

Insonparvarlikning ilk namunasi sifatida Xorazm vohasida yaratilgan "Avesto" deb nomlangan bu bebaho ma'naviy obida turkiyzabon va SHarq olamida keng tar-qalgan xalqlarning ma'naviy boyligidir. Unda inson ma'naviyatining poydevori ishonch, halollik, sobitqadamlilik kabi ezgu qadriyatlar asos qilib olingan. Va o'tmishdan ibrat, kelajakka ogohlik bilan qarashdek e'tiqoddan saboq beradi.

Beruniy e'tirofiga ko'ra, "Avesto" ta'limotida davlat miqyosida kishilar birligini ta'minlash kabi mushtarak g'oyalar mavjud. Ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal - bu uch kalomning, unurning birligi insoniyatga xizmat qiluvchi, har qanday chegarani tan olmaydigan gumanizmning poydevori sifatida xizmat qiladi. Va asarda o'z davrining umuminsoniy qadriyati bo'lgan ezgulikka chorlaydigan ta'limotni, g'oyani qidiradi, topadi va rivojlantiradi. Chunki har qanday sivilizatsiya g'oyalar, mafkuralar va ta'limotning o'zaro munosabatlari, ziddiyati, to'qnashuvi orqali kishilar ongiga singib boradi, olamni anglashga, uni o'zgartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Avesto"da kishilik rivojlanishning 3 davrini kuzatish mumkin:

- Odam Yima, oltin hamda baxt-saodat davri;
- Yaxshilik va yomonlik kurashi davri;
- Kelajak davri.

Kitobda ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qilishi, ya'ni yaxshilik xudosi Axuramazda yomonlik xudosi Axrimanni engib borishi tasvirlanadi. Kishilar qalbidagi xislatlar odamlarga ma'naviy qudrat, ruhiy birdamlik beruvchi kuch vazifasini o'taydi. "Avesto"ning ma'naviy qadriyati bugungi kun odamlarining ma'naviy - ruhiy rivojlanishi va kamol topishining ham muhim omilidir.

3. Tarbiyani insonparvarlashtirish. Shaxs erkinligi va tarbiya. Tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va hiziqlashlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya'ni, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Tarbiyani insonparvarlashtirish.

Bu printspga qo'yiladigan asosiy talablar:

- tarbiyalanuvchi shaxsiga insoniy munosabat;
- uning xuquqi va erkinligini xurmat qilish;
- tarbiyalanuvchiga kuchi etadigan va oqilona shakllantirilgan talablarni qo'yish;
- tarbiyalanuvchining xolatini xatto u taqdim etilgan talablarni bajarishidan bosh tortgan paytda xam tushunish;
- kishining o'zibilan o'zi bo'lish xuquqini xurmat qilish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini etkazish;
- talab etilayotgan sifatlarni majburiy shakllantirmaslik;
- shaxsning or-nomus va qadr-qimmatini kamsituvchi jazoga yo'l qo'ymaslik;

- ma'lum sabablar bilan shaxsning xaqligiga zid keluvchi sifatlarni shakllanishini - uning tomonidan to'liq rad etilish xuquqini tan olish.

Tarbiyaviy jarayonning insonparvarlashtirilishi uning demokratlashtirilishi bilan bevosita bog'langan. Demokratlashtirish, dastavval tarbiyaviy tizimning barcha bosqichlarini uslib va metodlarida ko'rinadi. Shu ma'noda demokratlash avtoritarizmning aksidir.

Milliy tarbiya yo'nalishlari. Mustaqil respublikamizda o'quvchi-yoshlarni komil inson etib tarbiyalash oliy maqsadimiz bo'lgan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish"ga xizmat qiladi. Chunki komil inson tarbiyasi milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning orzu-umidlari va asosiy g'oyasi bo'lib kelgan. Shu bois Respublikamizdagi barcha ta'lim tizimida komil insonni tarbiyalash milliy g'oyaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida ushbu masala haqida shunday ta'kidlandi: "O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosan maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. Ayni vaqtda musulmon olami va jahon hamjamiyatidagi munosib o'rnimizni yanada mustahkamlashdir.

Bu avvalambor, ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini biz yaxshi anglaymiz. 1997 yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishi samarasida mazkur soha tubdan isloh qilindi, zamonaviy uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi yaratildi".

Bu o'rinda milliy tarbiyaga milliy rivojlanishimizning asosiy vositasi sifatida qarash va uni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Binobarin, milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan jamiyatda shakllanadi. Milliy urf-odat; me'yorlar, an'analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a'zosiga aylantiradi.

Quyida turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiyaviy konsepsiyalar va qarashlar, dasturlarning qisqacha tavsiflarini keltiramiz. Zero, bunday qiyosiy pedagogik yondashuv milliy tarbiyaning izchilligini, tamoyillarini, mazmunini, usullarini, vositalarini belgilashning tarixiy pedagogik manbalarini ko'rsatishga xizmat qiladi:

1. Avesto: axloqiy uchlik tamoyili. Eramizdan oldin - gi IX asrdan IV asrgacha davrda hozirgi O'zbekiston hududida tuzilgan ijtimoiy-tarbiyaviy majmua. Uning faol ta'siri Markaziy Osiyo xalqlari tarixini eng qadimiy zamonlardan tortib to islom davrigacha davom etdi. Avestoning pedagogik mazmuni Gumata (Gumata — yaxshi fikr), Gukta (Gukta — yaxshi so'z), Gvarshta (Gvarshta — yaxshi ish) tamoyillarida ifodalanadi.

2. SHariat. Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan, Qur'oni karim asosida ishlab chiqilgan, jinoiy, fuqarolik va axloq odob-qoidalari majmui. SHariat diniy-huquqiy tizim sifatida XI—XII asrlarda tugal shakllangan. SHariatda barcha xatti-harakatlar dastlab ikki turga — harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik 5 turga: farz - bajarilishi qat'iy, majburiy hisoblangan axloq me'yorlari; manbud (sunnat) - majburiy emas, lekin ma'qul, lozim hisoblangan axloqiy me'yorlar; muboh - ixtiyoriy me'yorlar; makruh - ixtiyoriy me'yorlar; harom - qat'iy ravishda taqiqlangan hatti-harakatlar. SHariat - namunaviy musulmon, komil insonni tarbiyalashda muhim pedagogik konsepsiya va- zifasini bajargan.

3. «Munosib inson»ni etishtirish. Abu Nasr Forobiy (873-950). «Munosib inson»ni axloqiy-tarbiyaviy ideal hisoblab, uni xush axloq, saxovatli va aql-idrokli qiluvchi narsa - bilim ekanligi asoslanadi.

«Munosib inson» bo'lish uchun odamda ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim kishini nazariy kamolotga erishtiradi, tarbiya esa «kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faollikni yaratishga olib boradigan yo'ldir».

4. Tarbiyaning tabiatga mos bo'lishi haqidagi ta'limot. YA.A.Komenskiy (1592-1670). Tarbiya uch bosqichli vazifalardan iborat: 1) o'zini va tevarakatdagi olamni bilish (aqliy); 2) o'z-o'zini boshqarish (axloqiy); 3) Xudoni tanishga intilish (diniy). Inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi, deb hisoblaydi va buni Injildan olingan matn parchalari bilan asoslaydi.

5. «YAngi axloq». K. A.Gelvetsiy (1715-1771). «Bizning mavjud holatimiz tarbiya tufayli vujudga kelgan», «Tarbiya hamma narsaga qodir». Tarbiya maqsadi sifatida «har bir kishi baxtli-saodatli bo'lishi kerak», - degan g'oyani «millat baxt-saodatli bo'lishi kerak» degan g'oya bilan birlashtira oladigan vatanparvarni etishtirishda, deb tushundi va «Milliy tarbiya rejasi»ni ishlab chiqdi.

6. Milliy tarbiya. Lui Mishel Lepelete (1760-1793). YAngi shaxsni etishtirish Milliy tarbiya uylarida olib borilishi kerak. SHunda tarbiyalanuvchilar muhitning nomatlub, yomon ta'sirini his qilmaydilar. «Milliy tarbiya uylari»da mehnat qilish, jismoniy, aqliy tarbiyaga asosiy e'tibor beriladi. Natijada, baquvvat, meh- natsevar, intizomli va vijdonli yangi yosh avlod, yangi grajdanlar, qizg'in vatanparvarlar tarbiyalanadi.

7. Afrikancha tarbiya. Maqsadi: yosh avlodni Afrika jamiyatida va Afrika sharoitida yashashga tayyorlash. Xalq donishmandligi, ma'naviy, madaniy tajribasini avloddan-avlodga etkazib, afrikaliklarning (mustamlakalik davrida) xo'rlangan qadr-qimmatini, milliy g'ururini tiklashga xizmat qildi va mustaqillik uchun kurashga tayyorladi. Afrikalik har bir bola - o'z qishlog'ining umumiy ma'naviy farzandi, deb idrok qilinadi. Bola 6-7 yoshga kirguncha uning tarbiyasi bilan ona, 7 yoshdan osh- gach, o'g'il bolani otasi yoki tog'asi tarbiyalaydi, 10-11 yoshdan o'g'il-qizlar kasbga, 15-16 yoshdan oila qurishga tayyorlay boshlanadi.

8. Madaniyatga mos tarbiyalash. Adolf Disterverg (1790-1866). Tarbiya bilan muhit, o'lka, milliy madaniyat, jamiyat hayoti o'rtasida mustahkam aloqa bog'lash zarurligi ta'kidlanadi. Tarbiya chog'ida bolaning tug'ilgan va yashashi

kerak bo'lgan joy, Vatanning sharoitiga, zamonaviy, milliy madaniyatga tayanish talab qilinadi.

9. Javonmardlik (futuvvatchilik) tariqati. Javonmardlik dastur va qoida talablari orqali umrini do'stga bag'ishlash, faqat yaxshilikni o'ylab, borini o'zgalar bilan baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, piru ustoz, do'st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan pok, pokiza insonlar suhbatini qozonishga intiluvchi, muayyan qonun-qoidaga rioya etuvchi, ma'naviy va jismoniy etuklikka intiluvchi, mardlik va olijanoblikning namunasini ko'rsatuvchi, zulm va haqsizlikka qarshi kurashuvchi, boylikdan insonni ustun qo'yuvchi yosh yigit (farzand)larning ustoz (ota) tomonidan tarbiyalanishiga qaratilgan ma'naviy-tarbiyaviy harakat X asrdan boshlab Movarounnahrda amalda bo'lgan.

10. «Vatan tarbiyasi». Rus dekabristlari. XIX asr oxiri - XX asr boshi. YOsh avlod rus xalqi urf-odatlariga, umuman rus xalqiga bepisand qarash va G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona sig'inishga qarshi chiqdilar. Tarbiya rus tilida, rus urf-odatlariga hurmat ruhida olib borilishi kerakligi talab qilindi.

11. Jadidchilik (Usuli savtiya). SHarq xalqlari ma'naviy hayotida, maorifida taraqqiyparvar oqim. Islom dinining rolini saqlab qolgan holda, musulmon maktablarida dunyoviy fanlarni ham ona tilida o'qitishga, turkiy xalqdarni ilm-ma'rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan tenglashtirishga ilk harakatlar qilindi. Bu harakatlarning shiori: yangi usulda ta'lim va tarbiyani Ovrupo sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovrupo sivilizatsiyasini o'rganib, milliy madaniyatga xizmat ettirish edi.

12. Tarbiyaning xalqchilligi, milliyligi. K. Ushinskiy (1824-1870). Tarbiya xalqning tarixiy taraqqiyotiga bo'ysunadi. Kelajakka xalqning o'zi yo'l ochib boradi, tarbiya esa shu yo'ldan boradi va birgalikda harakat qilib, ayrim shaxs va yangi avlodga bu yo'ldan borishga yordamlashadi. SHuning uchun garbiya tizimini o'ylab chiqish yoki boshqa xalqlardan olish yaramaydi. Tarbiya hamisha xalqchillikka, milliylikka tayanishi lozim. «Har qanday tarixiy xalq Xudo er yuzida yaratgan eng ajoyib mavjudotdir va tarbiyada ana shu boy hamda sof tuyg'u boshqa xalqlarni hurmat qilish bilan birga bo'lmog'i kerak».

13. Ekzistensializm. Tarbiya har bir bsnazir shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi va ro'yobga chiqarishi uchun butun kuchlar bilan sharoit yaratishi kerak. SHaxs uchun palapartish, bir zumlik bo'lsa-da, lekin o'z «shaxsiy» bahosi, nuqtai nazari, «ong va tafakkur oqimi», tuyg'usi, hayajoni bo'lishi kerak. Bu nazariya shaxsning jamiyatda, xalq, millat hayotidan chiqib, o'z «qobig'iga» bekinib olishiga olib keladi. Ilmiy bilimlarni sistematik o'rganishni besamar mashg'ulot deb qaraydi. CHunki bolaning qo'qqisdan, kutilmaganda paydo bo'luvchi histuyg'u va xulosalari birlamchi, deya maqsadga yo'naltirilgan o'quv, tarbiyaviy jarayon inkor qilinadi.

14. Konant pedagogikasi. J. Konant pedagogikasining maqsadi - o'z ichidagi sinfiy farqlarni sezdirmay yuboradigan darajadagi milliy birlikni yaratish.

15. Eksperimental pedagogika. V. A. Lay (1862-1926), E. Torndayk (1874-1949). Falsafiy-pedagogik qarashlar quruq nazariyalikda ayblanib, pedagogikaga aniq fanlarga xos eksperimental psixologik metodlar tatbiq etila boshlandi. Anatomiya, fiziologiya, psixopatologiya va pedagogika fanlari

ma'lumotlarini umumlashtirib foydalandilar. Lekin ular nazariy xulosalar yasay olmadilar. Chunki bolani muayyan ijtimoiy-milliy muhitdan ajratib olib, biologizatorlarcha talqin qildilar.

16. Ijtimoiy rol, ijtimoiylashuv konsepsiyalari. Bu oqim pedagogika fani oldiga shaxsni kelajakda jamiyat uchun kerak bo'lgan u yoki bu ijtimoiy rolni bajarishga tayyorlashni vazifa qilib qo'yadi. YA'ni inson jamiyat tomonidan yozilgan dramaning u yoki bu personajidir. Har bir shaxsning ijtimoiy rollari «repertuari»da uning «milliy roli» ham bor, deb hisoblaydi.

17. «Ovrupo tarbiyasi». G'arbiy Ovruponing pedagogik hamdo'stlik nazariyasi. Asosiy tarbiyaviy maqsadi - G'arbiy Ovrupo yoshlarini Umumovrupo ijtimoiy hamdo'stligi ruhida tarbiyalash.

18. «Talabchan muhabbat. A. S. Makarenko (1888-1939). «Erkin tarbiya» ni tanqid qildi va bolalarga nisbatan «talabchan muhabbat»li munosabat bo'lmog'i kerakligini asosladi. Pedagogikani eng dialektik va murakkab fan deb bildi. O'zi asos solgan tarbiya tizimida bola shaxsini jamoada va jamoa orqali tarbiyalashga katta ahamiyat berdi. Ilk bor tarbiyaviy jarayonni texnologiya sifatida ta'rifladi.

19. «O'quvchilar uchun qoidalar» (1943). O'quvchilarning maktabdagi va maktabdan tashqaridagi xulq-atvor qoidalari belgilandi. «Qoidalarni o'quvchilar o'rgandilar. Ammo rasmiy munosabatda bo'ldilar. O'quvchilar qoidani sharillatib aytib berar, lekin uni turmushda qo'llamas edilar».

20. O'quvchilarni tarbiyalashning taxminiy dasturi. I. S. Marenko. Sobiqsovet maktabida har tomonlama rivojlangan kommunistik jamiyagning faol quruvchisini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiquvchi vazifalar: kommunistik dunyoqarash; mehnat tarbiyasi; kommunistik axloq; sotsialistik internatsionalizm; sovet vatanparvarligi; burjua mafkurasini fosh qilishni amalga oshirishning tipovoy tavsifanomalarni o'z ichiga oldi.

21. Milliy maktab va tarbiya. SH. A. Amonashvili (Gruziya), R. Hasanov (O'zbekiston) va boshqalar bu masalani 1988 yildan boshlab qayta ko'tardi. Ta'lim tilining milliyligi maktabni milliylashtira olmadi. Gruzin bolalari o'qiydigan maktab gruzin, o'zbek bolalari o'qiydigan maktabda o'zbek madaniyati ruhi ufurib tursagina bunday maktablarni milliy maktab deyish mumkin, deb hisobladilar. Hozirgi vaqtda Rossiya va boshqa sobiq sovet respublikalarida ham maktablarni milliylashtirish davom etmoqda. Ushbu masala bo'yicha YUNESKO o'zining birinchi Xalqaro konferensiyasini o'tkazdi (1993 yil mart).

10-MAVZU: YURT TARAQQIYOTI UCHUN MAS'ULLIK VA BURCHLILIK

1. Yoshlarda yurt taraqqiyotiga xizmat qilish malakasini hosil qilish va bundan faxrlanish tuyg'usini his eta olishni shakllantirish.
2. Yosh avlod vakillarining yurtimiz taraqqiyoti va ravnaqiga shaxsiy hissasini

Barcha asrlarda mamlakat kelajagi yoshlar uchun edi. Inqilob, taraqqiyot va rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari- bu yoshlar edi. Davlat ularga urush paytida, urushdan keyingi davrda, inqirozlar davrida tayanishi aniq edi. Axir, bu yosh, sog'lom odamlar yangi erlarni ko'tardilar, qudratli binolar qurdilar, aqlga sig'mas tushlar yaratishdi va ularni hayotga qaytarishdi..Katta avlodning vazifasi

yoshlarga ushbu murakkab dunyoda o'zlarining munosib o'rnini topishga yordam berish, o'zlarini imkon qadar anglab etishdir, chunki ularning qo'lida tug'ilgan shahar, viloyat, mamlakat kelajagi - va hamma bu qo'llarning kuchli va ishonchli bo'lishini xohlaydi!

Davlat yoshlarga investitsiya qiladigan har bir narsa natija bilan taqdirlanadi. Ma'rifatli yoshlar - bu mamlakat doimo dam oladigan ustunlardir. Agar yoshlar yoshlarga vatanparvarlik va o'z vataniga muhabbat tuyg'ularini singdira olsalar, ular o'z navbatida qalblarini uning rivojlanishi va obodligiga qo'yadilar.

Barcha zamonlar va xalqlar tarixida yoshlar har doim asosiy rolni o'ynagan. Va bu bejiz emas, chunki yoshlar faol fazilatlariga ega - adolat, jasorat, sharafiga chanqoq. Agar kimdir o'zining yoshligidagi faqat kamchiliklarni sezishga moyil bo'lsa, biz amerikalik shoir Louuildning so'zlari bilan javob beramiz: "Ehtimol, yoshlar axloqsizdir, ammo yoshi bilan tezda davolanadi". Bu gap zamirida juda kata ma'no yotadi va buni anglab yetish qiyin ish emas!

Yoshlik - bu barcha muammolar tezda hal qilinishini, to'siqlar osongina engilishini va orzularning amalga oshishini istagan vaqt. Ushbu davr uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi kerak. Yoshlar o'zlarining g'oyalari, ehtimol qayerdadir xavfli, hayoliy, ammo aniq rivojlangan bo'lib, kattalar hamkasblariga mamlakatda yaxshilanishlarga yordam berishini tushunishlari kerak.

a)Hozirgi yoshlar o'z kuchlarini zamonaviylashtirishga va ularni ruhan yaqinroq yo'nalishga yo'naltirishga qodir. Yoshlarning g'ayrat-shijoati, ko'plab masalalarga innovatsion yechimlar, yorqin g'oyalar, o'z maqsadlariga erishish qobiliyati jamiyatimiz tomonidan doimo talabga ega.

Bugungi kunda, va har doimgidek, yoshlarda qopollik odat tusiga kirgan. Ularga shafqatsizlik, yaqinlik, beparvolik kiradi.. Hamma odamlar bir-biridan farq qiladi, har birining o'ziga xos xususiyatlari, orzulari va intilishlari bor. Bunday odamlar shunchaki motivatsiyaga ega emaslar. Ular kim bo'lishni xohlashlarini, nima qilishlarini va vatanlari uchun nima qila olishlarini to'liq tushunishmaydi. Shu sababdan yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor mustaqillikning ilk yillaridan qaratildi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga qaratilgan farmonlari e'lon qilindi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va

san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Yig'ilishda bu tajribani mamlakatimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mamlakatning yoshlarga oid davlat siyosatining tarkibiy qismidir. Mamlakatingizning vatanparvari bo'lish har doim g'urur va qadr-qimmatga ega bo'lgan har qanday odam uchun katta sharafdir. Ammo ular vatanparvarlar emaslar. Bundan tashqari, dadil rivojlanayotgan davlatda vatanparvarlik ta'limini faqat ijodiy jarayon sifatida baholamaslik kerak. Shuningdek, bu yoshlar uchun kurash, mamlakat kelajagi, majburiy migratsiya, jinoyatchilik, giyohvandlik, alkogolizm va ekstremistik kayfiyat kabi salbiy hodisalarga qarshi kurash.

Bu illatlar yoshalarimiz ongi zaharlamasligi uchun barcha bir dek ma'sul.

b) Bizning respublikamiz fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi va millatidan qat'i nazar, adolatli qonunlar, teng imkoniyatlarga ega bo'lgan, erkin, iqtisodiy rivojlangan mamlakatda yashashni istaydilar.

Har bir insonda bolalikdan vatanparvarlik tuyg'ularining asoslari yaratilishi kerak. Shu sababli, o'sib kelayotgan avlodning vatanparvarlik ongini shakllantirish jarayonida bolalar bog'chasi, maktab va boshqa har qanday ta'lim muassasasining o'qituvchilar tarkibi, oila va umuman jamiyatning birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil etishning roli juda katta. Ushbu strategiya hozirda maktab stolidan o'tirganlar tomonidan amalga oshiriladi. Maktabning vazifasi fuqarolik faol insonni tarbiyalashga qaratilgan. Maktab yosh avlodni yuksak axloqiy tamoyillar, demokratiya madaniyati va vatanparvarlik hissini tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynashi kerak.

Atoqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olinib, bu tajribani butun respublikaga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musiq va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi respublika bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi qo'yildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruktsiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar-o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Uchinchi tashabbus bo'yicha videoselektorda yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish bo'yicha innovatsion ko'nikmalar beriladi, "startup" loyihalarga yordam ko'rsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo'lishiga qaramasdan, internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini

zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o'yinlari markazlarini tashkil etish, ularda yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo'lishi zarurligi ta'kidlandi. To'rtinchi tashabbus bo'yicha yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi. Lekin ko'plab qishloq va mahallalarda buning uchun zarur sharoit mavjud emas. Ilgarigi kutubxonalar o'rnida tashkil etilgan "Axborot-resurs markazlari" o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi.

Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlar sonidan kelib chiqqan holda joylarga qo'shimcha kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga "Kitob karvoni" loyihasi doirasida badiiy, ma'rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'lmagan miqdorda yetkazib berish bo'yicha topshiriq berdi. Mahalliy hokimliklar har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etishi kerakligi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko'chma kitob pavilonlarini joylashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda "Bibliobus"larni yo'lga qo'yish orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish vazifasi qo'yildi.

Beshinchi tashabbus bo'yicha yig'ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda sendvich panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Bo'layotgan o'zgarishlardan biri bu Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Hukumat qarori qabul qilindi hamda tuniversitet va uning filiallarida 2018-2019-o'quv yilidan boshlab axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha o'qitishning kredit tizimi joriy etilishi O'zbekistonning oliy ta'lim tiziminig yangi boshqichga ko'tarilishidir.

Yoshlarning o'zi qiziqqan kasb egasi bo'lishi bilan bir qatorda sport mashg'ulotlariga jalb etish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar ham yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarilgan. Zero, "Sog' tanda sog'lom aql" deydi donishmand halqimiz.

Bugun biz ma'naviyatimizni asrashimiz, vatan kelajagi uchun mustahkam poyedevor bo'laoladigan munosib farzand bo'lishimiz, oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimiz tomon mardonavor qadam tashlashimiz, buyuk ajdodlar izi ekanimizni anglamog'imiz, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni, ulug' ajdodlarimiz merosini chuqur o'zlashtirishimiz bugungi tez o'zgarayotgan hayot

voqeligiga ongli qarab mustaqil fikrlashimiz va ona vatanimizdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga daxldorlik hissi bilan yashashimiz, eng muhimi otamizdan meros istiqlolni jon-u tan bilan asrashimiz lozim. Ishonchim komilki, ana shunday noyob, insoniy fazilatlariga, yuksak ma'naviyatli, qorachig'i g'ayrat va shijoatga to'la munosib farzandlari bor xalq hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Alohida ta'kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da ham bu masala alohida o'z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

- birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- ikkinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

- uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo'yildi. Ushbu hujjatga e'tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko'rish mumkin.

O'z navbatida, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resusrlar izlab topilmoqda.

O'zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamoqda. Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'li javob bera olishiga bog'liq.

Shu maqsadda, mamlakatda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklandi. Keying ikki yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Kelgusida real hayotga keng joriy etiladigan ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana 1,5 mingta to'garak tashkil etiladi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va «Yoshlar klublari» faoliyati yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko'rib, barcha umumta'lim maktablari sport anjomlari bilan to'liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari soni yanada

Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etiladi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovatsion ko'nikmalar shakllantiriladi, «startup» loyihalarga yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bosqichama-bosqich amalga osiriladi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o'yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlanish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi.

Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, yangi tashabbus doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'magan miqdorda kitoblar yetkazib berildi. Shuning barobarida, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etiladi, ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib, «Bibliobus»lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib boriladi.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida 2019–2020-yillarda barcha tumanlarda 195 ta tikuv-trikotaj korxonasi barpo etish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olindi. Natijada 24 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratish nazarda tutilgan.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, unung samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

11-MAVZU: AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

1. Insoniy fazilatlar va axloq.
2. Tarbiyaning Sharq modeli.
3. J.Rumiyning mo'min inson tarbiyasi.
4. A.Navoiyning komil inson g'oyasi.
5. Sharq uyg'onish davri allomalarining (Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi) ilmiy merosi.

Insoniy fazilatlar va go'zal xulqlardan biri qanoatdir. Ulamolalar uni shunday ta'riflaydilar: qanoat – o'zidagi ne'matga shukr qilish, boshiga tushgan musibat, qashshoqlik va qiyinchiliklarga sabr-bardoshli bo'lish. Qanoat Alloh taoloning

taqdiroti va taqsimotiga rozilikdan paydo bo'luvchi ko'ngil boyligi bo'lib, u hasad, tama, ochko'zlik, adovat, baxillik kabi illatlarning shifosidir. Abdulla Avloniy aytadi: "Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur". Demak, qanoat komil mo'minlikning belgilaridan ekan.

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlar qanoatni o'zingizga lozim tuting. Chunki, qanoat tuganmas boylikdir", dedilar.

Boshqa muborak hadisda esa bunday deyilgan: "Boylik mol-dunyoning ko'pligida emas, balki, (haqiqiy) boylik ko'ngil boyligidir". Muhammad Husayn aytadi: "Qanoat aqlli odamlarning fazilatidir. Ammo qanoat rizq qidirish va kasb bilan shug'ullanishdan tiyilish degani emas. Balki, kasb tufayli topgan narsasiga shukr qilish va ortiqchasiga intilmaslikdir". Buning boisini anglash uchun ulug' sahobiy Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu)ning ushbu so'zlariga quloq tutishimiz lozim:

"Biror kun yo'qki, bir farishta: "Ey Odam bolasi, senga kifoya qiladigan oz narsa seni tug'yonga ketkazadigan ko'p narsadan yaxshiroqdir", deya nido qilmasa".

Qanoatli inson umri mobaynida doimo baxtiyorlikni his etib yashaydi. Shu bilan birga, boshqalarga ham yaxshi muomalada bo'ladi, ularni ham o'zi kabi shodlik sari yetaklaydi. Shuning uchun qanoatli kishini barcha hurmat qiladi.

Hakimlardan biri aytdi: "Odamlar ichida eng uzoq g'am-anduh chekuvchi kimsa hasadchi ekanini, hayoti eng baxtiyor kechuvchi kishi esa qanoatli inson ekanini ko'rdim".

Muhammad Zehniy shunday yozadi: "Qanoat nima?" deb so'radilar. Javob berib aytili: "Birovlarning qo'lidagi narsani ko'rib, mayus bo'lmaslik va tamagirlikdan qochish. Chunki, tamagirlik, albatta, kambag'allik sari yetaklaydi". Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, yurtimiz tinch, hayotimiz osuda va farovon bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda jamiyatimizda turli huquqbuzarliklarning sodir bo'lishi, yoshlar orasida jinoyatchilikning ortib borishi, shuningdek, oilaviy kelishmovchiliklar va ajrimlarning ko'payishi, aksar hollarda, qanoatsizlikdan kelib chiqayotgani bor haqiqat. Demak, ana shunday noxushliklarning muolajasi va oldini olish chorasini qanoat deb atalmish ko'ngil boyligini hosil qilishdan izlashimiz zarur.

Inson fazilatlari - bu shaxsni barqaror aqliy shakllanishi, jamiyatga ta'sir qiladi, faol ish olib boradi, boshqa odamlar bilan muloqot qiladi. Insonni inson sifatida tavsiflash uchun, u o'zini xulq-atvorini namoyon qilishi kerak, chunki u o'zini boshqalar bilan harakat va harakatlar orqali ochib beradi.

Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishda genetik nosozlik muhim rol o'ynaydi, lekin inson rivojlanadigan muhitni istisno qila olmaydi. Boshqa odamlarning atrofida bola turli xulq-atvorni o'ziga oladi, u yoki boshqa harakatlarga his-tuyg'ularni va munosabatlarni o'qishni o'rganadi va jamiyatda qanday fazilatlarni qondirish mumkinligini tushunmaydi. Insonning shaxsiyati butun umri davomida rivojlanadi va odamning tez-tez o'zini yaxshi yoki yomon tomondan isbotlash uchun tanlash bor.

Insonning yaxshi fazilatlari. Yaxshi odamning fazilatlari odamlarga doimo javob beradi va jamiyatda rozilikni topadi. Bu fazilatlarni abadiylikka sarflash

mumkin, ba'zilar ajdodlardan meros bo'lib, boshqalari bo'lsa, kerak bo'lsa, rivojlanishi kerak. Insonning ijobiy sifati - ro'yxat: 1) samimiylik; 2) quvnoqlik; 3) optimizm; 4) ishonchlilik; 5) muloyimlik; 6) joziba; 7) takroriylik; 8) sadoqat; 9) adolatsizlik; 10) solihlik.

Insonning yomon xislatlari. Salbiy xususiyatlar yoki fazilatlar har bir insonga xosdir, hatto qadimiy dindorlar insonning ikkiyuzlamachiligiga ishora qiladilar va unga "yaxshi" va "yovuz" ikki bo'ri bilan - yaxshi va yomon, o'zlari bilan jang qilishgan va taqqoslaganda ko'proq g'alaba qozonishadi. Bolaning axloqiy va axloqiy qadriyatlarini bilmagan bolalari, aksariyat hollarda bunday bolalar noto'g'ri oilalarda o'sib-ulg'ayishadi, lekin yomon odam tabiatda tabiatga xosdir. Insonning salbiy sifati - ro'yxat: 1) hasad qilish; 2) xudbinlik; 3) takabburlik; 4) ikkiyuzlamachilik; 5) noumidlik; 6) dangasalik; 7) agressivlik; 8) shafqatsizlik; 9) ochko'zlik; 10) makkorlik; 11) yolg'onchilik; 12) befarqlik.

Barcha insoniy fazilatlar asosiy ehtiyojlardan kelib chiqadi - qabul qilinishi, hurmat qilinishi, xavfsizligi uchun yashash, o'zini ta'minlashi uchun, shuning uchun aloqa to'g'ridan-to'g'ri. Faoliyatni yaratish kerak va ehtiyojlarni qondirish uchun, masalan, taniqli kishilarning ba'zi bir sifati, masalan, professionallar kerak. Sportda g'alaba qozonish uchun chidamlilik, o'z-o'zini boshqarish va qat'iyatlilik muhim ahamiyatga ega. Faoliyat yo'nalishini tanlashda shaxsiyat uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sifatlarni oshiradi.

Insonning jismoniy fazilatlarini uning chidamliligi va tabiiy ma'lumotlari bilan belgilanadi, yuqori darajadagi boshqa fazilatlar xarakterga xos xususiyatlarga, dispositionga mos keladi. U va boshqalar hayot davomida shakllanadi, ularning aksariyati bolalikda ham shaxsiyatni shakllantirish uchun muhimdir. Xususiyatlari axloqiy, axloqiy, qobiliyatli, professionaldir - ularning barchasi insonning ichki dunyosini, u nima ekanligini aks ettiradi.

Insonning axloqiy fazilatlarini. Axloq va axloq bilan chambarchas bog'liq va bu fazilatlar bir-biridan kelib chiqadi. Madaniy insonning xushmuomalalik, xushmuomalalik, ularning merosi va tabiatiga ehtiyotkor munosabati jamiyatda farovonlikning asosi hisoblanadi. Ahloqiy fazilatlarini aniqlash va quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- insonlarga xayrixohlik, zaif va noqulay ahvolga yordam berish;
- boshqalarga hurmat - har bir odamning farqli ekanini tushunish va har bir insonning hurmatga sazovor joyi borligini anglash;
- sadoqat - bu o'z-o'ziga (o'z printsiplariga sodiq bo'lish) va yanada global tushunchani - Vatanga sodiqlik bilan bog'liq bo'lgan sifat;
- o'zboshimchalik qilmaslik - o'z manfaatini ko'zlamasdan, harakatlarning yaxshi niyatlardan voz kechishi;
- ma'naviyat insonning ruhini yuksaltiruvchi barcha axloqiy jihatlari va dindorlikni o'z ichiga olgan sifatdir.

Intizomli kishining sifati jamiyatning mavjudligi uchun muhimdir. Jamiyatning me'yorlari va qadriyatlari odamlar uchun o'zlarining farzandlariga yo'nalish berish va ularni o'tkazish uchun bir xil umumiy asos yoki asosdir. Odam o'zini yurish-turishi va xulq-atvori bilan ifodalaydi - bu aql, his-tuyg'ular va iroda

orqali paydo bo'lgan axloqiy fazilatlaridir. Shubhasiz, insonning axloqiy fazilatlarini uchta toifaga bo'lish mumkin: “zarur”, “mumkin”, “mumkin emas”.

“Kerakli” toifadagi axloqiy fazilatlar - umumiy manfaatlar uchun harakat qilish qobiliyati: 1) qarzlar; 2) javobgarlik;

“Imkoniyat” toifasidagi sifat - bu ichki e'tiqod va tamoyillarga zid bo'lmagan shaxsning namoyon bo'lishi: 1) sharaf; 2) qadr-qimmat; 3) vijdon; 4) adolat tuyg'usi.

“Imkoni yo'q” toifasining axloqiy sifati - jamiyat tomonidan ayblangan va odamlar orasida yoqmaslikka olib keladi: 1) hasad qilish; 2) sharmandalik; 3) ayyorlik; 4) yolg'on gapirish.

Insonning ijtimoiy xislatlari. Odamlar jamiyatdan tashqarida yashay olmaydilar, har bir shaxs sifatida, odamlar jamiyatda bir-biri bilan o'zaro muloqotda. Inson jamiyatga ta'sir qiladi va jamiyat insonga ta'sir qiladi - bu jarayon har doim ikki tomonlama. Har bir inson bir qancha ijtimoiy rollarni ijro etadi va har bir rol uchun uni ochib beradigan bir qator fazilatlar mavjud. Insonning ijobiy fazilatlariga unga jamiyatda eng yaxshi tomonlarni ochib berishga yordam beradi. Insonlarning ijtimoiy xislatlari:

- o'z-o'zini anglash - bu insonning ijtimoiy tizimda o'zini tan olishiga imkon beruvchi muhim qobiliyatdir;

- ijtimoiy identifikatsiya qilish - shaxsni ongli yoki hissiy jihatdan boshqa shaxslar bilan tanishtirish qobiliyati;

- o'z-o'ziga hurmat - o'zingizni o'zingizning qadr-qimminatingizni kamroq yoki kam qilmaydigan darajada baholash qobiliyati o'z-o'zini anglashning muhim tarkibiy qismidir;

- ijtimoiy faoliyat - jamiyatni rivojlantirish uchun ijtimoiy ahamiyatli tadbirlarni ishlab chiqarish uchun ko'nikma va qobiliyat;

- dunyoqarash - insonning jamiyatga va dunyoga nisbatan munosabatini belgilovchi fikr, qadriyatlar, normalar va munosabatlar majmuasi.

2. Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutishiga, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu kabilarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan “eskilik sarqiti” deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik.

Sharqona odob ming yillar maboynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Jumladan, Qur'oni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambar alayhissalom hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining hikmatomuz kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. U go'daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-ko'yda, kattalar oldida o'zini qanday tutish lozimligigacha barcha jihatlarini o'z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni,

ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan. Masalan, Rasululloh hadislarida: "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!", "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi", deyilgan. Demak, o'tmishda tarbiya berish hammaning vijdoniy burchi deb qaralgan.

Komil inson fazilatlarini o'zida ifoda etgan asarlar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muxsiniy" va boshqalar. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik va soflik, poklik, to'g'rilik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlarini berilgan.

Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlarini sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish – yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil, sahiy, mard, halim, xushhulq, sabrli, sadoqatli, vafoli bo'lish, rozi-rizolik bilan kun o'tkazish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy ahamiyatga ega.

Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iymonli bo'lish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo'lish nechog'lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Quyidagi ta'rifda komil insonning asosiy xususiyatlari har taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilingan: "Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".

Muxtasar qilib aytganda, sharq ma'naviy merosida ma'naviyat va ma'naviy barkamollik masalalariga katta e'tibor berilganligining asosiy sabablaridan biri inson va uning hayoti eng oliy qadriyat ekanligidir. Sharq ma'naviyatida dunyodagi barcha ne'matlar insonning faqatgina yaxshi yashashi uchungina xizmat qilmog'i shart ekanligi e'tirof etiladi. Chunki, bu ne'matlarining barchasi insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishi mumkin, halos. Shuning uchun bu birlamchi masala emas. Masalaning avvali, insonning ulug'ligi hamda yuksak kamolatga yetishish orqali Komil inson martabasiga erishish yo'lidir. Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi eng to'g'ri yo'l ekanligi va bu bilan avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy merosning ahamiyati juda katta ekanligi asoslangan. Holbuki, o'sib kelayotgan avlod, komil inson bo'lish, halollik, to'g'rilik, poklik va adolat bilan kun kechirish kabi ko'pdan-ko'p olijanob fazilatlarining ma'nomazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish,

ularga doimo amal qilib yashash-odamzotning ma'naviy boyligini, komilligini belgilab beradigan asosiy mezon sanaladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi'da shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi, deb ko'rsatib o'tiladi. Demak, davlat tomonidan uning ta'lim xizmatlari iste'molchisi sifatida bilim olishi va kasb-hunarga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoit yaratiladi. O'z navbatida shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida kasbiy malakaga ega bo'lgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borib, bilimi va tajribasini namoyon etadi. Bu esa ta'lim jarayonida aqlan rivojlangan, ma'naviy-axloqiy shakllangan, jismoniy yetuk, muayyan kasb-hunar asoslarini puxta egallagan, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy talablar qo'yadi

Shunga ko'ra, dastavval "shaxs", "inson", "barkamol shaxs" tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirish taqozo etiladi.

Shaxs qator ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlarining o'rganish ob'ektidir. Falsafa shaxsni uning ijtimoiy ahvoli, faoliyati, bilish, ijod sub'ekti sifatida qarab chiqadi. Psixologiya shaxsni psixik holatlar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik munosabatlar, shaxsning temperamenti, fe'l-atvori, qobiliyati, irodaviy fazilatlar va hokazolarning uyg'unligi asosida o'rganadi.

Sotsial yondashuv esa shaxsning ijtimoiy o'ziga xosligini belgilab beradi. Faylasuflarning fikrlariga ko'ra shaxs keng ma'noda – inson individ, kishi; tor ma'noda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari bilan boshqalardan farq qiluvchi muayyan jamiyat a'zosi. "Inson" tushunchasi barcha kishilarga xos bo'lgan sifat va qobiliyatlarni ifodalash uchun qo'llaniladi va hayot, faoliyat usuli bilan farqlanadigan odam, inson sifatida sub'ektlarning tarixiy birligini ifodalaydi. Inson tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlari va barcha zamonlarda o'ziga xos mavjudot sifatida muayyan antologik maqomni saqlab keladi. Insonning o'ziga xosligini ifodalaydigan xislatlar va fazilatlar uning individualligini belgilaydi. Individ esa insoniyat vakili bo'lib, ijtimoiy va psixologik belgilar (jumladan, aql-idrok, iroda, ehtiyojlar, qiziqish, mayllar va hokazolar)ni o'zida ifodalaydi. "Individ" tushunchasi "alohida inson" sifatida tushuniladi. Masala bunday qo'yilganda turli biologik omillar (yosh xususiyatlari, jinsi, temperamenti)ga muvofiq inson hayoti va faoliyatining ijtimoiy xususiyatlari belgilanadi. Insonning individual, shuningdek, tarixiy rivojlanishining turli bosqichlaridagi xususiyatlarini aks ettirish uchun "individ" tushunchasi bilan birga "shaxs" tushunchasi ham qo'llaniladi. Bu o'rinda "individ" shaxs sifatida shakllanishga yo'naltirilgan inson sifatida qaraladi. Shaxs – individ rivojlanishining yakuni, barcha insoniy fazilatlarining to'la namoyon bo'lishidir.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir nuqtai nazaridan tarbiya doimo maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, birinchi navbatda, aniq maqsadga qaratilgan jamiyatning faoliyatidir. Bunda jamiyat o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyat hamda vositalardan foydalanadi. Tarbiya insonni muayyan ijtimoiy zaruriy bilimlar majmui, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, uni hayotga va mehnatga, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlariga rioya qilishga, kishilar bilan

muomala qilishga, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur holatlarning barchasi, tabiiy ravishda shaxsning individual belgi va fazilatlarini shakllantirishni istisno etmaydi. Tarbiya ijtimoiy muhitning insonga ta'sirining tarkibiy qismi sifatida ham baholanadi. Tarbiya – inson shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi muhim omil bo'lsa-da, biroq bu jarayonda yana qator omillar, jumladan, muhit ta'siri va irsiyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson, ijtimoiy mavjudod sifatida turli ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro harakatda bo'ladi, jamiyat hayotida birga ishtirok etadi.

O'rta Osiyo arablar tomonidan istilo qiliganidan bir asr keyin yangi madaniyat shakllana boshladi, uning gullab-yashnashi IX-XII asrlarga to'g'ri keldi. Uning barcha sohalarida dastlab arab islom madaniyatining kuchli ta'siri, shuningdek arab va mahalliy an'analarning o'zaro ta'siri ham sezilarli edi. Mafkura sifatida faqat islom, ilm va ilohiyot tili hukmron bo'ldi.

Butun Sharqda bo'lgani kabi Movaraunnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjimlar, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar etishib chiqdilar. Ular o'z ilmiy ishlarida axloq-odob masalalariga ham katta e'tibor berdilar. Bular ilgari surgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishida pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Demak, Markaziy Osiyo-SHarqning baksak ma'naviyat va yirik ilmiy tafakkur markaziga aylandi. Ana shu IX-XII asr SHarq Renessansi davrining buyuk allomalari jahon madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Jumladan:

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (785-850): Xorazmda tug'ilgan, shu erda o'sgan. Umrining ayni gullagan davrida (20-25 yosh) vatanni tashlab chiqib ketadi. U Iroq va Shomga borib, etuk olim va shoirlar bilan tanishadi va ulardan ta'lim oladi. Nishopur, Sheroz shaharlarida bo'ladi. U IX asr boshlarida mashhur olim sifatida taniladi. Bag'doddagi "Bayt-ul hikma" ilm markaziga chaqiriladi. Al-Xorazmiyning ilmiy asrlari: 1) "Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob" ("Al kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala") asarida sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar, ularni echish yo'llarini bayon etadi. Risola 3 qismdan iborat: a) algebraik qism, bo'lim keltiriladi, b) geometrik qism algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida, v) vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb ataydi. Asar o'zining bir xususiyati bilan xarakterliki, unda ma'naviyat riyoziyot nuqtai nazaridan axloqiy-odob tamoyillari hisob-kitob qonunlari bilan singdiriladi. "Aljabr va muqobala" asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi, qo'llash usullarini aytdi. 2) «Hind hisobi bo'yicha kitob», 3) «Astronomik zij», 4) «Er surati haqida kitob» kabi asarlari bor. Umuman al-Xorazmiy «Al-jabr val-muqobala» asari tufayli «Al-Xorazmiy» nomi (XII asr boshlarida), keyinroq elgebra, lotincha «algoritm» shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushuncha algoritm algoritmgaga aylandi.

2. Ahmad al-Fargʻoniy (787-861): gʻarbda Alfraganus nomi bilan, SHarqda esa Hosib-hisobchi nomi bilan mashhurdir. Uning asarlari (XII-XIII asr) Evropada tarjima qilinishi tufayli u «Birinchi arab astronomi» nomini oldi. Uning «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «astronomiya negizlari» asari bor. Umuman Ahmad al-Fargʻoniy Sharqda «Hisob» (matematik)-hisobchi, «munajjim ar-Rais» nomi bilan shuhrat qozondi. U Fargʻonaning Quvasida tugʻilib, Msirda vafot etgan. Qadimgi Kubo shahristoni atrofida Ahmad Fargʻoniy xiyoboni yaratilmoqda. Misrda Dafn etilgan marhumning hoki 1999 yili keltiriliyu, Quva maqbarasiga quyildi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 29-sessiyasi va Oʻzbekiston Hukumati 1998 yilda Ahmad al-Fargʻoniyning 1200 yilligini nishonlashga oid qaror qabul qildi va 1998 yil 24 oktyabrda bu sana katta tantanalar bilan nishonlandi. Al-Fargʻoniyning nomi Dante, SHiller, Erkin Vohidov asarlarida ulugʻlandi. Dante «Ilohiy kamediyasi»da Dune tuzilishi haqidagi maʼlumotlarni uning asarlaridan oldi. «Astronomiya negizlari» (asoslari) asarining toʻliq nomi «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», uni qisqacha «Astronomiya asoslari» deb yuritishadi. Bu asardan hanuzgacha darslik sifatida foydalanib kelinadi. VIII asrda Fargʻona oʻlkasi arab istilochilari tomonidan zabt etildi. 919-920 yillarda arab xalifasi Maʼmun Fargʻonani markazi Buxoroda boʻlgan davlat tarkibiga oʻtkazdi.

Arab istilosidan keyin ilm va maʼrifat arab xalifatining markaziy shaharlariga koʻchgach, Ahmad al-Fargʻoniy ham ilmiy ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida Xalifa al-Maʼmun saroyiga chaqirtirilib, undan xalifa bilan Bagʻdodga keldi. Bagʻdodda jam boʻlgan olimlar bilan birga «Hikmatlar uyi» deb atalmish fanlar akademiyasini tashkil etdi va koʻp yillar unga rahbarlik qildi. VIII asr oxiri va IX asr boshlarida arab xalifaligini Xorun ar-Rashid (786-809) va uning oʻgʻli Maʼmun (813-833) boshqargan vaqtlarda Bagʻdodda kuchli ilmiy markaz dargohi tashkil topgan edi. Uni «Baytul hikma» («Hikmatlar uyi») deb ataganlar. Bagʻdod ilk oʻrta asrlar davrida ilm-fan taraqqiyo qilgan markaz edi. Bu erda «Bilimlar uyida» Markaziy Osiyo, Eron va boshqa yurtlardan kelgan turli xalq va millat olimlari toʻplangan edi. U ham shu uyda ishladi. «Bilimlar uyi» kutubxonasida 400 mingdan ziyod qoʻlyozma kitob bor edi. Kutubxonaga Xorazmiy boshchilik rahbarlik qilgan.

Koʻp tillarni yaxshi bilgan olim ilm uchun qulay sharoitga ega boʻlgach, qadimga dunyo fani asarlarini oʻrganadi, ularni hind, yunon, suriya, sanskrit, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qiladi. Ahmad Fargʻoniy Bagʻdodda madrasada astronomiyadan dars beradi, yosh tolibi ilmlarda ilmga havas va muhabbat tuygʻularini tarbiyaladi. 833 yilda taxtga xalifa Muʼtasim chiqadi. U Bagʻdod yaqinida Shammasiya va Damashq yonidagi Kassiyun togʻida 2 rasadxona qurishni Ahmad Fargʻoniyga topshiradi va ular qurib ishga tushiriladi. Ahmad Fargʻoniy «Astronomiya asoslari» asarida oʻsha davrda astronomiyaga zid bilimlarni bir qolipga soldi, oʻz YAngi natijalari kashfiyotlari bilan boyitdi, astronomik asboblarni, Quyosh soatlari bayonini berdi. Mamlakatni 7 iqlimga boʻlib oʻrgandi. Joylarning geografik koordinatlarini Sharqdan gʻarbgacha yoʻnalishda berdi. Kopernikkacha astronomidan asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qildi.

3. Abu Nasr Forobiy (873-950): - «ikkinchi ustoz» («muallimi soniy»). Aristoteldan keyin jahon ilmida ikkinchi ustoz deb tan olingan. U o'z davri jahon ilmi yutuqlariga tayanib, birinchi va mukammal ilmdar turlanishini yaratadi va bu haqda ko'plab asarlar yozadi. 160 ga yaqin asari bor. «Sharq Aristoteli» asarlarini ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi grek faylasuflari va tabiatshunos olimlarining (Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalar) ilmiy meroslarini sharhlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan; b) O'rta asr fanining tabiiy va ijtimoiy-falsafiy fikri sohalariga, uning turli dolzarb masalalarini ishlab chiqishga, tabiatshunoslik, musiqashunoslik, filologiya, jamiyatshunoslikning muhim sohalariga bag'ishlangan risolalar. Forobiy ilmiy merosining bir qismini uning sharxlari tashkil etib, ular boshqa muallimlarning asarlarga shunchaki tushuntirish va izohlar bo'lib qolmasdan, balki teran va qiziqarli fikrlar bilan yo'g'rilgan, shuning uchun ham ularni mustaqil asarlar sifatida o'rganmoq lozim. Olimning «Ideal jamiyat haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi asarlari ma'naviy-falsafiy muammolarni hal etishga bag'ishlangan. Olimning insonparvarlik, vatanparvarlik, inson shaxsini tarbiyalash kabi fikrlari ijtimoiy masalalarni hal etish haqidagi nazariy saboqlari bilan singishib ketgan. Umuman Forobiyning asarlarini mazmuniga qb quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonunlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar («Masalalar manbai»);

2) inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar. («YOshlarning aqli haqida kitob»);

3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, mavzui haqidagi asarlar («Falsafaga izoh» va boshqalar);

4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan («Musiqqa haqidagi so'z»);

5) moddaning xossa va turlari, noorganik tabiat, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi («Inson a'zolari haqida risola»);

6) tilshunos, she'riyat, notiqlik, san'ati, hattotlikka oid asarlar («Ritorika haqida kitob»);

7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika-pedagogikaga oid asarlar («Baxt-saodatga erishuv», «Shaharni boshqarish», «Uru shva tinch turmush haqida kitob», «Fazilatli xulq» va boshqalar).

4. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) g'arbda-Fransiyada Alibaron nomi bilan mashhur. Uning «Hindiston», «Geodeziya», «Minprologiya», «Yodgorliklar» kabi asarlari bor. Beruniy Xorazmda «Ma'mun akademiyasi» ga rahbarlik qilgan. Beruniy bilish nazariyasi bo'yicha juda katta ishlar qilgan. Biroq, hozirgi kunda bilish va ta'lim nazariyasi (didaktika) bo'yicha zamonaviy asarlar yaratilmagan. Olim o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik» asarida: «Ma'lumki, har bir murakkab narsaning sodda bo'laklari bor, murakkablik shular yig'indisidan kelib chiqadi», «Sezgilar beshta bo'lib, ular quloq bilan eshitish, ko'z bilan ko'rish, burun bilan hidlash, til bilan tati va teri bilan tegib bilishdan iboratdir...Ilm va ma'rifat faqatgina o'shalar orqali hosil bo'ladi», deydi.

Beruniy ta'limotiga ko'ra, tabiatni bilish jarayoni sezgilardan boshlanib tafakkurga ko'tariladi, ma'lum narsalardan noma'lum narsalar va hodisalarni bilishga tomonrivojlanib boradi. Bilish jarayonida hissiy bilish-sezgi, idrok, xotira kabilarga Beruniy katta e'tibor beradi va ularsiz tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Beruniy 1080 yilda g'aznada yozib tugatgan «At-Tafhim li-avoil sinoati at-Tanjim» («Yulduzshunoslik ilmining asoalarini tushuntiruvchi kitob») asarida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan fanlar haqida fikr yuritadi: 1. Matematika (arifmetika va algebra). 2. Astronomiya. 3. Geografiya. 4. Xronologiya (tarix). 5. Astronomiya. 6. Geometriya.

5. Abu Ali ibn Sino (980-1087):-jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan qomuschi olim. Avitsenna tufayli Fransiya g'arb Aristotel asarlarini o'rgandi. 450 dan ortiq asar qoldirgan. «Tib qonunlari» o'sha davrda tezda lotin tiliga tarjima qilinib, Evropa, qator SHarq mamlakatlari darslik bo'lib xizmat qilib kelmoqda. «Najot kitobi», «Donishmandlik kitobi», «Ishorat va tanbeh» asarlari muhim ahamiyatga ega.

Ibn Sino «Ma'mun akademiyasi» da ilmiy faoliyat ko'rsatgan va Beruniy bilan ilmiy suhbatlar olib borgan. Tabobat ilmini ruhiy-pedagogik ta'sirsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki eng asosiy shifo ta'sir orqali amalga oshadi. Bunday kuchli ta'sir faqatgina ma'naviy boy kishi tomonidan o'tkazilishi mumkin, xolos. Ibn Sino yozadi: «Ma'rifatchi (orif) botir odam bo'ladi, shunday bo'lmay ham bo'larmidi! U o'limdan ham qurqmaydigan sahoovat egasi bo'ladi. SHunday ham bo'lmay bo'larmidi! U barcha behad narsalarga xirs quyishdan uzoq va barcha adashganlarga mehribondir. SHunday ham bo'lmay bo'larmidi! U o'z nafsoniyati bilan ulug'vor bo'ladi. SHunday ham bo'lmay bo'larmidi!» Darhaqiqat ma'rifatli va ma'naviy yuksak inson o'ta qat'iyatli bo'lib, umumbashariy, insonparvarlik ruhida g'oyalarni amalga oshirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan fidoyi bo'ladi.

Ibn Sino o'z asarlari bilan Markaziy osiyo xalqlari madaniyatini Dunya xalqlari madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. SHuning uchun ham uning «SHayxur-ra'is»-«Olimlar boshlig'i» deb atalishi bejiz emas. Ibn Sino kitoblaridan bir nechtasi 20 jildli, 18 jildli bo'lsa, 5 kitobdan iborat. «Tib qonunlari» esa 125 bosma tabaqdan iborat. «Donishmandnoma» degan nom bilan mashhur bo'lgan falsafiy kitob 5 xil ilmiy mantiq, tabiat, ilmiy hay'at (astronomiya), musiqa, ilohiyotni o'z ichiga oladi. Ibn Sino xudoni e'tirof etadi, uni borliqning birinchi sababchisi va manbai deb tushunadi.

Ibn Sino jismlar 4 unsurdan tashkil topgan, deydi. Bu: havo, suv, olov, tuproq-o'zaro bog'liq, bir-biriga ta'sir etadi. Shundan u yoki bu narsa paydo bo'ladi yoki yo'qoladi. Lekin ularning asosi 4 unsur o'zgarmaydi, yo'qolib ketmaydi. 4 unsurning 2 tasi og'ir va ikkitasi engil deydi. Engillari olov va havodan iborat, og'irlari esa suv va er-tuproqdir.

Ibn Sino tarbiya mazmuni haqida quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan:

- 1) Aqliy tarbiyaga ahamiyat berish lozim.
- 2) Inson axloqining tarbiyasi.
- 3) Estetik (nafosat) tarbiyasi.

- 4) Jismoniy sog'lomlashtirishga xizmat qiladigan tibiiy tarbiya.
- 5) Bolani mehnatsevarlik ruhida, baror kasb-hunarga o'rgatish tarbiyasi.

Falsafa fanini Ibn Sino 2 katta bo'limga ajratadi:

1) nazariy falsafa-metofizika (oliy fan), matematika (o'rta fan), hamda tabiat haqidagi fan-tabiatshunoslik (lastki fan) dan iboratdir.

2) amaliy falsafa-siyosat, huquq, uy ishlarini o'rganish-iqtisod va axloqshunoslik ya'ni etikadan tashkil topadi.

Demak, amaliy falsafa o'z navbatida predmetiga ko'ra 3 qismga bo'linadi:

- axloqshunoslik-etika-bu inson shaxsiyatining fazilatlari, axloqiy tushunchalar, qoidalarni o'rganadi;

- iqtisodiyot-oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan masalalarni o'rganadi;

- siyosat-bu davlatni idora etishva boshqarish, hukumat va fuqarolar hamda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlash masalalarini o'rganadi.

Yusuf Xos Hojib (XI asr): turk dunyosidagi milliy uyg'onish davrining eng mutafakkirlaridan biri. U Qoraxoniylar davrida yashab ijod qildi. Uning «Qutadg'u bilig» («Baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asari turkiy xalqlarning qadimgi ta'lim va tarbiya usullarihaqida ilk ma'lumotlarni saqlagan. U insonni ulug'laydi. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Adib uquv va bilimni farqlaydi: uquv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi birlashsa, insonning qadri ortadi.

XI asrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy halqlarning milliy istiqloq bilan aloqador. U mustaqil qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Undagi asosiy g'oya el-yurtning birligidir. Faqat shundagina milliy mustaqillik saqlanishi, taraqqiy qilishi mumkin deb hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida o'zining axloqiy qarashlarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a'zolarining barcha toifalari, tabaqalari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amalyotga tayangan holda yoritadi. Bu xulq-odob qoidalari, talab va vazifalari butun asr davomida qahramonlarning o'zaro munosabatlari, munozaralari asosida ifodalanadi. Asar qahramonlariga xos fazilatlar: shirinso'zlik, tavoze, hurmat va ehtirom, aql, zakovat kabi fazilatlar o'zaro munosabatlar vositasida zohir bo'ladi. Olim barcha ezguliklarning bosh tili uning odobida deb ko'rsatib, uning foyda va zararlarini badiiy uqtiradi. Kishi 2 narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi alloma. Kumush va oltin tugaydi, ammo so'z muomalaga kritilsa, oltin va kumushdan ham qimmatliroq bo'lib qoladi. «Oz so'zlash, lekin ko'p tinglash kerak». «Hech kim so'zlab olim yoki donno bo'lmagan» «Qizil til qor boshning yovi», «Avval o'ylab keyin so'zlash kerak» kabi o'gitlar hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi. Bu o'gitlarga amal qiluvchi kishilar kamolot yo'ligi kirishi aniq. Zero, zehn ko'rki - so'z deb bejiz aytmaganlar.

Yusuf Xos Hojib davlatni boshqarishda amaldorlar o'z ishining ustasi ilm-fanni chuqir egallagan, uning turli sohalari bo'yicha ish yurita oladigan so'zga chechan, zehnli, fahm-farosatli, himmatli, ko'zi to'q, ochiq qo'l, sahiy tadbirli,

sadoqatli o'z so'zi ustidan chiqa oladigan, andishali bo'lishi, turli tillarni va yozuvlarni chuqur bilishi uning el-xalq bilan ish yuritishda, ya'ni muomalada munosabatida ezgu oqibatlariga olib kelishini ta'kidlaydi. Aksincha, ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat saqlash, nizo, xusumat kabi illatlar qashshoqlikka olib borishini ifodalab, undan qutilishni maslahat beradi.

Yusuf Xos Hojib insoniy munosabatlarda oilaviy-maishiy turmush ikir-chikirlariga ham e'tibor qaratadi. Inson turli marosimlar, yig'inlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda o'zini tuta bilishi kerak deydi.

Umuman, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga etaklovchi bilim») asari uning ma'naviy qiyofasi va tarjimai holidir. U insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan kamolot sari etaklovchi, ta'lim-tarbiya sir-asroridan, yo'l-yo'riqlaridan, uslubiyat va usullaridan saboq bera oladigan darslikdir. Olim bu asariga o'zining ijtimoiy-didaktik, falsafiy-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy, axloq-odobga doir fikr va mulohazalarini, nekbin qarashlarini badiiy-pedagogik til vositasida singdirgan. SHuning uchun ham bu asar asrlar davomida juda ko'p islomiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya sohasi bo'yicha darslik sifatida qo'llanilgan.

7. Ahmad Yugnakiy (XII asr ikkinchi yarmi–XIII asr boshlari): - Taxminan samarqand viloyati tumanlaridan birida tug'ilgan. Dunyoga mashhur dostoni, asari «Hibatul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») Qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy tilda yozilgan. Doston 254 bayt va 14 bobdan iborat (1480 yilda ko'chirilgan nusxasida 235 bayt va 11 bobdan iborat deyilgan). Dastlabki 4 bobi muqaddima, 5-bobdan asosiy qism boshlangan. Asar o'sha davr ko'zga ko'ringan ulug' amir Dod sipohsolarga bag'ishlangan. Doston - asar boblari quydagi mavzularga bag'ishlangan:

1-bobi Xudoga (1-10 baytlar)

2-bobi payg'ambar va 4 xalifaga (11-19 baytlar)

3-bobi Dod sipohlarga (20-30 baytlar) – uni fuqaroparvar, sahovatli va adolatli bir ulug' kishi hisoblab, uni dengizga o'zini esa bu dengizga tomchilar hadya qiluvchi bulutga o'xshatadi.

4-bobi asarni yozilish sabablariga (34-3 baytlar)

5-bobi (asosiy qism): bilim maqtovi va johillikning zarariga (40-62 baytlar)

6-bobi dunyoning foniyligiga (87-110 baytlar)

7-bobi sahiylik va baxillikka

8-bobi sahiylik va baxillikka

9-10 boblari turli xil masalalarga (176-226 baytlar)6

11-14-boblar kitobning xotimasidir (227-235 baytlari).

«Hibatul haqoyiq» asarida markaziy o'rinda inson, uni har tomonlama etuk qilib tarbiyalash masalasi turadi («Qutadg'u bilig»dagi kabi).

Yetuklikning birinchi belgisi bilim, ilm manfaati, ilmsizlikning, jaholatning zarari haqida fikr yuritadi. Bilim bilan olam ko'tariladi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtiradi.

Demak, Ahmad YUgnakiy avvalo:

1) bilim, ilm manfaatlarini yuksakka ko'tarib ilmsizlikni

2) insonning barkamol etishning ikkinchi belgisi bu uning xushxulqligidir;

3) ahloqlilikning muhim belgisi til odobi deydi.

- 4) sir saqlash haqida;
- 5) sahovat va baxillik;
- 6) kamtarlik, muloyimlik insonning husnidir;
- 7) yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon ilatlardan saqlanish;
- 8) sabr-toqat, qanoat, tinch totuvlikka undaydi.
- 9) kishi gunoh qilsa kechirish, g'azab o'tini iloji boricha o'chirish zarur;
- 10) amaldorlar martabaga erishgach kamtar, samimiy bo'lishni, mavqeini suiste'mol qilmaslikka chaqiradi. Ulug'likka etishsang, yanglishma, agar atlas kiysang, bo'z kiyganingni unutm...

11) ulug'ligingga yarasha yaxshiroq bo'l;

12) adib do'st-dushmanning farqiga borish, yaxshi kishilarni do'st tutishni maslahat beradi. Ming do'sting bo'lsa ko'p ko'rma, birgina dushmaning bo'lsa, uni oz dema. do'st tanlashda xato qilmaslikka chaqiradi.

Umuman Ahmad Yugnakiyning axloqiy-falsafiy ta'limotida insonparvarlik, odam-odam bilan do'stona hayot kechirishi, do'stlarga sadoqat, vafodorlik kabi g'oyalar ham katta o'rin tutadi. Do'stlarni ehtiyot qilish, avaylab-asrash, dushman orttirmaslik zarurligi haqida uqtiradi.

Asarda insonning kamoloti uchun muhim bo'lgan aqiliy va ahloqiy qoidalar, talablar bayon etilgan. Insonni kamolga etkazishning eng muhim va asosiy mezonlaridan biri: insonning bilimga ega bo'lishi, unga aqiliy tarbiya berish deb biladi. So'ng axloqiy-ma'naviy kamolotga etkazuvchi so'z odobi, insondagi halollik, rostgo'ylik, saxiylik, kamtarlik, samimiylik, chinakam do'st bo'lishni eng muhim insoniy xislat deb biladi.

O'z – o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z – o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Hissiyot, ya'ni his-tuyg'u odamning atrof-muhitga va o'ziga bo'lgan munosabatlarining ifodalaishidan iborat.

Hissiyot till. Odamning ichki kechinmalari uning yurish-turishi, tovush balandligi, so'zlash ohangining o'zgarishi, imo-ishora, mimika orqali ifodalanadi. His-tuyg'ular ijobiy (qoniqish, hayajonlanish, xursandchilik, xush ko'rish) va salbiy (g'azablanish, qo'rquv, qayg'u, jirkanish) boiadi. Hissiyot odamlarning millati, tili va tarbiyasiga bog'liq bo'lmasdan, bir xilda namoyon bo'ladi. Odamning yurish-turishi, gapining ohangi, tanasi va yuzining holatiga qarab, uning his-tuyg'usi to'g'ri*sida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Hissiyot qon aylanish, nafas olish va boshqa organlar ishining faollashuvi bilan birga namoyon bo'ladi.

Hissiyotning ahamiyati. Hissiyot bilan bog'liq jarayonlar organlar faoliyatini va organizm kuchini o'zgartiradi, uni yangi o'zgargan sharoitga tayyorlaydi. His-tuyg'uda paydo bo'ladigan ifodali harakatlar zo'riqishni kamaytiradi Ifodali xatti-harakatlar hissiyot tili hisoblanadi. Hissiyotning ifodalanishiga qarab biz

birovlarning his-tuyg'usi, g'am-g'ussasini tushunib, uning holiga achinamiz. Shu tariqa ifodali xatti-harakat odamlarning o'zaro munosabat vositasiga aylanadi. O'z navbatida, ifodali xatti-harakatning o'zi ham javob his-tuyg'usini paydo qiladi. Aktyor mimika, intonatsiya, ifodali xatti-harakatlari orqali obraz yaralish, uning ichki dunyosini ochib berish bilan birga, o'z qahramonining kechinmalarini tomoshabinlarga ham o'tkazib, ularda ham achinish hissiyotini paydo qiladi. Ifodali xatti-harakatlar orqali boshqalarning his-tuyg'usiga ta'sir qilish va ularning his-tuyg'usini boshqarish mumkin. Masalan, bolaning har qanday ifodali his-tuyg'usi katta yoshdagi kishilarga ta'sir ko'rsatadi va ular bolaning istagini bajarishadi. Buni tushungan bola o'z his-tuyg'usini yanada kuchliroq namoyon qila boshlaydi. Buning natijasida kelgusida o'z his-tuyg'usini jilovlay olmaydigan inson tarbiyalanib chiqadi.

Hissiyotni boshqarish. Ifodali xatti-harakat odamning ixtiyoriga bo'ysunadi. Odam o'z his-tuyg'ularini to'xtatib turishga, ya'ni hissiyotga berilmasdan, o'zini qo'lga olishni o'rganishi lozim. Odamdagi bu xususiyatlar uning yaxshi tarbiya ko'rganligini va yuksak madaniyatli ekanligini bildiradi.

Kishilar idrok qilayotgan (ko'rayotgan, eshitayotgan), bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, harakatlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi, yana boshqalari g'azab-nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg'otadi. Odamlarning o'zi bilayotgan va bajarayotgan narsaga munosabatini boshdan kechirishi his -tuyg'ular (yoki emotsiyalar) deyiladi. His - tuyg'ularning manbai biz idrok qiladigan, ish ko'radigan predmetlar va hodisalarning xususiyatlari vujudga keltiradigan ehtiyojlar, intilishlar, istaklardir. Bizning faoliyatimizni (mehnat, o'qish, o'yin) uning muvaffaqiyati va mag'lubiyatini ham his - tuyg'ular uyg'otadi. Hissiyot voqelikni aks ettirilishidir. Odam ayni bir paytda tirik organizm va jamiyat a'zosi bo'lishi bilan birga, o'z miyasida alohida shaxs sifatida, ayrim ob'ektlar bilan qiladigan ob'ektiv munosabatlarni aks ettiradi. Odam miyasida olamning aks ettirishni ana shunday o'ziga xos tomoni hissiyot sohasi yoki inson shaxsining emotsional tomoni hisoblanadi. Hissiyot - odam miyasida uning real munosabatlarining, ya'ni ehtiyojlar sub'ektining uning uchun ahamiyatli bo'lgan ob'ektlar bilan bo'lgan munosabatlarning aks ettirilishidir. "Hissiyot" tushunchasini faqat tirik mavjudotlar miyasida ularning ehtiyojlarini qondiradigan va qondirishga qarshilik qiladigan ob'ektlarga bo'lgan munosabatlarni aks ettirish haqida gap ketganda qo'llash mumkin. Belgilari xusosan yaqqol namoyon bo'ladigan hissiyotlarning ichdan kechirishdan iborat bo'lgan ruxiy jarayon sodir bo'lishining konkret shaklinigina emotsiya deb ataladi. Masalan, vatanparvarlik, muhabbat, javobgarlik hissini emotsiya deb bo'lmaydi.

His - tuyg'ularning vazifasi. Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan ayrimlari aniq bo'lib ajraladi, ba'zilari bir - birlari bilan qo'shib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari

tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin, ma`lum qo`zgalishlar, tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqidagi yoki notinchlik haqidagi darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa, insonning shaxsiy tajribasi tarkib topadigan shartli reflekslar tizimini mustahkamlanishi sifatida namoyon bo`ladi. Hissiyotni mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi. (impressiv-lotincha - taassurot).

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning atrofimizdagi muhitga moslashuvida hosil qiladigan yoki buziladigan dinamik stereotiplar orqali biror hissiyotni va emotsional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi. Dinamik stereotip deganda, tashqi taassurotlarning ma`lum tartibda qaytarilishi natijasida hosil qilingan shartli reflekslar nerv bog`lanishlarining barqaror tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelish natijasida dinamik stereotiplarning "o`zgarishi" salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot va uni kechirishning turli shakllari faqat darak beruvchilik vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. emotsiya harakatlarda juda ko`p tana o`zgarishlarida ifodalanadi. Odam organizmidagi bu o`zgarishlar, kechirilayotgan hissiyotning ob`ektiv ko`rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo`lgan, ya`ni ovoznig o`zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo`ladigan jarayonning qayta o`zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning ekspressiv tomoni deb ataladi (ekspressiv - ifodalanish). Odamning o`z hissiyotining ob`ektiga qanday shaxsiy munosabat ifodalangani mazkur holda qanday munosabatda bo`lishi ifodalangani hissiyot mazmunining sifat tomonini tashkil qiladi. Odatda shaxsning hayot faktlariga nisbatan bo`lgan emotsional munosabatlari ikkita sifatga ijobiy va salbiy sifatarga ajratiladi.

Shaxsning o`z hissiyoti ob`ektiga ijobiy va salbiy munosabatlaridan tashqari ikqilanish holatlari va noaniq tushunish munosabatlari ham bo`ladi. Bularni rohatlanish va qanoatlanmaslik hislariga qo`shib bo`lmaydi. Ikki taraflama hissiyotda (ambivalent hissiyotda) rohatlanish va azoblanish qo`shilib va biri ikkinchisiga o`tib ketmaydigan emas, balki bunday birga bo`lish kechirilayotgan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan: rashk hissida muhabbat va nafrat. Suv ichish va neft hidi. Rohatlanish va yoqimsiz - noxushlik hissi. Sub`ektning hissiyot predmetlariga nisbatan emotsional munosabatlarning to`rtinchi sifati odatda qisqa muddatli hissiy munosabatning noaniqligidir, lekin ba`zan ayrim ularni tushunishiga bo`lgan ob`ektlarga nisbatan ancha vaqtga davom etgan hissiyotlarning ham hissiy munosabatlarning sifati bo`ladi. Odam hayotida yangi narsaga duch keladi, bu narsa ko`pincha uni to`lqinlantirib, idrokida mazkur narsani tevarak - atrofidagi muhitdan ajratib olib, unga nisbatan ajablanish, hayratlanish, havas va qiziqish hissiyotini kechiradi. Bu yangi taassurotlarni dastlabki anglashning hissiy tomonidir.

3. Hissiy holatlarning fiziologik asoslari. Hissiy holatlarni paydo bo`lishiga tashqi olamda yuz beradigan o`zgarishlar sabab bo`ladi. Hissiy holatlar uchun xos bo`lgan fiziologik jarayonlarning asosi murakkab shartsiz va shartli reflekslardir. Ma`lumki, shartli reflekslar tizimi katta miya ustuniga tegishli ko`rish tepachalari va nerv qo`zg`alishlarini miyaning yuqori bo`limlaridan vegetativ asab tizimiga o`tkazib beruvchi boshqa markazlar orqali amalga oshiriladi. Kishining hisslarni

kechirishi hamma vaqt miya po`sti va po`stlok osti markazlarining birgalikdagi faoliyatlari natijasidir. Atrofda va olamda yuz beradigan o`zgarishlar odam uchun qancha ahamiyat kasb etsa, hissiy kechinmalar shuncha chuqur bo`ladi. Buning natijasida paydo bo`ladigan muvaqqat bog`lanishlar tizimi qayta tuzilishi qo`zg`alish jarayonini yuzaga keltiradi. Bu jarayon katta miya yarim sharlari po`stida tarqalib po`stloq osti markazlarini ham egallab oladi. Katta miya yarim sharlar po`stidan pastda organizm fiziologik faoliyatining turli markazlari; nafas olish, yurak va qon tomirlarini idora qilish, ovqat hazm qilish, ichki sekretsia bezlarini ishini idora qilish va boshqa markazlar joylashgan. Shuning uchun po`stlok osti markazlarining qo`zg`alishi bir qator ichki a`zolar faoliyatini kuchaytirishga olib keladi. Hissiy holatlar o`zining fiziologik mohiyati jihatidan katta yarim sharlar po`stining va miya po`sti boshqaradigan po`stloq osti markazlarining funktsiyasigina bo`lib qolmay, balki miyaning boshqa qismlari ishni boshqaradigan retikulyar tuzilmaning vazifasidir. Miyaning talamus (ko`rish tepaligi) va gipotalamus (tepacha osti qismi) deb atalgan joyining qadimgi po`stloq osti tuzilishlari bilan yarim sharlar yangi po`stlog`i osti tuzilmalari o`rtasidagi limbik tizimning vazifasidir.

4. Insoniy his - tuyg`ular va hayvonlardagi emotsiyalar. Odam his - tuyg`ulari bilan hayvon hissiyotlari o`rtasida farq juda katta. Odamda juda ko`p miqdorda his - tuyg`ular borki, bunday hissiyotlar hayvonlarda yo`q. SHuningdek, odam va hayvon uchun umumiy bo`lgan g`azablanish, qo`rqish, jinsiy hissiyot, qiziquvchanlik, xursandchilik, g`amginlik emotsiyalari hayvonlarda sifat jihatidan farq qiladi.

Insoniy emotsiyalar "insoniylashtirilgan" ijtimoiy sharoit bilan bog`liq holda namoyon bo`ladi. emotsiyalarning "insoniylashuvi" shunday namoyon bo`ladiki, ichdan kechadigan hissiyotlar mazmuni juda boy va murakkabdir. Odamlar bilan mehnat, siyosat, madaniyat, oilaviy hayot o`rtasida paydo bo`lgan munosabatlarning ko`pligi sof insoniy hissiyotlarning paydo bo`lishiga olib keladi. Ular bolalarga odob bilan javob berishni, suhbatdoshga ochiq ko`ngil bilan jilmayishni, keksalar va nogironlarga hurmat bilan joy bo`shatib berishni o`rgatadi. Odam o`z hissiyotlarini o`zi boshqaradi. Ba`zan kishilar o`z emotsiyalarni yashirish niyatida qarama - qarshi emotsiyalarni ifodalaydilar. Masalan, qaygurish yoki qattiq og`riq paytida kulimsirash, kulgilar kelgan paytda yuzlarini jiddiy o`ychan holga keltira oladilar. Lekin o`zining imo - ishoralari va mimikalarini boshqara olishga qaraganda nafas olish, qon aylanishi va ovkat hazm qilish tizimidagi o`zgarishlarni ushlab qolish juda qiyin bo`ladi. Odam hayajonlangan paytda bir maromda nafas ola biladi, ko`z yoshlarini ushlab qola oladi, lekin rangini o`zgartirish yoki qizartirishga kadir emas. Ammo emotsiyalarni paydo qiluvchi narsalardan o`zini chalg`itishi mumkin.

5. Hissiy holatlarning ifodalanishi. Hissiy holatlarning ifodalanishi, birinchidan, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo`l - oyoq harakatlari,) ikkinchidan, organizmdagi turli hodisalarni, ya`ni ichki a`zolar faoliyatining va holatining o`zgarishida, uchinchidan, tabiatda, ya`ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o`zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo`ladigan o`zgarishlarni o`z tarkibiga oladi. His - tuyg`ularning tashqi ifodasiga

yuz ifodasi, imo - ishora, vajohat va qaddi - qomatning o`zgarishi, ayrim tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (yosh, so`lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o`zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning fonetik o`zgarishlari, “ovoz mimikasi” va gaplar tartibining sintaksis o`zgarishi, “tutilmasdan gapirish” yoki alohida “silliqlik” hamda “ifodalilik” ning yuzaga kelishi, nihoyat hissiyot o`zining to`la yoki qisman ifodasini topadigan xatti - harakatlarga taalluqlidir. Kishining emotsional kechinmalar vaqtida nutqning tezligi o`zgaradi. Ko`pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ohangi o`zgaradi. O`tkazilgan tekshirishlar shuni ko`rsatadiki, g`amginlik va mayuslik hislarini ifodalovchi nutq vaqtida shu nutqning so`zlovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi. Nutqning o`zi susayib qoladi, so`zlayotgan kishining tovushi ham bo`linib - bo`linib chiqadi.

6. Hislarni kechirish shakllari. Hissiy kechinmalar turli hollarda turlicha tezlik bilan paydo bo`ladi. Ba`zan hissiyotlar juda to`satdan, darhol paydo bo`ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo`lib ketadi, darhol g`azabga keladi, achchiqlanadi va hokazo. Lekin ba`zan shu hissiyotlarning o`zi daf`atan qo`zg`almaydi, balki asta-sekin tug`ila boshlaydi. SHunday hissiy kechinmalar borki, ularning qay darajada tez paydo bo`lmasligini belgilash qiyin yoki butunlay belgilab bo`lmaydi. emotsional kechinmalarining kuchi turlicha bo`lishi mumkin. Hissiyotning kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg`ularning naqadar kuchli bo`lishidadir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirayotganligi bilan belgilanadi. Hissiyotning qo`zg`alish xususiyatlari paydo bo`lish yo`lini, kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog`liqdir. Atrof muhitning holati, shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi, shu xislat tuzilishiga sabab bo`lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo`lishi va o`tishi, hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog`liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez, kuchli va barqaror bo`lishiga ko`ra, his-tuyg`ularning quyidagi turlari farqlanadi: hissiy ton, emotsiyalar, affekt, jiddiylik holatlari (stress) , kayfiyat va boshqalar. Hissiy ton. Hissiyot ko`pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruxiy jarayonning o`ziga xos sifat tomoni tariqasida namoyon bo`ladi. Yoqimli suhbatdosh ekan, kulgili voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko`ngildagi mashg`ulot, xushchaqchaq sayohat, og`ir ish kabilar. Hissiy ton - sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilayotgan narsa yoki hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy buyok, yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog`langan hissiyot. Masalan, og`riq va bir qator kuchli qo`zg`ovchilar yaqqol ifodalangan yoqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi. emotsiya - bu qandaydir bir hissiyotning bevosita kechirilishidir. Musiqani sezuvchi kishining kontsertda o`zi yaxshi ko`rgan kuyini yaxshi ijrochi ijrosida tinglab, kechirish, his qilish natijasida rohatlanish, hayratda qolish kabi holatlarni emotsiya deyiladi. Ba`zan odam qo`rqquvdan, dahshatdan qotib qoladi, qo`rqquvdan va umidsizlikdan o`zini xavfli ob`ekt tomon otadi. Ba`zan emotsiyalar kishiga kuch beradi. “Tog`ni tolqon” qilishga tayyor bo`ladi. Faol emotsiyalar paytida odam jim tura olmaydi. Affekt tez paydo bo`ladigan, nihoyat darajada kuchli, g`oyat jo`shqinlik bilan o`tadigan qisqa

muddatli emotsional holatlardir. Affekt lotincha bo`lib, ruxiy hayajon, ehtiros degan so`zdan olingan.

Affektlar ko`pincha to`satdan paydo bo`ladi va ba`zan atigi bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishining ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda "portlash" singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba`zan affektlar tormozlanish holati tariqasida namoyon bo`ladi va bunday holatda organizm bo`shashib, harakatsiz bo`lib va shalvirab qoladi. Bunday holat ko`pincha odam birdaniga qo`rqanida, to`satdan quvonganida va shu kabi hollarda "o`zini yo`qotib qo`yish" ko`rinishida namoyon bo`ladi. Har bir kishi o`zida boshlanayotgan affekt holatiga tushmaslik uchun ko`rasmog`i kerak.

Stress - jiddiylik holati. Keskin vaziyat sababli yuzaga keladigan emotsional holatlar stress yoki jiddiylik holati deb ataladi. Jiddiylik - turli jismoniy va aqliy ishlar haddan oshib ketib, havfli vaziyat tug`ilgan paytlarda, zaruriy choralarni tezlik bilan topishga to`g`ri kelganda vujudga keladigan harakatdir. Stress holatining paydo bo`lishi va o`tishining psixologik xususiyatlarini bilish uchuvchilar, kosmonavtlar, elektrostantsiya operatorlari, dispetcherlar, mashinistlar, haydovchilar, sud`yalar, korxonalar rahbarlari, o`quvchilardan imtixon oladigan pedagoglar va boshqalar uchun ham muhimdir. Ehtiros - muayyan harakatga va muayyan ob`ektga muttasil intilishda kuchli suratda ifodalangan emotsional holatdir. ehtiros ham uzoq davom qiladigan va barqaror bo`lgan hissiy holatdir. ehtiros doimo aniq bir narsaga qaratilgan bo`ladi, masalan, bilimga, ixtirochilikka, musiqaga, mehnatga bo`lgan ehtiros ijobiy ehtirolarni, mol - dunyoga xirs qo`yish, qimor, qarta, ichqilikka va hokazoga bo`lgan salbiy ehtirosni ajratib ko`rsatish mumkin.

Kayfiyat - odamning nisbatan zaif va o`rtacha kuchga ega bo`lgan, odatda uzoq vaqt davom etadigan ayrim ruxiy jarayonlarga umumiy hissiy tus berib turadigan holat kayfiyat deb ataladi. Pedagogik faoliyatda butun sinf jamoasida sog`lom ishchanlik, vaqti kelganda jiddiyroq, vaqti kelganda quvnoqroq kayfiyat yaratish ta`lim ishi samaradorligining muhim shartidir.

7. Yuksak hislar. Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida yakka holda mavjud bo`lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar yuksak hislar deyiladi. Yuksak hislar o`z tarkibiga birmuncha soddaroq turli hislarni oladi. Insoniy faoliyatning qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi hislarning qaysi birining asosi ekanligiga qarab yuksak hislarning muhim turlari; praksik (amaliy), axloqiy, intellektual, estetik hislarga ajratiladi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatga shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo`lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda odam biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e`tirof etadigan yoki inkor qiladigan, bu maqsadlarga erishish yo`llarini baholaydigan, ta`sir qilish usullari va qurollarini ma`qullaydigan va ma`qullamaydigan, ularning to`g`ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Mehnat inson hayotining asosi bo`lib, insonning mehnatga bo`lgan

hissiy munosabati yuksak hislar orasida muhim o`rinni egallaydi. Axloqiy hislar. Axloqiy hislarda odamning boshqa kishilarga, jamoa va o`zining ijtimoiy burchlariga bo`lgan munosabatlari ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma`lum axloqqa, ya`ni ijtimoiy axloq qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti -harakatlariga yoki ruxiy xususiyatlariga hamda o`zining xatti - harakatlariga baho beradi. Shaxsning etakchi axloqiy hislaridan biri bu burch hissidir. Bu his odam yashab va ishlab turgan tor doiradagi jamoa (oila, maktab, ishlab chiqarish korxonasi) manfaatlari nuqtai nazaridan turib harakat qilish lozimligini anglaganda ham kechiriladi. Odam o`zining ijtimoiy burchlari nimalardan iborat ekanligini bilib va tushunibgina qolmay, balki ularni bajarish zarurligini ichdan his qilib qayg`uradi.

Demak, o`zlikni anglash-mavhum tushuncha emas, balki inson faoliyatining muhim jihatlaridan biri bo`lib, uning ma`naviy kamolotga erishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

15-MAVZU: MUOMALA VA MULOQOT QILISH USULLARI

Reja:

1. Muomala uchun zarur odoblar. Muomala odobi. Insonlarga muomala qilishda shirin so`z bo`lish ham asosiy ahamiyatga egadir.
2. Shirin so`z vositasida inson qalbiga yo`l topiladi.
3. Kirishimlilik - muvaffaqiyat kaliti.
4. Samarali muloqot va muomala usullari.
5. Muloqot madaniyatiga, odobiga amal qilish kishini yuksaklik sari etaklaydi.
6. Shaxsni jamoada tarbiyalash. Ijtimoylashuvda jamoaning o`rni.

Uchta tushuncha zamon va makon tanlamaydi. Bular so`zlash, tinglash va anglashdir. Odamzot yaralibdiki, o`zaro munosabat jarayonida ana shu uch birlikka amal qilib kelinadi. Buning namoyon bo`lishi har bir xalqning o`z mentalitetiga mos va xos. O`zaro munosabat, murojaat qilish jarayonidagi o`zni tutish va fikr almashuvlar muomala madaniyati tushunchasida uyg`unlashadi. Munosabat, murojaat, muloqot, munozara, mubohasa, muhokama, mulohaza singari tushunchalarning barchasi muayyan millatning tiynatiga mos bo`lgan ziynatlar bo`lib, u etik va estetik me`yorlar, qoidalar bilan amalga oshiriladi.

Muloqot qisman monologik, asosan, dialogik, polilogik shaklda bo`ladi. Boshqacha aytganda, ikki yoki undan ortiq kishilarning o`zaro munosabatlarida reallashadi. Dunyo go`zallik qonuniyatlariga binoan qurilarkan, demak, insonning xulqi va nutqi ham, ko`rinishi va kiyinishi ham, munosabati va muloqoti ham go`zal bo`lishi maqsadga muvofiq. Xalqimizning "O`zingga qarab kutarlar, so`zingga qarab kuzatarlar" - degan o`giti bejiz emas. "Til yarasi bitmas, tig` yarasi bitar" - deganida ham inson uchun zarur bo`lgan muomala jarayoniga e`tibor zaruriyatini sezish qiyin emas.

Shaxs ma`naviyatining uzviy bir bo`lagi muomala madaniyati bo`lsa, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat tushunchalari uning zamiriga kiradi. Asrlar osha har bir xalqqa xos bo`lgan, milliy-ma`naviy qadriyatlar yuksak madaniyat ramziga aylangan urf-odatlar, yurish-turish, yashash tarzi barchasi kishi shaxsiyatida aks etishi tabiiy.

Ushbu risolada sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan insonlararo munosabatlar me'yori, shaxs ma'naviyatining shakllanishida ularning o'rnini masalalariga e'tibor qaratilgan.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Yuksak bilimli, intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" ekan, demak, ilm-fanga, ona vatanga munosabat o'z-o'zidan ma'naviyatli, barkamol inson tarbiyasida muhim va muqim o'rin tutishi muqarrardir. Munosabat, shubhasizki, shaxsning muomala madaniyatidan kelib chiqadi. Bu esa barkamollik belgisi bo'lgan ta'lim va tarbiyaga, ma'naviyat va ma'rifatga borib bog'lanadi. Aqlan, ruhan va jismonan sog'lom avlodgina yurtning porloq kelajagidir. Qushning parvozini qo'sh qanotisiz tasavvur qilish mumkin bo'lmaganidek, insonning iqboli va yurt istiqbolini ham ta'lim-tarbiya va ma'naviyat-ma'rifatsiz tushunish, idrok etish mushkul.

Poetika, ritorika nazariyasini ilk tadqiqotchilaridan hisoblangan Aristotel san'at va madaniyat olamining paydo bo'lishidagi ilk asos sifatida muomalani nazarda tutgani ham bejiz emas. Qolaversa, fransuz adibi Antuan Sent-Ekzyuperining "*Bu dunyodagi birdan-bir haqiqiy ne'mat odamlarning bir-biri bilan muloqotidir*",-degan fikrida teran ma'no bor.

Ta'lim talabi nutq bilan, tarbiya talabi xulq bilan bog'liq ekan, shaxs ma'naviyati, muomala madaniyati, muomala sirlari va odobi masalasi har qachongidan ham dolzarflik kasb etaveradi. Muomala "tarozisi"ning ikki pallasi bo'lib, biri xulq, ikkinchisi nutqdir.

O'zbeklar mentalitetida muomala madaniyati ko'pchilik hollarda o'zaro salom-alik qilish, ahvol so'rash, oiladagi ahvol bo'yicha axborotlarga qiziqish ko'rsatish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ammo aslida muomala madaniyati – o'zga insonga bo'lgan munosabat madaniyati bilan belgilanadi. Faqat salom-alik qilgandagiga emas, balki hayot tartibida, har kunlik hayot tarzida insonga ko'rsatiladigan hurmatli va e'zozli, samimiy va to'g'ri munosabatni anglatadi. Ichki madaniyatga ega bo'lgan odamgina har turli vaziyatlarda har qanday boshqa insonga nisbatan doimiy to'g'ri, samimiy va aniq munosabat ko'rsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatilishini talab etadi. Qarshingizda turgan odam boymi, qambag'almi, qishloqlikmi, yoki shaharlikmi, mansabdormi, yoki oddiy o'qituvchimi, bundan qat'iy nazar unga to'g'ri munosabat ko'rsata olish haqiqiy insonparvarlik mezoni bo'lib kelgan. Ammo muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib borishni talab etadi. Muloqot madaniyati o'z o'zidan vujudga kelib qolmaydi.

Hayotda ko'pincha odamlar orasidagi muloqotda ularning rasmiy, xushomadgo'y, kibr-havoli munosabatlari shohidi bo'lamiz. Ba'zan inson yuqori martabaga erishsa, u o'zini boshqalardan ustunligini ko'rsatish uchun, ko'pchilik bilan salom-alik ham qilmay qo'yadi. Asl madaniyatda esa aksincha, insonning qanchalik martabasi ko'tarilsa, shunchalik oddiy insonlarga o'zining yaqinligini ko'rsatish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga muloyimlik, xalimlik, ochiqlik, samimiyluk, to'g'rilik va boshqa bir necha tamoyillar ulug'lanadi va targ'ib qilinadi. Yoki, yigit taraf qudalar qiz tarafdagilarga sal yuqoridan turib, buyruq

berib gapirishadi. Boyvuchcharoq qarindoshlar o'zining moddiy tarafdin muhtoj qarindoshlariga nisbatan kerilib, boshqa tarafdin ularning moddiy tarafdin uyalibroq munosabat ko'rsatishadi. Bunday vaziyatlarning barchasi – noto'g'ri holatlar hisoblanadi.

Demak, real hayotda, odam yoshligidanoq muloqot madaniyatiga oid ma'lum insoniy qadriyatlarning buzilayotganligi bilan to'qnash keladi. Oqibatda, bola hayotida ikki xil standartlar holati vujudga keladi. Bir tomondan, bola muloyim bo'lishi lozim. Ikkinchi tarafdin esa, atrofidagi ko'pchilik odamlar, xatto-ki eng yaqin va xurmatli kishilar ham bu tartib-qoidalarga rioya qilmaydi. Masalan, "so'kinish" – erkaklar rioya qilmaydigan noto'g'ri holat, "qarg'ash" - ayollar rioya qilmaydigan noto'g'ri holat. O'g'il bolalar "so'kinish"ni odatda o'z otalaridan meros qilib oladilar. Ko'pchilik "so'kinish" yomonligi biladi, ammo ishlataveradi. Uning yomon odatligini o'ylab ham ko'rmaydi. Uni ishlatganda betarbiya odamlar ichki g'urur xis qiladi, aslida birovlarini kamsitish, ularni mensimaslik, birovlariga aziyat ulashayotganligini bilmaydi. Ayollar esa ba'zan o'z farzandlarini "qarg'ab" turib ularga ish buyuradi, yoki ularni jazolaydi. Aslida ayol kishiga mayinlik, mehribonlik xos bo'lishi lozimligini ular unutib qo'yishadi. Agar, haqiqatda ham bolalari bilan biror noxush hodisa yuz bursin, ular kuyinishi aniq. Ammo til hamma narsani ko'taraveradi deb, og'izlariga erk berib yuborishadi. Doimiy jerkib, behurmat qilib, faqat o'zinikini o'tkazib, bolaning erkini bo'g'ib yaxshi hulqli, idrokli, ma'naviyatli, barkamol farzandni tarbiyalab bo'lmaydi. Demak, muloqot va muomala madaniyatining ham hayotda o'z o'rni va ahamiyati mavjud.

Muomala madaniyati bo'yicha bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir biriga yaqinlashtirish, ular orasidagi muloqotni yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning o'zaro axborot olishlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladi. Muomala madaniyati birovni eshitish va birovga o'z axborotlarini to'g'ri yetkazish qoidalari va tartiblaridan iboratdir. Shu bois, konflikt yechimi tartiblariga muomala madaniyati bo'yicha ma'lum qoidalar kiritiladi.

Muomala odobi _ bu inson ko'rki bo'lib, insonga bo'lgan samimiy mehr-muruvvat mezonidir. Bu mezoniga izchil amal qilish odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Odamlar o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan muomala in son yuragini ko'zguda aks etgandek namoyon etadi. Kishining so'zidan, muomalasidan uning qanday odam ekanligini bilib olish qiyin emas. Inson kamolotida, hayot rivojida, ish yuritishda, odamlar sihat-salomatligini muhofaza qilishda muomala asosiy omildir.

"Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", deydi xalqimiz.

Rivoyat qilishlaricha: Qadimda bir podshoh o'z xizmatkorlariga: "Menga qo'y go'shtining eng shirin joyidan pishirib kelti-ring", deb buyruq beribdi. O'ylab o'ylariga yetolmagan xizmatkorlar vazirga murojaat etibdilar. Vazir ham bu jumboqni yecholmay boshi qotibdi va o'zining aqlli, dono, ko'p kitob o'qib ulg'aygan qizidan so'rabdi. Qiz: "Qo'yni so'yib, uning tilini podshohimizga pishirib keltiring", debdi. Ular xuddi shunday qilishibdi. Ertasiga podshoh: "Qo'y

go'shtining eng achchiq joyidan pishirib keltiring", debdi. Xizmatkorlar yana hayron qolishibdi. Vazirning qizi esa: "Yana bir qo'yni so'yib, tilini pishirib beringlar", debdi. Ular yana xuddi shunday qilishibdi. Podshoh bunday aqlning kimdan chiqqanini surishtirib bilgach, qizga, uning aqlu-farosatiga ofarinlar aytib, katta to'y-tomoshalar bilan uni o'g'liga olib beribdi. Ha, shirini ham til, achchig'i ham til.

Xalqimizda "Sevdigan ham til, bezdirgan ham til", degan ajoyib naql bor. Shirin til, mulohaza, mushohada bilan samimiy muomalada bo'lishga odatlanish, har bir insonning, ayniqsa, hayotimiz fayzi bo'lgan xotin-qizlarning, onalarning eng asosiy fazilati burchlaridir. Agar qiz bola go'zal bo'lsa-yu, muomalasi qo'pol, zardali yoki beandisha bo'lsa, bitta so'z bilan atrofdagilar dilini og'ritsa, shubhasiz, uni hech kim, hech qachon yaxshi inson safiga qo'shmaydi, hattoki undan insonlarning ko'ngli qoladi.

Darhaqiqat, hech narsa kishi aqlini muomalachalik namoyon etmaydi. Qizlar o'zlariga qanchalar oro bermaslar, muomala madaniyatini, muomala san'atini bilmasalar, hech qachon o'zgalar hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lolmaydilar.

Yoshlikdan noo'rin, qo'pol, ibosiz so'zlarni tilga olmaslikka odatlangan ma'qul. Chiroyli, ma'noli, kishi ruhini ko'taradigan so'zlar bilan fikrni izhor qilishga, deyarli hammaga sizlab gapirishga o'rgansangiz hayotda, mehnatda o'z o'ringizni topib ketasiz. Lekin muomalada ham me'yordan chiqmaslik zarur. Haddan tashqari shirinso'zlik, tilyog'lamalik, aytgan so'ziga avvalo o'zi amal qilmaslik har qanday odamni obro'sizlantirib qo'yadi. Fikringizni shoshmasdan, o'ylab, samimiyat bilan aytishni o'rganing. Jahlni yutib, aql ishlatadigan, yoki bir gapdan qoladigan, o'rni kelganda haq gapni aytishdan cho'chimaydigan odamlar lafzi halolligi, muomalasi yaxshiligi bilan obro'-e'tibor topadilar.

Bobomiz Abu Ali ibn Sino: "Inson har doim navqiron, bardam bo'lishi uchun boshqa odamlarni ranjitmasligi, dilini vayron qilmasligi, hamda o'zi go'zal muomalali bo'lmog'i lozim", degandilar. Zero, yaxshi muomala _ baxtu saodatning kalitidir.

Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko'rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta'sir o'tkazadilar va ta'sirlanadilar. Shu boisdan muomala ijtimoiy kategoriya sifatida turmushning barcha sohalarida qo'llanish mohiyatiga ko'ra bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Muomala madaniyatida xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim sanaladi. Biz shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Xushfe'llik. Ushbu axloqiy xatti-harakat me'yoriylik nuqtainazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvoffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga oikazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'qinchiligini anglatuvchi

hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Xalq doimo shunday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarlik, kamsuqumlik, aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Xushmuomalalik. Muomalaning asosiy manbaini so'z tashkil etishi barchamizga ma'lum. Shuningdek, so'z insonning botinidan chiqishi, inson botindan chiqadigan so'zga egalik qila olishini ham bilamiz. Biroq tashqariga chiqqan so'z insonning o'zini qulga aylantirib qo'yishini doim ham bilavermaymiz. Ya'ni, og'izdan chiqqan yaxshi-yomon so'z bevosita insonning ruhiyatiga o'rnashadi: yaxshi so'z bilan muomala qilinsa – yaxshilik topiladi, yomon so'z bilan muomala qilinsa — yomonlik.

Shirinso'zlik va uning shartlari. Ma'lumki, «Avesto»da Axura-Mazda dunyoga haqiqat, go'zallik va ezgulikni o'matish uchun kelgan Iloh sifatida uluglanadi. Buni «Asha alqovi»dan o'rin olgan quyidagi misralarda yaqqol ko'rish mumkin:

Quvonsin Axura-Mazda-Eng loyiq haqning irodasi ro 'yobga chiqib, Axriman daf bo 'Isin. Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishlarni alqayman, O 'zimni butkul ezgu o'y, ezgu so 'z va ezgu amallarga baxshida etaman, Qabimni , yomon so'z va yomon ishlardan tiyaman».

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur fikrlar oddiy fikr, oddiy so'z, oddiy amal emas, balki tamoman xunuklikdan, yovuzlikdan xoli bo'lgan ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amaldir. Bu holat «Avesto»da jon va tana tafsiloti bilan bog'liq bo'lgan XXII Yashtda batafsil bayon etiladi. Ya'ni, insonlarning bu dunyoda qilgan ezgu a'mollari, yaxshiliklari, ulug'vor ishlari uning oxiratda go'zal ruh timsolida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. «Yorug' dunyoda yaxshi amallar qilgan yigitning joni, ruhi go'zaldir. Yigitning ruhi qiz siymosida «Muloyim edim yanada muloyimroq qilding, chiroyli edim yanada go'zal qilding, baland edim, ezgu fikrat, ezgu kalom va ezgu amallar bilan meni yanada balandroq ko'tarding» deydi...» Gunohkor joni hayot chog'ida ko'rmagan xunuk, badbashara bir qizni uchratadi.

«Ey qora yurak, zahar tilli munofiq gunohkor,-deydi u,- men qiz emasman, sen hayotda qilgan yomon amallaringman. Chunki sen hayotda Xudoga e'tiqod qo'yganlarni ko'rib turib, devlarga sig'ingansan. Yaqin-uzoqdan kelgan musofir odamlarga boshpana berganda, mehnat qilganda, xayr-sadaqa ulashganda yaxshi odamlarni kamsitib, haqorat qilgansan, eshigingni yopib qo'ygansan. Haqqoniy hukm chiqarilganda, pora olinmaganda, to'g'ri guvohlik berilganda va to'g'ri gapirganda, sen ko'rib turib, adolatsizlik, nohaqlik qilib, yolg'on so'zlar aytgansan. Ol! Men sen o'ylagan, aytgan va qilgan yomon fitrat, yomon kalom va yomon amallaringman. Nomussiz edim, sen tufayli battar nomimni yo'qotdim, jirkanch edim, yanada nafratli bo'ldim, sharmanda edim, battar rasvo bo'dim».

«Avesto»dagi mazkur fikrlar asotir (mifologiya) sifatida aks etsada, uning inson xulq go'zalligini kamol toptirishdagi ahamiyati beqiyos.

Ma'lumki, eng qadimgi zamonlarda inson mohiyatini anglashga intilish haqidagi ilk tasawurlar kosmologik yondashuv bilan bog'liq holda rivojlangan. Keyinchalik yuzaga kelgan antropologik ta'limotlar insonni o'rganish uchun

e'tiborni awalo, uning o'ziga, amaliy xatti-harakatiga, axloqiyligiga qaratdi. Natijada fanda insonni biologik, fiziologik hamda ijtimoiy mohiyat sifatida o'rganishga doir nazariyalar, g'oyalar, qarashlar yuzaga keldi.

Insonning amaliy xatti-harakati, axloqiyligi, nafosatga munosabati ayni paytda uning botiniy tuyg'ulariga, qalb kechinmalariga bogliq. Bu kechinmalar, yuqoridagi bo'limlarda qayd etilganidek, fazilatlar va illatlarga bo'linadi. Inson mohiyatidagi bu xususiyatlar Mavlono Jaloliddin Rumi ta'kidlaganidek, "Inson gapiruvchi hayvondir. Uning xususiyati hayvonlikdan va gapirishdan iborat. Hayvonlik unda doimiydir, ayrilmasdir". So'z ham shundoq. Inson ko'rinishdan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu hol go'yo loy qorishgan suv toshqiniga o'xshaydi. Toshqinning toza suvi insonning so'zi (nutqi), balchig'i esa hayvonligidir. Biroq balchiq unda o'tkinchi bolib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon bo'lishiga qaramay so'zlar, hikoyalar va bilimlar qoladi. Mavlono Rumiyning inson mohiyatiga doir ushbu fikrlari achchiq bo'lsada, haqiqatdir. Chunki inson faqat ko'rinib turuvchi narsa emaski, uni bir qarashda fazilat yoki illat egasi ekanligi ayon bo'lsa. Zero, inson o'z borlig'i yordamida chinakam lazzatga intiluvchi aql, ixtiyor, tuyg'u sohibidir. U o'z maqsadiga chinakam haqiqatni anglash, muhabbatga to'g'ri munosabatda bo'lish, real voqelikni o'zlashtirish yo'llari orqali erishadi. Har bir risoladagidek odam yovuzlik bilan kurashishga, o'zidagi mavjud illatlarni bartaraf qilishga, tuyg'u va ehtiroslarini jilovlashga harakat qiladi; go'zallikni chinakamiga sevishtirishga, haqiqatni o'z ko'zi bilan ko'rishga, aqli bilan mushohada qilishga, uni chin qalbdan ulug'lashga intiladi.

Ma'lumki, har bir talaffuz qilingan jumlada talaffuz qiluvchining ruhiy-aqliy olami aks etib turadi. Ya'ni, u so'zni qanday va qay tarzda qo'llay olishi bilan suhbatdoshiga o'zi mansub bo'lgan ichki olam, uni qonun-qoidalariga haqidagi xabar mazmunini ham, etkazadi.

Avvalo, so'zlovchi ongida olam haqidagi biror xabar, fakt mavjud bo'ladi. Qaerda tovush obrazi talaffuz qilingan ongdagi tushuncha bilan uyg'unlashsa, o'sha erda ko'ngildagidek muloqot yuzaga keladi. Aksincha, tovush obrazi tinglovchi ongida biror tasavvur-tushunchani uyg'otmasa, bundan muvoffaqiyatsiz muloqot yuzaga keladi. Shu bois nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat g'oyatda muhim hisoblanadi. Agar so'zlovchining ham, tinglovchining ham so'zi ko'cha-jargon so'zlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa, fikrini qiynalib, poyma-poy gapirsa, talaffiizi noto'g'ri bo'lsa, bu holatda eng mazmundor suhbat ham o'z mohiyatini yo'qotadi.

So'zlashuv madaniyati har bir til birligini sharoitga qarab, yillar mobaynida qabul qilingan me'yorlar asosida qo'llash san'ati hisoblanadi. Masalan, so'rashish, salomlashish madaniyatini olaylik. So'rashish barcha xalqlarning muomala madaniyatidagi muhim vosita bo'lib, u har bir xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos ko'rinishga ega. Ta'kidlash zarurki, so'rashish bilan salomlashish aynan bir tushunchalar emas. Salomlashish barcha xalqlarda salom berish odobi qoidalariga asoslanadi, u faqatgina qo'l berib ko'rishishdan iborat emas. So'rashish esa so'z, imo-ishora, mimika va xatti-harakat orqali ham amalga

oshiriladigan jarayon bo'lib, u inson madaniyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, muomala axloq ko'rki sanaladi. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi, uning boshqalarga qilayotgan muomalasidan ma'lum bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, muomala insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Bir-birimizga bo'ladigan muomalamiz, munosabatimizning zamirida ham chiroyli muomalaning shartlari yotadi.

16-MAVZU: TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA "OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI" KONSEPSIYASINING O'RNI.

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Konsepsiyasining ahamiyati.
2. Ta'lim muassasasi faoliyatida oila bilan hamkorlik masalalari.
3. Shaxsni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning hamkorligi.
4. Shaxsni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3- sentabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Atoqli davlat arbobi I.Karimov birinchi chaqiriq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XVI sessiyasidagi nutqida, "Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bilayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq, manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq, ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", - deb ta'kidladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi. Birgina o'tayotgan yillarning atalishida ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin. 1997 yil - Inson manfaatlari yili: albatta jamiyatdagi fuqarolar manfaati himoya qilinmagan, ularning ehtiyojlari

qondirilmagan davlat hech qachon qudratli bo'lolmaydi. Shu bois ham avvalo inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarildi. 1998 yil - Oila yili: xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni "Vatan ichra vatandir" deya ulug'lab kelgan. Unda ulg'aygan har bir farzand, avvalo o'z oilasi aksini, ular birlashib esa mamlakat qiyofasini butun dunyoga tanitadi.

1999 yil - Ayollar yili: Ona xayotning boshi. Shunday ekan jamiyatda ayollar ahvoli uning kelajakni belgilovchi asosiy omil bo'ladi. U nafaqat kelajakni dunyoga keltiradi, balki, uning tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Ona tarbiyasi o'rnini hech bir narsa bosolmaydi.

O'zbekistonda ro'y berayotgan bunday o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi. Yuqorida keltirilib o'tilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, shaxsni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning hamkorlik usullarining xilma-xilligini ko'rsatadi va bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Kontsepsiyasining o'ri va ahamiyati.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda avvalo davlat bosh islohotchidir. Bu jarayonda davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

- ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya - milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

- to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

- beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

“Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi Kontseptsiyasi”da taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigityenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Kontseptsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosligini ta'minlaydi.

Kontseptsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998 yil “Oila yili” deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi syosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martda qabul qilingan “Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunining 30-moddasida “Voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari

shart hamda ularning tarbiyasi, o'quv muassasasigacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo'yilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 3.2 bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu "Oila, o'quv bilim yurti, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiyasining asosiy maqsadidir.

O'zbekistonda ruy berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Sinf rahbarining oila va jamoa bilan olib boradigan faoliyati.

Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;

2. O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;

3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;

4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;

5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- O'quvchining o'quv mehnatiga tavsifnoma, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- O'quvchining ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o'quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

- O'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarnig doirasi.

- O'quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o'quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.
- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.
- O'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.
- Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, sinf-sinfli va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni maktab talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan kuzatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi o'zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Sinf rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'nalishini belgilab beradi.

Sinf ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: sinfdagi tashkiliy ishlar bilan bog'liq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga bag'ishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag'ishlangan majlislar. Bu majlislarning har biri o'z maqsadiga tayyorlash va o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan bog'liq sinf ota-onalari majlisida odatda ota-onalar sinfi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o'rtasidagi vazifalar taqsimlanadi.

Ko'pgina maktabdagi sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'proq shaxsiy ish shakli bo'lib, unga sinf rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Sinf rahbari o'zining shaxsiy suhbatini, oilani o'rganish va kuzatish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan

o'tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi g'oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni sinf rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari. Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

1. O'quvchilarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda sinf rahbari o'quvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. Ota-onalarni maktabga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina o'quvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga o'quvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa o'quvchiga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.

4. Ota-onalar sinf majlisini o'tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.

5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.

6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli sinf o'quvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.

7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg'or tajribalar bilan fikr almashish, o'rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:

a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?

b) o'quvchining kundalik rejimi haqida.

v) "Ota-onalarning obro'si" haqida, "Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish" va hokazolar to'g'risida anjumanlar o'tkazish.

8. Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

b) "Ota-onalar, sizlar uchun" degan mavzuda og'zaki jurnal.

v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa sinf rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi.

Bizning yosh avlod xalqimizni inqilobiy, mehnat, jangovar an'alarini o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini - g'oyaviy e'tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o'z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko'paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa muhim o'rin tutishlari kerak.

Buni barcha sinf rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g'oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir.

Oilalar boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli pavidashda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oilalar tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oilalarining yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'liligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi!

Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qalarda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga ;muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilalarining qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarida turlicha bo'ladi va to'liqsimon o'zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqsa kuchli bo'ladi, shundan keyin oilaviy ta'sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to'g'ri keladi, shundan keyin taxminan o'smirlik davrigacha u zaiflashgandek bo'ladi. Yana ota-onalarining ta'siri ota-ona oilasidan ajralib, o'z oilasini tuzguncha ancha kuchayadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari to'grisidagi barqaror tasavvurlarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, ych yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatiga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyni yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o'rganish mumkinligi va hokazolar ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarining bu xususiyatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati,

- deb degan edi u, - shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi - odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish.

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxsining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi - onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi - ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-

onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi.

Ko'rsatilgan shakllar ta'rifi va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'p bo'lishni ta'minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- shaxslarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- shaxslarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- shaxslarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'z farzandlarining o'quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

- shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;

- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

- oila, o'quv bilim yurti va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;

- sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

Shaxsni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;

- hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;

- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin - qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, "Yosh onalar va otalar o'quv muassasasilari" faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning o'quv muassasasigacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq, aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan o'quv muassasasiga tayyorlash sinflari, "Yakshanbalik o'quv maskanlar" ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagilar uchun mo'ljallangan (6-11 yosh) o'quv muassasalarida shaxslarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z hatti - harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar sinflari va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z hatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari

bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, o'quv muassasasi hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamlil bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobinga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq, hunar oz", "O'g'lim posbonim", "Hayot - ustoz, xalq - muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch - mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik - yigitlik o'quv muassasasi", "Oila baxti - Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda so'nggi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli paviyda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur buginiga ham aylantiradi.

17-MAVZU: O'ZBEKISTON "YOSHLAR ITTIFOQI" NING TA'LIM MUASSASALARI BILAN OLIB BORADIGAN ISHLARINING MAZMUNI

Reja:

1. “Yoshlar ittifoqi” va “Yoshlar ishlari agentligi”ning faoliyati, maqsad va vazifalari.
2. Ularning ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonlar bilan bog’liq hamkorligi.
3. Ta’lim muassasalaridagi yoshlar boshlang’ich tashkilotlarining rolini kuchaytirish.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog’lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo’lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o’z o’rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, kasbga yo’naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag’batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko’p sonli yoshlarning o’z iqtidor va iste’dodini ro’yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g’oyalar ta’siridan himoya qilish, yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati O’zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o’zi ko’rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo’lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

2017 — 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog’liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini alohida qayd etish joiz.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 30 iyun kuni “Kamolot” YoIH ning IV- Qurultoyida ishtirok etdi. Bu Qurultoyda davlat tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e’tibori va yoshlarning davlat kelajagiga ma’sulyat bilan yondashayotganligi yana bir bor o’z aksini topdi. Prezidentimiz yoshlarning erishayotgan yutuqlari bilan o’zbek xalqi faxrlanishini ta’kidlab, yoshlarni qiynayotgan muammolarga to’xtalib o’tdi.

Qurultoyda yoshlarning madaniyatini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini yanada kengaytirish, o’sib kelayotgan yoshlarni o’z mutaxassisligi bo’yicha tayyorlash, ularni rahbar sifatida shakllantirib borish va

eng asosiysi yoshlarda vatanga bo'lgan muhabbatini yanada kuchaytirish masalalari dolzarb mavzu sifatida qo'yildi.

Qurultoyda "Kamolot" YoIH ni tubdan isloh etish, uning faoliyatini yanada kengaytirish, yoshlarni keng miqyosda jalb etish, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratib berishga ko'maklashish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda har tomonlama barkamol shaxslar bo'lib yetishishiga munosib hissa qo'shish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan "Kamolot" YoIH negizida "Yoshlar Ittifoqi" yoshlar tashkiloti ta' sis etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30 iyun kunini "Yoshlar kuni" deb e'lon qildi. "Xo'sh, Yoshlar Ittifoqi vatanimiz ravnaqi yo'lida yoshlar uchun qanday imkoniyatlarni bera oladi va qanday vazifalarni bajaradi?" degan savol har bir yurtdoshimiz ko'nglidan o'tgan bo'lsa ajab emas.

Hozirda Yoshlar Ittifoqiga yoshlar o'z qobiliyatidan kelib chiqqan holda va o'z xohishlari bilan yoshlar tashkilotiga ilk qadamlarini qo'ymoqda. Bunda yoshlar qamrovi cheklanmagan holda, O'zbekistonning barcha yoshlarini jalb qilish, yoshlarga o'z yo'lini tanlashda ko'maklashish, ularga moddiy va ma'naviy yordamlashishni o'zining asosiy vazifalaridan biri qilib qo'ydi. Yurtimizdagi har bir yosh ularga berilayotgan imkoniyatlardan chetda qolmasligi shart.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

birinchidan, O'zbekiston yoshlar ittifoqini respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, "Yoshlar — kelajak bunyodkori" shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylantirish;

ikkinchidan, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash;

uchinchidan, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar safini kengaytirish;

to'rtinchidan, yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish;

beshinchidan, yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm,

“ommaviy madaniyat” va boshqa yot g’oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish;

oltinchidan, yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g’oyalari keng targ’ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish;

yettinchidan, yoshlarni, ayniqsa, ular uyushmagan qismining bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug’ullanishga, ijodiy to’garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o’rgatish o’quv kurslariga keng jalb etish;

sakkizinchidan, yosh oilalar, xususan, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishga qaratilgan maqsadli ishlarni tashkil etish;

to’qqizinchidan, yoshlar o’rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish;

o’ninchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo’jalik boshqaruvi organlarining mas’ul lavozimlariga tavsiya etish;

o’n birinchidan, yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

o’n ikkinchidan, davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga yoshlarga oid faoliyatni tashkil etishda g’oyaviy-uslubiy jihatdan ko’mak berish.

O’zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlovchi, “Yoshlar — kelajak bunyodkori” shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylanadi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo’yicha ta’sirchan choralar ko’rish maqsadida O’zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo’yicha Davlat maslahatchisi — O’zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilandi.

Yoshlar siyosati masalalari xizmati O’zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi faoliyatini samarali tashkil etish, O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonunida belgilangan vazifalarning to’laqonli ijrosini tashkil etish va nazorat qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi

organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining bu boradagi faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish, ularga g'oyaviy-uslubiy yordam ko'rsatishni tashkil etish, sohaga oid qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha Davlat maslahatchisi — O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'z lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zosi hisoblanadi.

Farmonda O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda yaqindan ko'maklashish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni talablarini hayotga to'laqonli joriy etish va nazorat o'rnatish maqsadida Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tashkil etildi.

Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari raisligida Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy idoralararo kengashlar faoliyat yuritadi.

Buyuk davlat arbobi Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olib, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi beriladi.

Yoshlarning ilmiy va ijodiy faoliyat natijalarini, ilm-fan va adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini hamda yoshlar siyosatiga oid muhim yangiliklarni keng yoritish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqining nashrlarini chop etishga ixtisoslashgan "Yoshlar nashriyoti uyi" tashkil etiladi. Qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish, ular orasida haqiqiy yetakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida "Qizlarjon" jurnali ta'sis etiladi.

Farmonga ko'ra, yoshlarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan "Men sevib o'qigan kitob" va "Eng yaxshi kitobxon" respublika tanlovlari, "Kitob bayrami" va "Bolalar kitoblari" an'anaviy respublika festivallari, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik hissini qaror toptirishga qaratilgan aksiyalar, yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar, adabiyotshunos olimlar bilan ijodiy uchrashuvlar va master-klasslar tizimli tashkil etilishi belgilandi.

Shu bilan birga, 2017-2018 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "katta yetakchi" va "to'garak rahbari" shtat birliklarini tugatish hisobiga lavozim maoshi yuqori sinf o'qituvchisiga tenglashtirilgan "yoshlar yetakchisi" shtat birligi joriy etildi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida "yoshlar yetakchisi" vazifasi yuklatilgan xodimga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy ma'lumotli o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida har oylik ustama belgilanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, yoshlar uyushmalari hamda yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etilishi Farmonda belgilab berilgan.

Yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, o'qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etiladi.

Farmonda 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab kichik biznes korxonalarini tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovi uchun hisoblangan summaning 8 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilishi belgilandi.

Ta'lim muassasasini tamomlaganiga uch yil bo'lmagan, birinchi marta ishga qabul qilingan yoshlarga daromad solig'ini birinchi yil uchun 50 foiz, ikkinchi va uchinchi yillar uchun esa 25 foizga kamaytirish, shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida turli fanlar, jumladan, chet tillarni o'rgatish, kompyuter dasturlarini tuzish va tadbirkorlik asoslarini o'qitish maqsadida tashkil etiladigan sho'ba korxonalarini 2027-yil 1-avgustga qadar barcha soliqlardan ozod etish, bunda korxonada ixtiyorida qoladigan summaning 20 foizini O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish amaliyoti joriy etiladi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar kengashlari raislari tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi va maqomi bo'yicha ularning birinchi o'rinbosarlariga tenglashtirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshlig'ining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari — huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi tavsiyasi asosida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida 3 yil va undan ko'p muddat davomida faol ishlab kelayotgan xodimlarga uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining boshlang'ich to'lovi, shuningdek, tashkilotning faol a'zosi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalariga o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86 foiz va undan yuqori bo'lgan taqdirda ta'lim bo'yicha

to'lov kontrakti miqdorining 35 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Muhim jihati shundaki, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni yanada qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2018 — 2021-yillarga mo'ljallangan Yoshlar uylarini barpo etish dasturi ishlab chiqiladi. Mazkur dasturda barcha yirik shaharlarda – ko'p qavatli, qishloq tumanlarida — 1-2 qavatli namunaviy loyihalar asosida arzon uylar yoshlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib qurilishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining viloyat, shahar va tuman kengashlari raislarini rag'batlantirish maqsadida ularga “Matiz” va “Damas” avtomashinalarini xarid qilish uchun 10 yil muddatgacha mo'ljallangan, boshlang'ich to'lovi 15 foizlik imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Respublikamizning tuman markazlari va shaharlarda Yoshlar tadbirkorlik klasterlari tashkil etiladi.

Foydalanilmayotgan davlat obyektlarini, shuningdek, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalaridagi obyektlarni O'zbekiston yoshlar ittifoqining a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga to'lovsiz ijaraga berish tartibi joriy etiladi.

“Yoshlar” teleradiokanali” AJ faoliyatini kuchaytirish maqsadida uning 50 foiz aksiyalari O'zbekiston yoshlar ittifoqiga beriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlari har oyda kamida bir marta yoshlar bilan ochiq muloqotlarni o'tkazib borish amaliyoti joriy etiladi.

O'zbekiston “Yoshlar ittifoqi” ning ittifoqning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zining hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o'rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo'lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g'urur va o'zlikni anglash, ro'y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;

- yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

- iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb qilish;

- yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb qilish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni diniy-ekstremistik va boshqa buzg'unchi tashkilotlar ta'siridan, chetdan „ommaviy madaniyat“ niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash, yoshlar o'rtasida

huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko'maklashish va boshqalar.

Ittifoqqa yuridik va jismoniy shaxslar Ustavda belgilangan tartibga asosan a'zo bo'lish mumkin. Ya'ni, Ittifoqning maqsadini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida muntazam yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar Ittifoqning a'zosi bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga yoshlar sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar sohasiga oid korxonalar, muassasa va tashkilotlar hamda ta'lim hujjatlari Ittifoqning Ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar ham Ittifoqqa a'zo bo'lishi mumkin.

Ittifoqning rahbar organlariga quyidagilar kiradi

- Qurultoy;
- Markaziy Kengash;
- Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasi;
- Markaziy nazorat-taftish komissiyasi.

Ittifoqning tuzilmasiga quyidagilar kiradi

- Ittifoqning Markaziy apparati;
- Ittifoqning hududiy tuzilmalari;
- Ittifoqning mahalliy tuzilmalari;
- Ittifoqning boshlang'ich tashkilotlari;
- Ittifoqning to'liq muassisligidagi yoki qoshidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari.

Shuningdek, Ittifoq va uning alohida bo'linmalari qoshida tegishli ravishda bolalar yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib boruvchi "Kamalak" sho'balari tashkil qilinadi. Ular Ittifoq va uning alohida bo'linmalarining sho'basi hisoblanadi.

Yoshlar Ittifoqning ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonlar bilan bog'liq hamkorligini yo'lga qo'yish va ta'lim muassasalaridagi yoshlar boshlang'ich tashkilotlarining rolini kuchaytirish maqsadida maxsus nizom ishlab chiqildi. Nizom quyidagicha ko'rinishga ega:

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi.

2. O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkiloti (keyingi o'rinlarda boshlang'ich tashkilot deb yuritiladi) Ittifoqning maqsad-vazifalarini oliy ta'lim muassasasi miqyosida amalga oshiradigan, ta'lim muassasalaridagi talabalar va yosh o'qituvchilarni o'z atrofida birlashtiradigan, ularning manfaatlari va huquqlarini himoya qiladigan eng quyi tuzilma hisoblanadi.

3. Boshlang'ich tashkilot oliy ta'lim muassasasining Yoshlar ittifoqi maqsad-vazifalariga xayrixoh bo'lgan kamida besh nafar yoshlarining tashabbusi bilan tuziladi hamda Ittifoqning mahalliy kengashlari tomonidan ro'yxatga olinadi.

4. Boshlang'ich tashkilotlar oliy ta'lim muassasalarda O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini amalga oshiradi.

5. Oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlar o'zlari joylashgan hududdagi Ittifoqning mahalliy kengashlariga birlashadi.

6. Boshlang'ich tashkilotlar yoshlar etakchisi va etakchilar kengashi a'zolari faoliyat yo'nalishi, qiziqishi hamda yoshlarning talab va istaklaridan kelib chiqqan holda, Ittifoqning mahalliy va hududiy kengashlari qoshida o'z tashkilotlari (uyushmalar, markazlar, klublar, to'garaklar va boshqalar)ni tuzish tashabbusini bildirishi yoki mavjud tashkilotlarga ixtiyoriy qo'shilishi mumkin.

7. Boshlang'ich tashkilotlar faoliyati O'zbekiston yoshlar ittifoqining tegishli mahalliy kengashlari hamda oliy ta'lim muassasasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

8. Boshlang'ich tashkilot o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonun hujjatlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqining Ustavi, oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

II. Boshlang'ich tashkilotning maqsad va vazifalari

9. Boshlang'ich tashkilotning asosiy maqsadi ta'lim muassasalarida yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratib berishga ko'maklashish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda har tomonlama barkamol shaxslar bo'lib etishiga munosib hissa qo'shishdan iborat.

10. Boshlang'ich tashkilot o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy istiqlol g'oyasi, milliy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va oilaviy qadriyatlarni chuqur singdirish;

- yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan fuqarolik huquq va burchlarini anglatish, ularga mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish;

- oliy ta'lim muassasasi yoshlarining muammolari, ta'lim sifati, fanlarni o'zlashtirish darajasi, davomati, darsliklar va kutubxonadan foydalanish darajasini o'rganib borish, yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etishda ko'maklashish;

- yoshlarning chuqur bilim olishi, chet tillarini o'rganishi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashi hamda ularni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan klub va to'garaklar faoliyatini tashkil etish;

- imkoniyati cheklangan hamda maxsus ehtiyojli yoshlarning inklyuziv ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan ishlarni qo'llab-quvvatlash;

- notinch oila farzandlari, tarbiyasi og'ir va nosog'lom muhitga tushib qolgan yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi hamda darslarni muntazam qoldirib kelayotgan talabalarni ta'lim jarayoniga qaytarish, qizlar o'rtasida erta nikohlarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar olib borish;

- yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan huquqiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

- yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularning kitobga bo'lgan muhabbatini oshirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

- yoshlarda "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi zararli illatlar, axborot xurujlari, diniy aqidaparastlik, missionerlik va ekstremistik g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- oliy ta'lim muassasasi yoshlari o'rtasida yoshlar turizmini rivojlantirish, ularning o'zlari yashayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashrifini uyushtirish;

- yoshlar, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida sportni keng targ'ib etish, ularning sportga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash va turli sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

- yoshlarga tibbiy madaniyat, xususan, kasalliklardan himoyalaniish yo'llarini keng tushuntirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;

- yoshlar o'rtasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish orqali ularda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

III. Boshlang'ich tashkilotning huquq va majburiyatlari

11. Boshlang'ich tashkilotning huquqlari quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim muassasasi yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'quv, tarbiya va boshqa jarayonlarda ishtirok etish, mas'ul xodimlar va o'qituvchilardan zarur ma'lumotlarni olish hamda nazorat qilish;

- oliy ta'lim muassasasidagi darslar sifati, o'qituvchilar saviyasi va talabalar bilan munosabati, shuningdek, kutubxona, sport ob'ektlari faoliyatini o'rganish, reydlar, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

- oliy ta'lim muassasasidagi sharoitlardan to'la foydalanish, yoshlar ishtirokida to'garaklar, klublar tashkil etish, ish rejadagi chora-tadbirlarning oliy ta'lim muassasasi tomonidan moliyalashtirilishini talab etish;

bu yerda: O'B- semestrda talabalarning olgan o'rtacha bahosi;
 MO'B – mashg'ulotlarda to'plagan o'rtacha bahosi;
 MTB – mustaqil ta'limdan olgan bahosi;
 ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.
 3 – mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabaning o'rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul'tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo'yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonni (TBBM):

Baho	Talabalarning bilim darajasi
5 – “A'lo”	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilgandayu
4 – “Yaxshi”	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
3 – “Qoniqarli”	Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
2 – “Qoniqarsiz”	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

Talabala bilimni baholash:

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalarga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi

tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yukuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

Baholash natijalarini qayd etish:

Talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o'xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning baholash daftariga yozilmaydi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 03.02.2021.
8. Prezident SHavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 22.02.2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/>


11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr " O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni.
12. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. 2019 yil 31 dekabr. O'zbekiston Respublikasi VM Qarori №1059, Toshkent sh.
13. Quronov, Sh. Turayev va boshq. Millit tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. O'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti. 2017 y. 18 b.t.
14. A. Erkayev. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent. 2018.
15. R. Ruziyeva, N. Bobonazarova Ma'naviyat asosiari. T., "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi", 2019.
16. A. Qodirov, M. Quronov va boshq. Fazilatli avlod: 7-18 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti. 2019 y. 16 b.t.
17. Avloniy. "Tanlangan asarlar" 1 jild. "Ma'naviyat" nashriyoti 2019 y.
18. Fitrat. "Tanlangan asarlar" 1 jild. "Ma'naviyat" nashriyoti 2019 y.
19. M. Bexbudiy. "Tanlangan asarlar". "Ma'naviyat" nashriyoti 2019 y.
20. M. Xodiev Botu. "Tanlangan asarlar". "Ma'naviyat" nashriyoti 2019 y.
21. Ibrat. "Tanlangan asarlar". "Ma'naviyat" nashriyoti 2019 y.
22. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. -T.: Akademiya. 2008.
23. A. Utamuradov va boshqalar. Shaxs ma'naviy kamolotini shakllantirish. Toshkent. "Universitet", 2011.
24. Najmidinova Q. U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. - T.: "Adolat", 2016. 224 b.
25. Kenjaboev A., Kenjaboev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbligi. Zamonaiy ta'lim, 2015 yil, 4-son. 61-64 betlar.


Axborot manbilari:

1. WWW.tdpu.uz
2. WWW.pedagog.uz
3. WWW.Ziyonet.uz
4. WWW.edu.uz
5. tdpu-INTERNET.Ped









Testlar

1. Axloq deganda nimani tushunasiz?

- a) Axloq xudoning insonga bergan in'omi;
- b) Axloq kishining turli xil kayfiyatlari;
- v) Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurishturish qoidalari va hulq-atvori normalari;
- g) Axloq yaxshilik va yomonlikning o'lchov mezoni.

2. Axloq ko'proq qaysi fanlar bilan bog'liq?

- a) Tarix va siyosatshunoslik fanlari bilan;
- b) Pedagogika va huquqshunoslik fanlari bilan;
- v) Sotsial - psixologiya va iqtisodiyot fanlari bilan;
- g) San'at va adabiyot fanlari bilan.

3. Axloqning ijtimoiy hayotdagi roli nimadan iborat?

- a) Odamga omad va baxt-saodat keltiradi;
- b) Kishini hato qilmaslikka undaydi;
- v) Insonni ma'naviy kamolatga etkazadi, jamiyatni ma'lum muvozanatda saqlab turishga imkon beradi;
- g) Kishining o'z nafsini tiya bilishini va insofli bo'lishini ta'minlaydi.

4. Axloqning tarkibiy tuzilishini izohlang?

- a) Kishining kechinmalari, his-tuyg'ularning yig'indisi;
- b) Axloqiy amaliyot va psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi;
- v) Axloqiy ong, axloqiy normalar, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar;
- g) Axloqiy baho va axloqiy mezon.

5. Axloqning tabiiy manbaalari nimalardan iborat?

- a) Axloq tug'ma xarakterga ega, inson tug'ilishi bilan unga in'om etiladi;
- b) Axloqning negizida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar yotadi;
- v) Axloq kishining aql-zakovatiga bog'liq;
- g) Axloq ota-onadan o'tadigan genetik meros.

6. Axloqning ijtimoiy manbalari nimalardan iborat?

- a) Axloq siyosiy ustqurmaning mahsuli;
- b) Axloq jamiyatning tuzumi orqali belgilanadi;
- v) Axloq sotsial muhit va jamoatchilik fikri orqali shakllanadi;
- g) Axloq tarbiya xarakteriga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

7. Axloqning ma'naviy manbalari nimadan iborat?

- a) Axloq xudoning irodasiga bog'liq;
- b) Axloq hayotiy tajribalar davomida takomillashadi;
- v) Axloq ilm-ma'rifat orqali shakllanadi, kishining hayot mazmuni va hayot masadini qanday tushunishiga bog'liq;
- g) Axloq kishining ijtimoiy faolligi, intilishlari va epchilligining mahsulidir.

8. Axloqiy norma -qoidalar qachon paydo bo'lgan?

- a) Odamzod urug'ining paydo bo'lishi bilan;
- b) Inson jamiyati yuzaga kelishi bilan;
- v) Iqtisodiy tuzum inqirozi davrida;
- g) Quldorlik tuzumi shakllangandan keyin.

9. Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qaerda yuzaga kelgan?
- a) Misrda, Hindiston va Xitoy mamlakatlarida;
 b) Qadimgi YUnonistonda va Rimda;
 v) Evropa mamlakatlaridan Angliya va Fransiyada;
 g) Amerika Qo'shma SHtatlarida.
10. Eng qadimgi taniqli axloqshunos mutafakkirlarni aniqlang.
- a) Fales, Anaxsimandr, Geraklit;
 b) Aristotel, Suqrot, Epikur;
 v) Demokrit, Amaksimen, Lukretsiy;
 g) Gelvetsiy, Spinoza, Kant.
11. Axloqshunoslik bo'yicha birinchi darslikni kim yozgan?
- a) Geraklit; b) Aristotel; v) Demokrit; g) Epikur.
12. «Axloq - bu baxt-saodatga erishish yo'llarini o'rgatuvchi fandır» degan fikrning muallifini aniqlang?
- a) Geraklit; b) Aristotel; v) Demokrit; g) Epikur.
13. Axloqning asosida shaxsiy manfaat yotadi - degan fikrni kim birinchi bor ilgari surgan?
- a) Golbax, Gelvetsiy; b) Alisher Navoiy, Farobiy;
 v) Platon, Gegel; g) Kant, Feyerbax.
14. Axloqiy taraqqiyot g'oyasiga kim asos solgan?
- a) Gegel; b) Kant; v) Ibn Sino; g) Jomiy.
15. Burch kategoriyasi ustida kim ko'proq ish olib borgan?
- a) Kant; b) Spinoza; v) Feyerbax; g) Marks.
16. Axloqning asosida sevgi va muhabbat yotadi - degan fikrning muallifini aniqlang.
- a) Feyerbax; b) Suqrot; v) Platon; g) Sa'diy Sheroziy.
17. Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qanday yozma manbada ifoda etilgan?
- a) Qur'onda; b) Avestoda;
 v) O'rxun-Enisey yozuvlarida; g) Farobiy risolalarida.
18. Eng qadimgi xalqlarning o'z Vatani va o'z xalqiga muhabbat fazilatlarini ifodalaydigan og'zaki ijodiyot namunalarini aniqlang.
- a) Go'ro'g'li dostoni; b) Alpomish dostoni;
 v) To'maris va SHiroq afsonalari; g) Qirq qiz dostoni.
19. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodtaga erishuv yo'llari haqida» risolalarining muallifini aniqlang.
- a) Al Kindiy; b) Al Roziy; v) Al Farobiy; g) Al Beruniy.
20. «Sevgi haqida risola» nomli kitobning muallifi kim?
- a) Beruniy; b) Xorazmiy. v) Ibn Sino. g) Umar Xayyom.
21. «Qutadg'u bilik» axloqiy-didaktik risolasini kim yozgan?
- a) A.Donish. b) Jomiy. v) Yusuf Xos Xojib. g) Lutfiy.
22. «Hibatul haqoyiq» axloqiy-didaktik risolaning muallifini aniqlang.
- a) A.Navoiy. b) B.Mashrab. v) A.Jomiy. g) A.Yugnakiy.
23. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining muallifini aniqlang.
- a) Beruniy. b) Lutfiy. v) Navoiy. g) Abdulla Avloniy.

24. «Qobusnoma» didaktik risolani kim yozgan?
 a) Lutfiy. b) Sakkokiy. v) Kaykovus. g) Turdi Farog'iy.
25. «Mahbub ul qulub» axloqiy risolaning muallifini aniqlang.
 a) Bobur. b) Mashrab. v) Navoiy. g) Maxmur.
26. «Axloqiy - Muxsiniy» axloqiy-didaktik asarning muallifini aniqlang.
 a) Muqimiy; b) Furqat; v) Koshifiy; g) Gulxaniy.
27. Inson barkamolligi va insonparvarlik g'oyalarini o'z dunyoqara-shining asosi qilib olgan buyuk alloma kim?
 a) Bobur; b) Mashrab; v) Navoiy; g) Ibn Sino.
28. Sufiylik oqimining yirik namoyondalaridan qaysi birining xizmati bizning bebaho ma'naviy qadriyatimiz?
 a) A.Yassaviy, S.Boqirg'oniy. b) G'azzoliy, Kindiy.
 v) Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib. g) Lutfiy, Xorazmiy.
29. Axloqiy erkinlik deganda nimani tushunasiz?
 a) Axloqiy qonun-qoidalarga buyruqsiz, ichki ehtiyoj bilan rioya qilishni.
 b) Nimani xohlasang shuni qilishni.
 v) Davlat qonunlariga rioya qilmaslikni. g) Anglashilgan zaruriyatni.
30. Axloqiy ma'suliyat nima?
 a) Insonning o'z xatti-harakatiga javobgarligi.
 b) Inson faoliyatining taqdirga bog'liqligi.
 v) Inson xarakterining vaziyatga bog'liqligi, shunga ko'ra vaziyatni ham insoniy qilish zarurligi.
 g) Shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unlashganda insonning axloqiy jihatdan ma'suliyatligi.
31. Axloqiy normalar va axloqiy munosabatlar nimalardan iborat?
 a) Kishining mehnatga, o'z vatani va xalqiga, o'z kasbi-kori va oilasiga munosabatlari.
 b) Qaysi yo'l bilan bo'lmasin hayotda yutib chiqish.
 v) O'z do'sti va sevgilisiga sadoqatligi.
 g) Tavakkalga tan berishligi, omadning kulib boqishi.
32. Axloqiy barkamollik negizida nima yotadi?
 a) Taqdirning taqozosiga amal qilish.
 b) O'qish, o'rganish va yangilikka intilish.
 v) Mehnat qilish, yangiliklar yaratish va undan mamnuniyat hosil qilish.
 g) Boylik orttirish, amaldor bo'lish va shohona hayot kechirish.
33. Oddiy axloq normalarini aniqlang.
 a) O'z burchiga sadoqatligi. b) Hayot mazmunini to'g'ri tushunishni bilish.
 v) Halollik, haqiqatgo'ylik, sahiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, kamtarlik va h.k.
 g) O'z hayotida adashmaslik, hayot maqsadini to'g'ri tanlash.
34. Axloq qanday kuchga tayanadi.
 a) Muayyan siyosiy tuzum tomonidan himoya qilinadi.
 b) Jamoatchilik fikriga. v) Zo'rlik kuchiga tayanadi.
 g) Tarbiyalash, o'qitish va o'rgatishga.

35. Axloqiy normalarni buzgan shaxslarga qarshi qanday chora va tadbirlar ko'riladi?

- a) Jismoniy qiynash zarur, tayoq tarbiyasini qo'llash ma'qul.
- b) Jismoniy javobgarlikka tortmoq lozim.
- v) Jamoatchilik hukmi asosiy vosita bo'lmog'i lozim.
- g) Ota-ona tegishli tanbeh bermog'i lozim.

36. Axloqiy ongning o'ziga xosligi, betakrorligi nimada?

- a) Bevosita insonga bog'liqligida, uning mohiyatini belgilashligida.
- b) Uning doimiyligida, kishining kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liqligida.
- v) Uning tarixiy jihatdan eng qadimiyligida.
- g) Uning ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan uzviy bog'liqligida.

37. Siyosiy va axloqiy ongning bir-biriga ta'sirini aniqlang.

- a) Siyosiy mafkura axloqqa kuchli ta'sir qilmaydi.
- b) Siyosat axloqqa ham, ijtimoiy ongning boshqa shakllariga ham bevosita ta'sir qiladi.
- v) Siyosiy ong va siyosiy qarashlar yuksak axloqiy normalarni o'zida mujassamlashtirmog'i lozim.
- g) Yuksak insonparvarlik g'oyalariga asoslangan siyosat yuksak taraqqiyotga olib boradi.

38. Axloqiy va huquqiy ongning bir-biriga ta'sirini aniqlang.

- a) Har ikkalasi ham kishilarning muayyan jamiyatda rioya qilishlari lozim bo'lgan yurish-turish qoidalari va normalarini ifoda etadi.
- b) Huquqiy normalar axloqan yuksak adolat prinsiplariga rioya qilmog'i darkor.
- v) Huquqiy normalarning axloqiy qoidalarga hech qanaqa ta'siri yo'q.
- g) Huquqiy normalar jamiyat a'zolarining hayotiy zaruriy ichki axloqiy ehtiyojlariga aylanib bormog'i lozim.

39. Axloq va fanning bir-biriga munosabatini aniqlang.

- a) Ilm-fan axloqiy barkamollik negizidir.
- b) Yuksak axloqiy normalarni o'zida mujassamlashtira olgan odamgina ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.
- v) Fanning axloqqa hech qanaqa aloqasi yo'q.
- g) Axloq ham fanga deyarlik ta'sir qilmaydi.

40. Axloq va san'atning bir-biriga ta'sirini aniqlang.

- a) San'at odamni yuksak axloqiy ruxda tarbiyalaydi.
- b) Yuksak axloqiy g'oyalarini o'zida mujassamlashtirmagan san'at asarlari hech qanaqa qiymatga ega emas.
- v) San'at uchun xizmat qilmog'i lozim.
- g) Axloqning san'atga ta'siri yo'q.

41. Axloq va dinning bir-biriga ta'sirini aniqlang.

- a) Diniy qarashlar to'la-to'kis o'zida axloqiy ta'limotlarni mujassamlashtiradi.
- b) Har ikkalasini maqsadi ham insonning ma'naviy yangilanishini ta'minlaydi, uni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi.
- v) Diniy mafkura axloqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi.
- g) Diniy axloq boshqa, umuminsoniy axloq boshqa, ularning bir-biriga ta'siri yo'q.

42. Axloq bilan tarbiyaning bir-biriga munosabatlarini aniqlang.

- a) Axloq tarbiyaning nazariy asosi.

- b) Tarbiya esa axloqiy normalarning amaliy ifodasi.
- v) Axloq va tarbiya bir butun yagona jarayon bo'lmog'i lozim.
- g) Axloq tarbiyaga deyarlik ta'sir qilmaydi.

43. Vatanparvarlik tuyg'usini qanday tushunasiz?

- a) Tug'ilib o'sgan erni sevish va e'zozlash.
- b) O'z xalqi va millatini sevish, ardoqlash.
- v) Bunday tuyg'u nisbiy xarakterga ega, kishining tug'ilib o'sgan joyi emas, uning to'q-farovon yashagan joyi uni vatani.
- g) Kishining o'z ona tiliga, tarixiga va madaniyatiga, xalqi va millatiga bo'lgan sevgisi, ularni e'zozlashi.

44. Insonparvarlik tuyg'usini qanday tushunasiz?

- a) Kishining o'zi uchun, o'z urug'-aymog'i uchun qayg'urishi.
- b) Nogiron va ojiz kishilarga qilgan g'amxo'rliqi.
- v) Insonlarni sevish, yordamga muxtoj kishiga mehr-shavqat qilib yordam bera olishi, rostgo'y, adolatparvar, axloqan barkamol insonparvar degan nomga sazovor bo'la olishi.
- g) Insonparvar bo'lish qiyin, chunki bunday tushuncha chiroyli ibora xolos, odamlar bir-birlarini ko'ra olmaydi, bir-biriga dushman.

45. Siz do'stlikni qanday tushunasiz?

- a) Do'stlik ikkita yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi ma'naviy yaqinlik.
- b) Do'stlik odamning ijtimoiy mavqeiga, lavozimiga bog'liq holda o'zgarib turadi.
- v) Do'stlik kishining yana bir kishiga bo'lgan tabiiy holda yuz beruvchi ichki ehtiyoji, dunyoqarashlari, xarakterlari o'xshashligining oqibati.
- g) Pul, dunyo etarli bo'lsa, do'st topish qiyin emas.

46. Mehr-oqibat deganda nimani tushunasiz?

- a) Insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat beg'araz tarzda bo'lishi lozim.
- b) Mehr-oqibat moddiy farovonlikka bog'liq, hotamtoylik o'zi quruq joyda bo'lmaydi.
- v) Insonning o'z kasbiga, mehnatiga, ota-onasiga va qarindosh-urug'lariga, farzandlariga va yordamga muhtoj barcha kishilarga sidqidildan qilgan munosabati va yordami.
- g) Mehr-oqibat kishining ma'naviy etukligi, yuksak madaniyatining natijasidir.

47. Baynalmilallik axloqiy tuyg'usini qanday tushunasiz?

- a) Turli xalq va millatlarning o'zaro aloqalari, hamkorlik va hamdo'stlik munosabatlarini mazmuni.
- b) Baynalmilallik muayyan ijtimoiy tuzum xarakteriga bog'liq vaqtinchalik hodisa.
- v) Baynalmilallik turli mamlakatlar, xalq va millatlar orasidagi o'zaro manfaatlar, maqsad va intilishlar yaqinligining oqibati.
- g) Baynalmilallik amalga oshmaydigan xomxayollik.

48. Kollektivizm axloqiy tuyg'usini izohlab bering.

- a) Kishining doimo boshqa bironlarga ehtiyoji, tabiiy jihatdan boshqa kishilarsiz yolg'iz xolda yashay olmasligi.
- b) Kollektivizm kishilarning jamiyatda tutgan o'rni va egallagan mavqeiga ko'ra birlashuvi.
- v) Kollektivizm - bu yo'q va bo'lmaydigan narsa.

g) Kollektivizm egoizm va individuallizmning aksi, kishining oliyjanob fazilati.

49. So'z va ish birligi axloqiy qoidasini qanday tushunasiz?

a) O'z so'zining ustidan chiqishlikda, berilgan va'daning so'zsiz bajarilishiga erishishda.

b) Aytilgan so'zning ro'yobga chiqishi murakkab bir hodisa, u sharoitga bog'liq holda yuzaga chiqishi ehtimol.

v) So'z bilan ishning birligini ta'minlash mumkin emas.

g) So'z bilan ishning birligiga erishish aql-zakovati yuksak ishbilarmonligi, boy va serqirra ma'naviyatining oqibatidir.

50. Yaxshilik va yomonlik kategoriyalarini qanday izohlay olasiz?

a) Yaxshilik har bir insonga berilgan buyuk fazilat, axloqan barkamollik negizidir.

b) Yaxshilik bor joyda yomonlik chekinadi.

v) Yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo'ladi, gul tikansiz bo'lmaydi-ku.

g) Yaxshilik ham yo'q, yomonlik ham yo'q, bular faqat kishining u yoki bu xatti-harakatiga berilgan baho.

51. Vijdon kategoriyasini o'ziga xos xususiyati nima?

a) Vijdon - bu o'z-o'zini nazorat qilish.

b) Vijdon - bu o'zgalar manfaatini o'ylash.

v) Vijdon - bu o'z-o'zidan uyalish.

g) Vijdon - bu o'zgalar oldida tarbiyali ko'rinish.

52. Burch kategoriyasini qanday tushunasiz?

a) Burch - bu majburiyat. b) Burch - bu o'z istaklarini qondirish.

v) Burch - bu boshqalarga yaxshilik qilish. g) Burch - bu axloqiy qonun.

53. Baxt nima?

a) Baxt - bu shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni qondirilishi.

b) Baxt - bu kurash. v) Baxt - bu bir-birini tushunish.

g) Baxt - o'zligiga ega bo'lish.

54. Or-nomus nima?

a) Or-nomus - bu o'z mehnati hisobiga yashash.

b) Or-nomus - bu o'z va o'zgalar qadr-qimmatini bilish.

v) Or-nomus - bu o'zgalar haqiga xiyonat qilmaslik.

g) Or-nomus - bu axloqiy hatti-xarakterlar, his-tuyg'ular, munosabatlar.

55. Adolat nima?

a) Adolat - o'zgalarga yomonlik qilmaslik.

b) Adolat - qonunlarga rioya qilish.

v) Adolat - axloqiy norma va qoidalar asosida hayot kechirish.

g) Adolat - bu inson tabiiy huquqlarining mezonidir.

56. Sizing yashashdan maqsadingiz nima?

a) Shaxsiy manfaatlarni qondirish. b) Vatan ravnaqi uchun mehnat qilish.

v) O'zgalardan hukmronlik qilish.

g) O'z va o'zgalardan manfaatini uyg'unlashtirib, hayotda yaxshi nom qoldirish.

57. Hayot mazmunini qanday tushunasiz?

a) Boy va badavlat yashash uchun kurashish va unga erishish.

b) Vatan, xalq va millat ravnaqi yo'lida fidoyilik qilish.

v) Axloqiy barkamollikka erishish, mehnat qilish, yangilik yaratish va baxtiyor yashash.

g) Hayotda omadni kutish va taqdiru-tavakkalga ishonish.

58. Kasb-hunar axloqiy madaniyatini qanday tushunasiz?

a) Har bir kishi kasbini sevishi, uni e'zozlashi va muayyan kasb egasi sifatida faxrlanib yurmog'i lozim.

b) O'z kasbiga xiyonat qilmasligi, unga bir umr sadoqatli bo'lishi zarur. Bu narsa uning yuksak ishbilarmonligida, yuqori sifatli mahsulot yaratishida namoyon bo'ladi.

v) Kasb insonga berilgan qobiliyat, uni istagan vaqtda o'zgartirishi, yoqmasa boshqa kasb bilan shug'ullanishi mumkin.

g) Kasb hech qanday axloqiy xarakterga ega emas, u kun ko'rish vositasi.

59. Muomala madaniyati deganda nimani tushunasiz?

a) Hamma bilan xushmuomalada bo'lish va o'z fikr-mulohazalarini boshqalarga o'tkaza olish.

b) Doimo haqiqatni gapirish. v) Axloqiy etiketga rioya qilish.

g) Muomala maqsadga erishish vositasi bo'lmog'i lozim.

60. Axloqiy tarbiya qaerdan boshlanadi?

a) Eng avvalo oiladan, so'ngra bog'cha va maktabda davom qilmog'i lozim.

b) Hayotning o'zi katta tarbiya maktabidir, uni tarbiyalab o'tirish kerak emas.

v) Ota-ona xulq-atvori farzand uchun katta tarbiya maktabidir.

g) Ishlab chiqarish jamoasi muhim tarbiya rolini o'ynashi mumkin.

61. O'z-o'zini tarbiyalashni qanday tushunasiz?

a) O'ziga chetdan turib, axloqiy xatti-xarakterga baho bera olish.

b) Kishi o'zining xatti-harakatini tahlil qilishi mumkin emas.

v) Tanqidlardan to'g'ri xulosa chiqarish va yaxshi axloqiy fazilatlarni doimo o'zida shakllantira borish.

g) O'zini mutloq to'g'ri deb hisoblash.

62. Farzandlik burchi nima?

a) Ota-onani, xalqini, Vatanni sevish, hurmat qilish va ular uchun samimiy xizmat qilish.

b) Oldiga qo'yilgan maqsadi yo'lida mehnat qilish.

v) Do'stlariga sodiq bo'lish.

g) Butun dunyo xalqlariga mehr-muhabbat bilan qarash.

63. Yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan kishilarni siz qanday tasavvur qilasiz?

a) Or-nomusli, vijdonli, xalol, mehnatsevar, o'z xalqi va Vatanini sevmog'.

b) Hamma kishilarga yaxshi bo'lishning imkoni yo'q.

v) Katta boylik, mansab kishini oliy fazilatli qiladi.

g) Ruhiy va ma'naviy etuklikka erisha olish.

64. Halollik, poklik nima?

a) O'z mehnati bilan yashash.

b) Vijdonan sof, aqlan etuk, so'z bilan ishi bir bo'lish.

v) Halollik - e'tiqod xolos.

g) Bir vaqtning o'zida odam ham halol, ham epchil, ishbilarmon, uddaburon bo'lishi mumkin emas.

65. Ahloqiy konfliktni hal etish yo'llarini qanday tasavvur qilasiz?

a) Sabr-toqat bilan suhbatdoshini tinglash va o'zini suhbatdoshini o'rniga qo'yib ko'rish.

b) Huquqiy yo'l bilan chora ko'rish.

v) Mulohaza bilan xolisona fikr bildirish.

g) Jamoatchilik oldida uni uyaltirish, tanbeh berish.

TEST JAVOBLARI

1. v 11. b 21. v 31. a 41. v 51. a 61
2. b 12. g 22. g 32. v 42. a 52. a v
3. v 13. a 23. g 33. v 43. g 53. a 62
4. v 14. a 24. v 34. b 44. v 54. g a
5. v 15. a 25. a 35. v 45. v 55. v 63
6. b 16. a 26. v 36. a 46. v 56. g a
7. v 17. v 27. v 37. g 47. a 57. v 64
8. b 18. v 28. a 38. b 48. a 58. a b
9. a 19. v 29. a 39. a 49. g 59. a 65
10. b 20. v 30. g 40. a 50. a 60. a a

Tarbiya fanidan savollar

1. Tarbiya-ijtimoiy fan sifatida.
2. Tarbiya fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi, vazifalari, acociy tushunchalari, metodologiyasi, tadqiqot usullari.
3. Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
4. Tarbiya fanining jamiyat va olamni rivojlantirishdagi o'rni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyacini tacdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli qarorida belgilangan vazifalar.
6. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyacining mazmuni va dolzarbligi.
7. Tarbiya fani Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasi asosida tatbiq etilishi, maqsad va vazifalari.
8. Tarbiya fani muammolari, unga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar.
9. Tarbiya fanining dolzarbligi va zarurati.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi videoselektor yig'ilishidagi ta'lim tizimiga Tarbiya fanini joriy etish to'g'risidagi taklifi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-iyul 2020-yildagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-422-son qarorining mazmun-mohiyati va ahamiyati.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida tarbiyaga oid konseptual g'oyalar.
12. Milliy tarbiyaning ilmiy, falsafiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy asoslari.
13. A. Avloniy, A. Fitrat, M. Behbudiy, I. Ibrat asarlarida tarbiya masalalari.
14. Ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda tarbiyaning o'rni.
15. Ma'naviy -ma'rifiy sohadagi islohotlar.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-may PQ-4307-sonli belgilangan vazifalar.
17. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura va din masalalarining o'zaro uyg'unligi.
18. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari.
19. Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.
20. Tarbiyaning globallashuvi jarayonlaridagi vazifasi.
21. Globallashuvning shaxs hayoti va faoliyatidagi o'rni.

22. Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuvchilik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, "ommaviy madaniyat"ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar va ularni bartaraf etishdagi asosiy vazifalar.
23. Xalq og'zaki ijodi turlari.
24. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish.
25. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.
26. Sharq allomalari merosida inson falsafasi masalalari.
27. Dars jarayonlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.
28. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati.
29. Inson huquqlari.
30. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.
31. O'zbek milliy tarbiya texnologiyalari.
32. O'zbek tarbiyashunosligida vorislik va qadriyatlar ustivorligi.
33. Ajdodlar o'g'itlari va an'analar.
34. Zamonaviy o'zbek tarbiyashunosligida o'tmish va zamonaviylik transformatsiyasi.
35. Tarbiyani insonparvarlashtirish.
36. Shaxs erkinligi va tarbiya.
37. Tarbiyada zamonaviy transformatsiya.
38. Tarbiyada o'tmish va zamonaviy transformatsiya.
39. Milliy tarbiya yo'nalishlari.
40. Yoshlarda yurt taraqqiyotiga xizmat qilish malakasini hosil qilish va bundan faxrlanish tuyg'usini his eta olishni shakllantirish.
41. Yosh avlod vakillarining yurtimiz taraqqiyoti va ravnaqiga shaxsiy hissasini qo'shishi uchun shart-sharoitlar.
42. Insoniy fazilatlar va axloq.
43. Tarbiyaning Sharq modeli.
44. Qur'oni Karim va hadislarda tarbiya masalasi.
45. J.Rumiyaning mo'min inson tarbiyasi.
46. A.Navoiyning komil inson g'oyasi.
47. Sharq uyg'onish davri allomalarining (Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi) ilmiy merosi.
48. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tarixi.

49. O'zbekistondagi mavjud ijtimoiy tarmoqlar (instagramm, feysbuk, telegram, vatsap, odnoklasniki,...).
50. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy va ijobiy tomonlari.
51. Oila tarbiyasi.
52. Oila va jamiyat.
53. Tabiat va inson.
54. Tabiatga munosabat madaniyati.
55. Xalqimizning ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati.
56. Tejamkorlik yaxshi fazilat.
57. Ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik.
58. Qat'iy fe'l-atvorning muhimligi.
59. Qat'iy fe'l-atvorning tarkibi va ularning ahamiyati.
60. Fe'l-atvorda irodaning o'rni.
61. Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish.
62. O'z-o'zini anglash va o'z-o'zini tarbiyalash metodlari.
63. Muomala uchun zarur odoblar.
64. Muomala odobi.
65. Insonlarga muomala qilishda shirin so'z bo'lish ham asosiy ahamiyatga egadir. Shirin so'z vositasida inson qalbiga yo'l topiladi.
66. Kirishimlilik - muvaffaqiyat kaliti.
67. Kirishimli insonning eng katta yutug'i uning atrofidagi insonlar bilan iliq munosabatga kirisha olishidir.
68. Yangi jamoaning tartib-qoidalari.
69. Samarali muloqot va muomala usullari.
70. So'zlashganda o'ylab, chiroyli so'zlar bilan gapirish ezgulik baxt yo'lini ochadi.
71. Muloqot madaniyatiga, odobiga amal qilish kishini yuksaklik sari etaklaydi. Samarali muloqot qilishning ahamiyati.
72. Shaxsni jamoada tarbiyalash.
73. Ijtimoiylashuvda jamoaning o'rni.
74. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Konsepsiyasining ahamiyati.
75. Ta'lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.
76. Yoshlar ittifoqi" va "Yoshlar ishlari agentligi"ning faoliyati, maqsad va vazifalari.
77. Ularning ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonlar bilan bog'liq hamkorligi.
78. Ta'lim muassasalaridagi yoshlar boshlang'ich tashkilotlarining rolini kuchaytirish.

79. Hissiyotlarni anglash, ularni nazorat qilish usullari.
80. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ma'naviy-tarbiyaviy masalalar talqini.
81. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.
82. Ma'naviy-tarbiyaviy masalalarga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror, farmon va farmoyishlari tahlili.
- Yangi O'zbekiston strategiyasida milliy tarbiyani shakllantirishga oid qarashlar.

“Tarbiya” modulidan talabalar bilimni baholash mezonlari

Ushbu talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrda 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha YO'RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o'qituvchisi tomonidan birinchi mashg'ulotda Yo'riqnoma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimni baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

Nazorat turlari:

Talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida hamda mashg'ulotlardan keyin o'tkaziladi.

Talabalar mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o'zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalar mashg'ulotlarda olgan baholari barchasi qo'shiladi va olinishi shart bo'lgan baholar soniga bo'lgan holda o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

Oraliq nazorat fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o'tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o'quv mashg'ulotlari (seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ma'ruza mashg'ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo'lgan o'rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'B = \frac{MO'B + MTB + ONB}{3}$$

bu yerda: O'B- semestrda talabalarning olgan o'rtacha bahosi;
 MO'B – mashg'ulotlarda to'plagan o'rtacha bahosi;
 MTB – mustaqil ta'limdan olgan bahosi;
 ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.
 3 – mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabani o'rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabani nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasini tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul'tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo'yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonini (TBBM):

Baho	Talabalarning bilim darajasi
5 – “A'lo”	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganday
4 – “Yaxshi”	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
3 – “Qoniqarli”	Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
2 – “Qoniqarsiz”	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

Talabalar bilimni baholash:

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalarga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabani bilimni baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan

professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

Baholash natijalarini qayd etish:

Talabalar bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimni baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o'xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning baholash daftariga yozilmaydi.